

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

QO‘LDOSHEV SHERALI TEMIRALIYEVICH

«MILLIY QADRIYATLAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR»

O‘QUV QO‘LLANMA

TOSHKENT–2015

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

QO‘LDOSHEV SHERALI TEMIRALIYEVICH

« MILLIY QADRIYATLAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR »

O‘QUV QO‘LLANMA

Bilim sohasi:	600000	- Xizmatlar sohasi
Ta’lim sohasi:	610000	- Xizmat ko‘rsatish sohasi
Magistratura mutaxassisligi:	5A610401	-Madaniyatshunoslik

TOSHKENT–2015

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Fakultet: Kino, televideniye va radio san'ati
Kafedra: San'atshunoslik va madaniyatshunoslik
Tuzuvchi: t.f.n. dotsent v.b. SH.T. Qo'ldoshev

Taqrizchilar:

“Milliy qadriyatlar va transformatsion jarayonlar”
O'quv qo'llanmasiga
Annotatsiya

Mazkur o'quv qo'llanmada "Milliy qadriyatlar va transformatsion jarayonlar" fani turkumidan berilgan. Unda qadriyat, ma'naviy qadriyat, transformatsiya tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy adabiyotlar asosida ilmiy ta'riflari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda ma'naviy, tarixiy, diniy, milliy qadriyatlarni qayta tiklanish hamda transformatsion jarayonlarning ta'siri haqida ko'pgina ma'lumotlari berilgan. Talabalarga ekologik madaniyat-ma'naviy qadriyat sifatida, milliy urf-odat, an'ana va marosimlarni qayta tiklanishida mahalla va oilaning tutgan o'rni haqida berilgan. Nazariy masalalar esa Prezident Islom Karimov asarlari asosida tahlil qilingan.

O'quv qo'llanma O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti qoshidagi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy Kengash majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2015-yil majlis bayonnomasi)

Государственный институт искусств и культуры
Факультет: Искусств кино, телевидения и радио
Кафедра: искусствоведение и культурология
Составитель: Ш.Кулдашев

Аннотация учебное пособие «Национальные ценности и трансформационные процессы»

Данное учебно-методическое пособие было составлено для предмета «Национальные ценности и трансформационные процессы» и в нем представлен широкий обзор основных понятий духовности личности, такие как ценности и их роль в развитии общества, История как основа духовности народа, восстановление религиозных ценностей, Семейные ценности и институт махалля, как ценности узбекского народа, восстановление национальных обычаев и традиций, экология в качестве народной ценности, восстановление народного самосознания, связь построения демократического общества в Узбекистане с национально-духовными ценностями. Также, представлены научные советы по основным направлениям семинарских занятий студентов, таких как освещение вопросов духовности в произведениях президента Республики Узбекистан И.А.Каримова, память исторических личностей как источник духовности народа, восстановление национальных праздников и народных игр, взгляд на национальную литературу и искусство, Роль языка в развитии духовности народа, взаимосвязь национальных и общечеловеческих ценностей.

Учебно-методическое пособие предназначено для студентов магистратуры по предмету «культурология» (по направлениям).

Uzbekistan State institute of Art and Culture

Department: Art of Film, Radio and television

Chair: Art criticism and Culturology

Author: Sh. Kuldashev

Annotation of tutorial textbook of «Spiritual values of renewal
of the national consciousness»

This teaching aid is prepared for the subject of «Spiritual values of renewal of the national consciousness» and it presented a broad overview of main concepts of the spiritual thoughts of the person, such as values and their role in the society, the history as a base of spirituality of the person, the renewal of the religious values, family values and the institute of the “mahalla” as a richness of the Uzbeks, the recovery of the national customs and traditions, the ecological environment as a national value, a renewal of the national consciousness, relationship between processes of the building of democratic society in Uzbekistan and spiritual values. Moreover, it provided scientific advice on the focus of subjects for students, such as the enlightening of the processes of spiritual development of the nation in the work of the president of Republic of Uzbekistan Islam Karimov, also the memory of historical figures as a source of spirituality of the people, the restoration of national holidays and folk games, views on national literature and art, the role the language in the development of spirituality of the people, the relationship of national and general values.

This teaching manual is intended for graduate students of the specialty “Fellow of cultural studies” (according to directions).

Mundarija

KIRISH	8
1. Milliy qadriyatlar, ularning jamiyat hayotidagi o‘rni	10
2. Milliy madaniyatning nazariy asoslari	21
3. Milliy til – milliy qadriyat sifatida	29
4. “Transformatsiya” tushunchasining ijtimoiy-falsafiy va madaniy talqini	32
5. Urbanizatsiya sharoitida milliy qadriyatlarning transformatsiyasi	44
6. Tarixiy xotira – xalq ma’naviyatining asosi	53
7. O‘zbekistonda diniy qadriyatlarni qayta tiklanishi	58
8. Mahalla va oilaviy qadriyatlarning tiklanishi	71
9. Milliy urf-odatlar va an’analarning tiklanishi	79
10. Ekologik madaniyat - ma’naviy qadriyat sifatida	84
11. Ma’naviy qadriyatlar tizimida adabiyot va san’atning o‘rni	95
12. Milliy o‘zlikni anglashning tiklanishi	99
13. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy an’anaviy qadriyatlar bilan bog‘liqligi	112
14. Milliy g‘oya va milliy-ma’naviy qadriyatlar	120
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	125

Содержание

Введение	8
1. Национальные ценности и их рол в жизни общества	10
2. Теоретическая основа национальной культуры	19
3. Национальный язык как национальная ценность	29
4. Социально-философская и культурная интерпретация трансформации	32
5. Трансформация национальных ценностей в условиях урбанизации	44
6. Историческая память как основа духовности народа	53
7. Восстановление религиозных ценностей в Узбекистане	58
8. Восстановление института махалли и семейных ценностей	71
9. Восстановление национальных обычаев и традиций	79
10. Экологическая культура – как духовная ценность	84
11. Место литературы и искусства в системе духовных ценностей	95
12. Восстановление национального самосознания	99
13. Взаимосвяз процессов построения демократического общества в Узбекистане с национальными традиционными ценностями	112
14. Национальная идея и национально-духовные ценности	120
Литература	125

Content

Introduction	8
1. Values and their role in the society	10
2. Theoretical bases of the national culture	20
3. National language as a national value	29
4. Social-philosophical and cultural interpretation of transformation	32
5. Transformation of National values in conditions of Urbanization	44
6. Historical memory as a base of spirituality of the people	53
7. Restoration of religious values in Uzbekistan	58
8. Rebirth of the Makhalla Institution and family values	71
9. Restoration of national customs and traditions	79
10. Ecological culture – as a spiritual value	84
11. The place of literature and art in the development of spiritual values	95
12. Restoration of the national identity	99
13. Relationship between processes of the building of the democratic society in Uzbekistan with traditional folk values	112
14. National idea and spiritual values	120
Literature	125

KIRISH

“Milliy qadriyatlar va transformasion jarayonlar” fanining asosini shu bugungi kungacha jahon madaniyatida erishilgan yutuqlar va taraqqiy etgan mamlakatlar tajribalariga va milliy an’analarga tayangan qadriyatlar yig’indisi tashkil qiladi.

“Milliy qadriyatlar va transformasion jarayonlar” fanining maqsadi: mazkur fanning hamda madaniy-ma’rifiy soha bo’yicha magistrlar tayyorlash. Ona Vatanimizning juda qadimiy va boy moddiy, ma’naviy madaniyati, ma’naviy qadriyatlari va milliy o’zlikni anglashga ega ekanligi tarixiy hamda shu bois qudratli xalqimizning jahon sivilizasiyasiga ulkan hissa qo’shganligi xaqida asriy tarixiy bosqichlarning mukammal bayonini talabalar ongiga singdirishdir.

“Milliy qadriyatlar va transformasion jarayonlar” fanining vazifasi: madaniyatshunos magistrnlarni talab darajasida moddiy va ma’naviy madaniyatimiz yuksalishini tarixiy bosqichlarni bayon etish jarayoni orqali tinglovchilarda ilmiy tasavvurni hosil qilish hamda jahon hamjamiyatida O‘zbekiston Respublikasining eng qudriyatli, yuksak madaniyat cho‘qqisiga chiqib olgani, kelajagi buyuk davlatni bunyod etish uchun qahramonona faoliyat ko‘rsatayotganligi xaqida batafsil ma’lumot berishdir.

Magistrlarning bilim olishiga va ko‘nikmasiga qo‘yiladigan talablar: madaniy xizmatchilar va madaniyatshunoslar o‘z ona tarixi, madaniyati, shu jumladan, jahon madaniyatining noyob jihatlarini mukammal ravishda bilishni, hozirgi davr astoydil talab qilmoqda. Bu fan magistrlar umumiy saviyasini oshirishga, ularni o‘z Vatanini, milliy qadriyatlarini chuqurroq o‘rganishga, jahon madaniyatining eng noyob jihatlaridan xabardor bo‘lishga yo‘naltiruvchi fandir.

O‘quv qo‘llanmani yaratishda Respublika Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tavsiyasi bilan chiqarilgan talablardan, mavjud dasturlardan foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa meyoriy xujjatlar hamda jahon va vatan madaniyati tarixiga oid ilmiy adabiyotlar dasturni tuzishga asos bo‘ldi. Ishchi dasturi tayyorlashda oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tavsiya etilgan soatlar hajmi hisobga olingan.

1-MAVZU: MILLIY QADRIYATLAR, ULARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI

Ma’ruza rejasi:

1. *Milliy qadriyat tushunchasi va uning ilmiy falsafiy talqin.*
2. *Milliy qadriyatlarning millatni obyekt va subyekt sifatida*
3. *Milliy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o‘rni.*

Mavzuning maqsadi: Talabalarga “milliy qadriyat” atamasining fandagi ilmiy-tahlili, uning jamiyat hayotidagi o‘rni, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda ma’naviy qadriyatlar haqidagi tushunchalarni misol va faktlar asosida tushuntirib berish.

1. Qadriyatlar sohasida millat va unga xos belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayonlariga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan hudud, u bilan bog‘liq tuyg‘ular, millatning madaniyati, u yaratgan madaniy boyliklar va ma’naviy meros bilan bog‘liq qadriyatlar ham muhim o‘rin egallaydi. Bu qadriyatlar millat kishilari uchun umumiy hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar, ularning ahvoli, kelajak taqdiri kishilarni doimo qiziqtirib kelgan muammolardandir. Afsuski, o‘tmishda masalaga jamiyatimiz tomonidan yetarli darajada e’tibor berilmadi. Endilikda demokratik jarayon hozirda ko‘p millatli mamlakatimiz milliy qadriyatlarini qayta idrok etish va anglashni talab etib, bu sohalarida yig‘ilib qolgan muammolarni yangicha tafakkur asosida chuqur nazariy mushohada etishni taqozo etmoqda.

Milliy qadriyatlar tor va keng ma’noda ishlatiladigan tushunchadir. Tor ma’noda milliy qadriyatlar muayyan bir millatning, elatning qiziqishlari va manfaatlari yig‘indisini, mazmunini tashkil etadi. Keng ma’noda esa milliy qadriyatlar muayyan bir davlatda yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaati va qiziqishlarini ifodalovchi munosabatlar yig‘indisini aks ettiradi¹.

Avvalo, milliy, diniy qadriyatlarning sobiq ittifoq tuzumi davrida «sinfiylik» yoki «partiyaviylik» nuqtai-nazaridan talqin etilishi va uning oqibatlari, ma’naviy madaniyatga yetkazilgan zararlarining muhim jihatlari qayd etiladi. Ayni vaqtda jamiyat urbanizasiya va transformasion jarayonlarida milliy qadriyatlar moslashuvini, muhim ijtimoiy omillar sifatida o‘rganish, milliy qadriyatga tayangan holda, yondashish qaror topa boshlaganligi mustaqillikning muhim yutug‘i sifatida qaraladi. Albatta, qadriyatlar kishilarning ongiga o‘z ta’sirini o‘tkazish bilan birga, jamiyatning ijtimoiy - siyosiy hayotida ham doimo muhim rol o‘ynab kelgan. Ta’kidlash joizki, mazkur masala bugungi kunda ham katta ijtimoiy-siyosiy mavqega egadir.

Milliy qadriyatlar asosida, har bir inson amal qilishi lozim bo‘lgan axloqiy meyor va ko‘rsatkichlar tizimi mavjuddir. Masalan, shariat buyicha ummatlarga buyurilgan amallar sakkiz xil bo‘lib (farz, vojib, sunnat, mustaxab, muboh, harom, makruh, mustakra) jami 934 huquqlar va nizomlarni tashkil etadi². Bular hammasi

¹ Tulenov J. Hayot falsafasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993. – B. 238.

² Admad Xodiy Mahsudiy. Shar’iy hukmlar to‘plami. – Toshkent:1990. – B.94

shariat talablari bo'lib, hayotdagi muammolarni hal etishda zarur axloqiy tamoyillar sifatida ilgari suriladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar va an'analar umuminsoniy qadriyatlar bilan uzviy bog'langan bo'lib, ular bir - biriga ta'sir etadi, biri ikkinchisini to'ldiradi, mazmunan boyitadi.

Ma'naviyat faqat insonga xos xususiyatdir. Shu sababli odamzod bir-biridan o'rganib, xatolarini, kamchiliklarini boshqalarga qarab tuzatib, o'zini o'nglab, o'rganib yashaydi.

Milliy qadriyatlar haqida so'z borar ekan, avvalo, "qadriyat" tushunchasining mazmunini anglash lozim. Qadriyatlar - insoniyat tomonidan ijtimoiy - tarixiy rivojlanish jarayonida yaratilgan va yaratilayotgan jamiki, maxsulotlar (moddiy, ma'naviy) an'analar, rasm-rusumlar yig'indisi sifatida talqin etiladi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda inson mehnatining samarasi sifatida yaratilgan barcha go'zalliklar (inson tomonidan yaratilgan barcha narsalar) qadriyat hisoblanadi. Shuningdek, qadriyatlar mazmuni, tarkibi jihatdan ham farqlanadi. Masalan, insonlar ijodiy faoliyatlarining samarasi o'laroq shakllangan, rivojlangan, taraqqiy etgan aqliy kamolotlari, komilliklari samarasi turmush tarzini muvofiqlashtiruvchi tamoyillar majmui axloqiy qadriyat deb baholanadi. "Falsafiy ensiklopediya"ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflangan: «qadriyat falsafiy va sosiologik tushuncha. U birinchidan, biror obyektning ijobiy yoki salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi - baholovchi jihati (subyektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi. Shunga ko'ra obyektiv va subyektiv qadriyatlari mavjud bo'lib, ular bir - biridan farqlanadi»³. Zotan, qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining obyektiv zaruriyatidir.

Boshqa guruh olimlar bu xaqida boshqacharok fikrni ifoda etadilar: "qadriyat (falsafa va sosiologiyada) - voqelikdagi muayyan hodisalarning insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha»⁴. Bizningcha, esa qadriyat inson ijtimoiy munosabatlari yig'indisi sifatida muayyan huquq va burchlar asosi hamdir.

Ayrim olimlar: «qadriyatlarni mazmuni va harakteriga ko'ra progressiv va reaksiyon tiplarga ajratish mumkin»,⁵ desalar, taniqli faylasuf olim V. P. Tugarinov bu fikrga o'z e'tiborini quyidagicha qaratadi: «qadriyatlar muayyan jamiyat yoki sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining xaqiqiy yoki ideal ne'matlari bo'lgan tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyati (yoki hodisaning bir jihati)dir. Bu ne'matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab - kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. Shuning uchun ham kishilar o'z tasarruflaridagi qadriyatlarni himoya qiladilar va o'zlari uchun maqsad yoki ideal bo'lgan qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar. Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiy hayotning o'zidir, chunki hayotdan mahrum bo'lish, qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi. ... Qolgan qadriyatlar, aslini olganda, hayot ne'matlarining mohiyatidir,

³Filosofskaya ensiklopediya. T. 5. – Moskva: 1970. – S.462.

⁴Nazarov K. Akseologiya, – Toshkent: O'zbekiston. 2000. – B.34.

⁵O'zbek sovet ensiklopediyasi. 14-jild. – Toshkent: 1980. – B.7.

madaniy qadriyatlardir»⁶. Zeroki, qadriyat shaxsning shakllanishida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda xalq qiluvchi rol o'ynaydi, har bir shaxsda mansub bo'lgan jamoaga, millatga, elatga, jamiyatga xos jami xususiyatlar va belgilar qadriyatda shakllanadi.

Taniqli faylasuf J. Tulenov esa qadriyatga quyidagicha baho beradi: «qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari tushunilmog'i lozim»⁷. T.T. To'ychiyevaning fikricha, «Qadriyatlar – inson va insoniyat uchun o'tmishda va hozirda katta ahamiyat va qadrga ega bo'lan barcha moddiy va ma'naviy omillarni anglatadi»⁸.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, qadriyatni xalq, millat an'analari muqaddasligidan o'z mohiyatiga ko'ra, bebaho qadr - qimmatga ega bo'lgan, jamiyat a'zolarining ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, qiziqishlaridan kelib chiqqan ijtimoiy hodisa deb hisoblaymiz.

Prezidenti Islom Karimov qadriyatlarning ijtimoiy mavqei borasida bergan bahosi ibratlidir. «Xalqimiz sarchashmalarining ko'zlari qaytadan ochilganligi, jahon madaniyati yutuqlariga zo'r hissa qo'shgan, buyuk ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi teranligi va chuqurligi anglab olinganligi, har bir avlodning o'z o'tmishiga, oliyjanob milliy va diniy an'analarga hurmat bilan qarash, ularni asrab - avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi, ayni chog'da hozirgi zamon jahon sivilizasiyasi va ularga oshno bo'lish zarurligi ravshan anglab yetilganligi, mana shularning hammasi hayotbaxsh bir zamindirki, bizning yangilanish va xalqimizning milliy o'zligini anglashi, aholining siyosiy yetukligi va faolligini kuchaytirish borasidagi siyosatimiz mana shu zaminga tayanadi»⁹.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mustaqillik ma'naviy hayotimizga katta yutuqlar bilan milliy ma'naviyatimiz zaminining asosini tashkil etuvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini qaytadan tiklab berdi. «Milliy qadriyatlar - millat uchun muhim jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlar. O'z milliy qadriyati bo'lmagan millat yoki elat yo'q. Millatning tanazzuli - milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar, millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi»¹⁰ - degan fikrlaridan kelib chiqsak, unda milliy qadriyatlar demokratik, adolatli, huquqiy davlat asoslarini mustahkamlaydigan ma'naviy poydevordir, deb baholash mumkin.

Qadriyat tushunchasining ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda ko'pgina ilmiy ta'riflari mavjud. Berilgan ta'riflarni tahlil etish bir tomondan turli xil yondashuvlarning mavjudligini, ikkinchi tomondan esa, ularning butunlay bir-birini inkor etishi hollarining mavjud ekanligini ko'rsatadi. Masalan, "Falsafiy ensiklopediya"ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflangan:

⁶ Tugarinov V. I. O sennostyax jizni i kulturu. – L.:1960.- S. 3

⁷ Tulanov J. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent: O'zbekiston, 1998. – B.12.

⁸ To'ychiyeva T.T. O'zbek ma'naviy qadriyatlari tizimida urf- odat, an'analarning o'rni. Fals. fan. nom. diss. – Toshkent: O'zMU, 2000. – B. 27.

⁹ Karimov I. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. - Toshkent: O'zbekiston, 1995. –B.140.

¹⁰ Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Xonazarov umumiy tahririda. – Toshkent: Sharq, 1998. – B.71.

”Qadriyat falsafiy va sosiologik tushuncha. U birinchidan, bir obyektning ijobiy yoki salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (subyektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi”¹¹. Rus tilidagi “sennost” ya’ni qadriyat tushunchasiga, kishilarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga, ma’naviy dunyoqarashiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko’rsatadigan barcha narsa va hodisalar kiritilgan.

“Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo’lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari hodisalari majmuini tushunmog’imiz lozim¹².

“Qadriyatlar — jamiyatda kishilar o’rtasida obro’ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”¹³ degan ta’rif berilgan. Qadriyatlarni bunday ta’riflash uning mohiyatini ancha yorqin ifodalasada, lekin qadriyatlarga berilgan ta’riflar ichida o’zining ilmiyligi bilan boshqa ta’riflardan ajralib turadi, degan fikrdamiz. Bizningcha, “umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi butun jamiyat ahamiyatiga ega bo’lgan, insoniyatning mavjudligi, o’tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo’nalishlari, qonun-qoidalarini, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va ideallarini o’zida aks ettiradigan qadriyatlarining umumiy shakllarini ifodalaydi. Umuminsoniy qadriyat tushunchasining obyektiv asosi ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar, insoniyatning uzluksiz xayotini va turmush tarzini umumlashtiradigan jamiyatdir”. Darhaqiqat “umuminsoniylik” tushunchasida qadriyatlarni tirik tabiatning bir qismi bo’lgan odam zotining hayoti va kamoloti, uning tarixiy taraqqiyoti, siyosiy va boshqa birliklar uchun ahamiyati o’z ifodasini topishi kerak. Shu o’rinda insoniyatning eng umumiy jamoasi bo’lgan jamiyatgina umuminsoniy qadriyatlarning yaratguvchisi va saqlab turuvchisidir. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko’lamli va serqirra tushuncha. Uning zaminida eng avvalo ozodlik, erkinlik, tinchlik, demokratiya tufayli shakllangan inson baxt-saodati kabi umumijtimoiy ma’no va mazmun kashf etadigan qadriyatlardan iborat, deyish mumkin. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma’naviy boyliklar sifatida tushunish va uni shunday izohlash ham ilmiy nuqtai nazardan to’g’ri emas.

Yuqoridagi adabiyotlarning tahlillari shuni ko’rsatadiki, o’tmishdagi barcha ijtimoiy-falsafiy ta’limotlarda qadriyatlarning mohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o’rni masalasiga katta e’tibor berishgan. Agarda qadimgi dunyo ijtimoiy-falsafiy ta’limotlarida umuminsoniy qadriyatlar inson aqliy taraqqiyotining mahsuli deb qaralgan bo’lsa, “Avesto”dagi uchinchi davr deb atalgan insoniyat kelajak istiqboli, adolatli jamiyat haqidagi fikrlar uning tarixiy ildizlarini tashkil etadi.

¹¹ Filosofskiye ensiklopediY. T 5. – Moskva: 1970. – S. 462.

¹²Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to’plami). – Toshkent: O’zbekiston, 1997, – B. 198; Komilova T., Abidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati, – Toshkent: “Fan”, 2000. – B. 20; Erasov B.S. Kulturologiya, 2-y izd., – Moskva: “Aspekt-Press”, 1997. – S. 591; Ortiqov N. Ma’naviyat: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar. – Toshkent: “O’zbekiston”, 1997. – B. 48.

¹³Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug’at. A. Jalolov va Q. Xonazarov umumiy tahririda. – Toshkent: “Sharq”, 1998. – B. 279.

Har bir millat o'z qadriyatiga ega. Binobarin, uning har bir mamlakat, har bir xalq rivoji uchun imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish – demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin egallaydi. Hozirgi davrda qadriyatlarning muhim xususiyatlaridan biri ham ana shundadir. Mustaqillikdan keyin milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishdagi o'rnini aniqlash borasida jiddiy ilmiy izlanishlar ham, amaliyot bilan bog'liq muammolar ham davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Negaki, biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbollari tasavvur eta olmaydi. Ayniqsa, bizning sharqda xalqning ming yillik milliy qadriyatlari uning uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Xalqimizning yaqin o'tmishidagi uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'alarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lganligi sababi ham ruhida, qalbida doimiy ravishda umumbashariy qadriyatlarga sodiq bo'lganligidir. «Biz, deb ta'kidlaydi Islom Karimov, - ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz»¹⁴. Demak, O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning milliy, umumbashariy tamoyillarini har bir xalqning qadriyatlarisiz, alohida ajratib bo'lmaydi. Shu o'rinda xo'sh, «qadriyat» so'zi nima ma'noni anglatadi degan tabiiy bir savol tug'iladi. «Qadriyat» atamasi bizga arabcha «qadri» so'zidan kirib kelgan bo'lib, bugungi kunda bu tushuncha «borliq va jamiyatdagi biror bir narsa va hodisaning kishilar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy munosabatlardagi tutgan muhim ahamiyatni ifoda etish uchun qo'llanilmoqda. Bu masalaning bir tomoni. Uning ikkinchi tomoni shundan iboratki, «qadriyat» so'zi qadim zamonlarda paydo bo'lgan va barcha xalqlar tillarida mavjuddir. Demak, bu tushuncha bir necha ming yillik tarixga egadir. Fikrimizning isboti sifatida qadimgi dunyoda «aksiologiya» degan atamaning mavjud bo'lishidir. Aksiologiya aslida falsafaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Faqat bu tushuncha XIX-XX asrlarga kelib, Yevropa mamlakatlari falsafasida rivojlantirildi. Uning tarixi demokratiya tarixi bilan bog'liqdir. Binobarin, Yevropa mamlakatlarida ham demokratik jamiyatni barpo etishda qadriyatlarga asoslanish ustuvor bo'lgan.

Ammo biron-bir narsa va hodisa, xoh u moddiy bo'lsin, xoh ma'naviy bo'lsin, qadriyatga aylanishi uchun ma'lum bir vaqt, davr o'tishi kerak. Demokratiyani milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida shakllanishi ham shunday bosqichlarni bosib o'tgan. Shunga o'tmishdagi barcha narsalar ham milliy qadriyat hisoblanavermaydi. Uning milliy qadriyatga aylanishi uchun o'zini ko'rsata olishi shart. Demak, biz demokratik jamiyat qurishdagi o'tmishimizdagi barcha narsalarimizni to'laligicha ololmaymiz. Negaki u hamma uchun ibratli emas.

Shu o'rinda Prezident Islom Karimovning quyidagi fikrlari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi «...o'tmish qadriyatlarga, an'analarga va turmush tarziga betartib ravishda, orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka - hozirgi

¹⁴Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B. 137.

davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin» edi. Ayni shu inkor etish onlarida ekstremistik ruhdagi muholifatning vujudga kelish xavfi tug'ildi. U aslini olganda, ma'naviyatga qarshi muholifat bo'lishi mumkin edi"¹⁵. Ba'zan shunday ham bo'ladi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlardan tashqari diniy qadriyatlarimizga ham alohida o'rin berilayotganligi tasodifiy hol emas. Chunki milliy va diniy qadriyat o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Ular doimiy ravishda o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi, bir-biri bilan muloqotda, birgalikda mavjud bo'ladi. Milliy va diniy qadriyatlar mutelikdan, fikr qaramligidan qutulish, milliy o'zlikni anglashga xizmat qilishi bilan ular jamiyatda demokratik umumbashariy tamoyillarining qaror topishiga zamin yaratadi.

Xalqlarning madaniy qadriyatlari ma'naviy merosining ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qildi. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov bu borada fikr yuritib shunday deb ta'kidlaganlar: "Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi"¹⁶. Binobarin, har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Millatning tanazzuli milliy qadriyatlar tanazzulidir, bu oqibat-natijada ushbu qadriyatlarning egasiz qolish havfini tug'diradi. Insoniyat tarixi muayyan etnoslarning vujudga kelishi, taraqqiyotiga tanazzuli, ularning o'rniga boshqalari vujudga kelishi bilan bog'liq jarayondir. Bunday fikr esa, o'z navbatida, g'oyat muhim va dolzarb masalaga, millat o'z qadriyatlarining obyeksi sifatida, o'z-o'zini saqlab turmog'i lozim, degan masalaga olib keladi.

Insoniyat tarixida Bobil, Vizantiya, Mayya imperiyalarini vujudga keltirgan buyuk etnoslar bo'lganligi ma'lum. "Antik sivilizasiyalar" nomi bilan yuritiladigan bu etnoslar keyinchalik turli xalq, millat, elatlarga aylanib ketgan, o'z umumiy tarixiy birligini yo'qotgan yoki tarixiy tanazzul jarayonlari, urush va qirg'inlar oqibatida kamayib ketgan. Amazonka bo'ylari va Meksika o'rmonlarida o'z davrining vayronalarini qoldirgan mayya xalqi to'g'risida shunday fikrni aytish mumkin. Qadimgi zamonning eng buyuk madaniyatlaridan birini yaratgan bu xalq tanazzulga uchragan, uning yozuvi unutilgan, ulardan 100 ga yaqin shaharlarning vayronalari qolgan, shu tariqa buyuk madaniyat beshiklaridan birining chirog'i so'ngan.

O'z milliy qadriyatlarini saqlash huquqi va bu bilan bog'liq tuyg'u har bir millatga xos. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi aholisi orasida "milliy qadriyatlarni kim saqlamog'i kerak, deb o'ylaysiz?", degan savolga respondentlarning 81,4 foizi "Muayyan millatga mansub hamma kishilar" degan javob berishgan. Agar respondentlarning 9,3 foizi "bu to'g'rida o'ylab ko'rganim

¹⁵ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – B.126.

¹⁶ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari taraqqiyot kafolotlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B.141.

yo‘q”, 8,2 foizi esa, “Millatning eng ilg‘or kishilari, rahbarlar, ziyolilar va davlat tashkilotlari” deb javob berganlarini hisobga olsak, masala yanada oydinlashadi.

2. Milliy qadriyatlarning millatni obyekt va subyekt sifatida tushunish, u bilan bog‘liq milliy qadriyatlar tizimini ilmiy tahlil qilish, avvalo, millatning o‘zini ijtimoiy qadriyat sifatida qarash imkonini beradi. Bu esa milliy qadriyatlarning namoyon bo‘lishi, tarixiy rivojlanish jarayonida, o‘tmishdan kelajakka tomon turishi, ya’ni ijtimoiy harakatini tahlil qilishga imkon yaratadi.

Milliy qadriyatlar:

a) millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadigan, rang-barang tarzida, turli shaklda namoyon bo‘ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o‘ziga xos reallik sifatida ta’sir qiladigan;

b) millatdoshlarning o‘zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatida ko‘zga tashlanib turadi, bu munosabat faoliyat, maqsad va intilishlar uchun ma’naviy asos bo‘ladigan;

v) millatning moddiy, ma’naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa hayotida muayyan natija sifatida yuzaga keladigan, kishilar uchun zaruriyat tarzida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadigan;

g) millatning ijtimoiy rivojlanishi jarayonida o‘zgarib, takomillashib, rang-barang jihatlar kashf etib boradigan, doimiy yangilanib turadigan, shu bilan birga, vorisiylik orqali avloddan-avlodga o‘tadigan, meros qoladigan qadriyatlarni ifodalaydigan tushuncha.

Milliy qadriyatlar va ular aloqadorligining ifodasi bo‘lgan qadriyatlar tizimi, millatni o‘zi bilan birga tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy, siyosiy jarayonlar orasidan o‘tmishdan kelajakka tomon o‘tib turadi. Bu qadriyatlar ko‘proq millatning etnik xususiyatlari va etnik makoni bilan bog‘liq. Xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularni milliy-etnik qadriyatlarining ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davm etadi. Har bir xalq yoki millat o‘ziga xos, rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning turli qirralarini rivojlantirib boradi.

Milliy qadriyatlar tabiatiga ko‘ra, faqat tor doirada saqlanib qolmaydi, balki ravnaq topib, muttasil yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlari yutuqlari bilan boyib boradi. Har bir el, elat, urug‘ yoki xalqning urf-odatlarida, ularni bajarishdagi faoliyatida o‘ziga xoslik mavjud bo‘ladi. Agar ana shu o‘ziga xoslikni o‘sha joyning aholisi qadrlasa, u hayotning bir qismiga aylangan bo‘lsa, buning yomon joyi yo‘q. Bunday o‘ziga xoslik bilan bog‘liq qadriyatlarni boshqa joyda, boshqacha tarzda yashayotgan kishilarning tarozusi bilan o‘lchash yoki bu masalada boshqalarni hakam bo‘lishi maqsadga muvofiq emas. Umuminsoniylik tuyg‘usi faqat o‘z xalqi, qadriyatini ardoqlash, ko‘z-ko‘z qilish va boshqalar orasiga yoyish uchun intilishga asoslanmaydi, balki har bir xalq, elat, urug‘ qadriyatlarini qanday holatda bo‘lsa, shundayligicha qabul qilib, ularni hurmat qilishni anglatadi.

Har bir millatning o‘z qadriyatlari, madaniyati, tili, an‘analari, urf-odatlar, marosim va o‘doba normalari bor. Dunyoda aholisi son jihatdan ko‘p yoki kamroq xalq bo‘lishi mumkin, ammo madaniy va ma’naviy sohada bir-biridan kam yoki ortiq millat yo‘q. Ayni paytda sotqin millat ham, qoralash huquqiga ega bo‘lgan

millat ham yo‘q. Ammo har bir millatning o‘ziga xos o‘tmishi, madaniy va ma’naviy qadriyatlari, milliy qahramonlari, boshqa millat tomonidan tahqirlanishi aslo mumkin bo‘lmagan urf-odatlar, turmush tarzi va qon-qarindoshlik belgilari mavjud. Hech qaysi millatning o‘ziga millat faoliyatini baholovchi hakam bo‘lishiga haqqi yo‘q. Biror bir ta’limot, davlat shakli yoki yashash usulini qabul qila olmagan uchun u yoki bu millat aybdor emas. Shu ma’noda, umuminsoniylik bir millat qadriyatlarini butun olamga yoyish yo‘li bilan emas, balki hamma millat va elatlar qadriyatlarini asrab-avaylash, muqoyasalashtirish, tarix saqlab qoladigan qadriyatlarini hurmat qilish va odamdagi milliy rang-baranglikni tabiiy rang-baranglik bilan uzviy aloqada ekanligini anglash yo‘li bilan boyib boradi.

Milliy qadriyatlar – hilma-xil shaklda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo‘ladi, ya’ni o‘ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qiladi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta’minlovchi qadriyatlar – qon-qarindoshlik, madaniy-ma’naviy yaqinlik, o‘tmish va ma’naviy meros, ona-yurt tuyg‘usi va boshqalar – nisbatan barqaror bo‘g‘inlar hisoblanadi. bunday bo‘g‘inlar milliy qadriyatlar tizimida tarixiy jarayonlar davomida tez o‘zgarib turadigan ba’zi kundalik yoki amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan qadriyatlarga nisbatan o‘z o‘rni va ahamiyatini uzoqroq saqlab qolishi bilan ajralib turadi. Millatning tarixiy-etnik xususiyat va belgilarining ijtimoiy ahamiyatini va shu millat kishisi uchun qadrini saqlab qolishi tabiiy zaruriyat hisoblanadi.

“Milliy qadriyatlar” – muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar, yashayotgan hudud, madaniy-ma’naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, yashash tarzi, milliy umrguzaronlikning tartib-qoidalar hamda ular bilan bog‘liq xususiyatlar, jihatlar ijtimoiy ahamiyatini ifodalaydigan tushuncha. U ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi xususiy bo‘g‘in, ya’ni millatga xos bo‘lgan qadriyatlarning eng umumiy jihatlarini aks ettiradi.

3. Milliy qadriyatlar ham qandaydir o‘zgarmas hodisalar emas. Millat taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotning takomillashib borish, yashash va mehnat qilish sharoitlar o‘zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi. Har bir qadriyat ma’lum konkret davr, sharoit va ehtiyojlarning mahsuligina emas, balki uning ko‘zgusi hamdir. Shu nuqtai nazardan qadriyatlarning demokratik tamoyillar bilan qaror topishidagi o‘rniga baho berishdan oldin ulardan foydalanishda ikki omilga alohida e’tibor berish kerak: birinchisi — qaysi bir qadriyatlarning yuzaga kelgan aniq tarixiy sharoitlar, ikkinchisi o‘sha davrlarga xos bo‘lgan imkoniyat va ehtiyojlarni ham bilish kerak. Shuningdek, umumbashariy demokratik qadriyatlarmi, mintaqaviy qadriyatlarmi, milliy qadriyatlarmi uning qaysi zamin ehtiyoji asosida vujudga kelganligini, ular o‘rtasida qanday uyg‘unlik mavjud bo‘lganligi, vorisiylik masalalarini ham o‘rganish zarur. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishning muhim shartidir.

Ayni paytda, fikrimizcha, muayyan milliy, sinfiy, mintaqaviy, shaxsiy va boshqa xususiy qadriyatlar tizimi ham umuminsoniy qadriyatlar tizimining o‘rnini bosa olmaydi.

Demokratik adolatli jamiyat barpo etishda umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga xos bo'lgan kundalik muloqotlardagi mazmun bilan falsafiy aksiologik ma'no o'rtasidagi farqqa e'tibor berish lozim. Shu nuqtai nazardan bizning fikrimizcha, umuminsoniy qadriyat deganda eng avvalo, jamiyat va odamzod nasli uchun eng qadrli va uning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qiluvchi umumijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi narsalar, xodisalar, faoliyat va boshqalarning nomi, ularning ijtimoiy ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy aksiologik tushunchalarni nazarda tutiladi. Demak, umuminsoniy qadriyat deganda jamiyat a'zolarining hammasi uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan va har bir shaxsning hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ijobiy ta'sir etadigan, kishilarning xatti harakati, amaliy faoliyati, yashash tarzi, boshqalarga munosabati ham umuminsoniy qadriyatlarning mezon sifatida baholanadi. Shu bilan ham umuminsoniy qadriyatlar tizimida demokratik tamoyillarning o'zi uning shakllanishi uchun keng maydon ochib beradi. Biroq bu degani milliy qadriyatlarning o'zni ana shu tizimda passiv holatda ekan-da degan xulosani chiqarmaslik kerak. Negaki, qadriyatlar tizimida millat, unga xos bo'lgan belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadigan hudud, makon va u bilan bog'liq tuyg'ular demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin egallaydi. Milliy qadriyatlar shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi zanjirning muhim va asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shunga ko'ra, millat xar qanday milliy qadriyatning obyekti, uni yaratuvchisi va milliy qadriyatlar tizimida asosiy tayanadigan ijtimoiy tayanch hamdir. Millat bir tomondan, o'zining qadriyatlarini mutassil vujudga keltirib turganligi bilan ham u yashovchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Demak, milliy qadriyatlar o'tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ularni doimiy takomillashtirib yangi-yangi qirralarini vujudga keltiradi. Aynan ana shu jarayon adolatli va demokratik jamiyatning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, birinchidan milliy qadriyatlarsiz demokratiya tamoyillarini hayotga joriy etish, uni har bir shaxsning turmush tarziga aylantirish mumkin emas. Demokratiya nafaqat shaxs faoliyati, balki u millatning ruhiyati hamdir.

Ikkinchidan, demokratik jarayonlar davomida mavjud qadriyatlar tizimining o'zi ham rivojlanib va o'zgarib boradi. Uchinchidan, millat milliy qadriyatning xaqiqiy egasi. Demak, millat uning makon va zamondagi harakati ham, o'tmishdan kelajakka tomon yashashi ham, avloddan avlodga yetkazib beruvchisi ham, uning asosiy obyekti ham aynan shu millatdir. To'rtinchidan, milliy qadriyatlarning takomillashmaganligi millatning yo'q bo'lib ketishiga va oxir oqibatda egasiz bo'lib qolishining boshlanishidir. Sobiq ittifoq davrida millatga bo'lgan hujum eng avvalo, uning qadriyatlariga bo'lgan hujumdan boshlanganligini tasodifiy hol emas edi. Buning bir qator misollarini ko'hna tarixdan ham, hozirgi davrdan ham ko'plab keltirish mumkin. Beshinchidan, milliy qadriyatlarning saqlanib qolishi bu faqat ularning o'zini o'zi asrab qolishining asosiy masalasi deb qarash kerak emas. Balki har qanday millatning saqlanib qolishi uchun har bir millatning o'zi javobgar, mas'ul bo'lishi shart. Ana shu javobgarlik, mas'ullik darajasi milliy rivojlanish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu haqda qozog'istonlik professor, faylasuf G'. Qodirjonov xalqaro konferensiyalarning birida o'zi tan olib,

shunday fikrni bildirdi: “Qozoq ziyolilarining o‘z ona tillarini o‘rganishlari, o‘zlashtirishi va o‘z tillarida ilmiy falsafiy, siyosiy kitoblarni yozishi o‘ta mushkul bo‘lib qolayotganligining sababi - ular milliy ruhining erkinligiga nisbatan uzoq yillar xukmron bo‘lgan “qizil imperiyaning” mafkuraviy tazyiqining natijasidir. Bunday holatni Qirg‘iziston va O‘zbekiston ziyolilari o‘rtasida ham kuzatish mumkin”¹.

Milliy qadriyatlarning adolatli demokratik jamiyatni barpo etishdagi o‘rnini tahlil etish jarayonida eng avvalo, millatning o‘zini ijtimoiy qadriyat sifatida qarash zarur. Negaki, millatning o‘zi milliy qadriyatlarning ham obyekti va ham subyektidir.

Demak, mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi taraqqiyotning zaruriy qonunidir. Umumbashariy tamoyillar va qadriyatlar qandaydir o‘zgarmas, aqidaviy tushunchalar emas. Davrlar o‘tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o‘zgarishi bilan ularning mazmuni, baholash mezonlari ham o‘zgarib boradi. Lekin bu o‘zgarishlardan qat’iy nazar, umuminsoniy qadriyatlar odamlarni jipslashtiruvchi, ma’lum maqsadlar, ijtimoiy, ma’naviy kamolotining muayyan yo‘llari uchun birgalashib kurashishga, harakat qilishga chorlovchi ijtimoiy hodisalardir. Umuminsoniy qadriyatlar turli davlatlar, xalqlar o‘rtasidagi ko‘prik vositasini o‘tab, odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamkorlikka chorlovchi kuch vositasini o‘taydi. Ma’naviyat borasida ham umuminsoniy qadriyatlar xalqlarning barcha madaniyatini yaqinlashtiradi va ularning tezroq kamol topishga imkon yaratib beradi.

Siyosiy hayot muqobilik asosida rivojlansa hayotbaxsh bo‘ladi. Siyosiy institutlar xilma-xilligi ham, mafkuralar xilma-xilligi ham demokratiyaning siyosiy hayotdagi amaliy ifodasidir. Bu g‘arb uchun ham Sharq uchun ham umume’tirof etilgan qadriyat. Lekin u qaysi mamlakatda xalqning turmush tarzi, mintaliteti, siyosiy xulq-atvor bilan uyg‘unlashib ketgan bo‘lsa unga ko‘proq erishgan. Qayerda aksincha bo‘lsa ayrim muammolar mavjud. O‘zbekistonda qonun ustuvorligi asosida qo‘yilgan, umum e’tirof etilgan demokratiya bilan bog‘liq ayrim qadriyatlarni hali hayot tarzimizga, tafakkurimizga, amaliy hayotimizga to‘la singib ketmaganligi, ijtimoiy hayotda ayrim muammolarning saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Bu demokratiyaning xususiyatlarini anglash, uni ijtimoiy hayotga tadbqiq etishga ham tegishlidir. Demokratiyaning milliy xususiyatlarini tan olishni, bu ayrimlar o‘ylayotganidek o‘zining ayrim qusurlarini bекitish deb bo‘lmaydi. Qolaversa, g‘arb monarxiya, Sharq ham podshohlik hokimiyatini bosib o‘tgan. Har ikkisida ham bu hokimiyatning ayrim ijobiy tomonlari bilan birga asosan inson erkinligi va huquqlariga, demokratik tamoyillarga to‘g‘ri kelmagan ayrim qusurlari mavjud bo‘lganligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Bugungi g‘arb demokratiyani hayotga tadbqiq etish sohasida nisbatan yutuqlarga erishgan bo‘lsa, unga birdaniga, osongina ega bo‘lmagan. Masalan, g‘arbda bugun e’tirof etilayotgan demokratiyaga erishishi uchun bir necha asrlarni sarflagan yoki AQShda liberal-demokratik institutlar bilan bog‘liq Respublika

¹ 2002 yil 8-may oyida JIDU da bo‘lgan Xalqaro konferensiya bayonnomasida aytilgan fikrdan ko‘chirma.

qurilishi XVIII asrning oxirlarida qaror topgan bo'lsa, Fransiyada uzil-kesil XIX asrning oxirida amalga oshganligini ko'ramiz. Italiya va Germaniyada esa demokratiya ikkinchi jahon urushidan keyin, g'arbiy Yevropaning uchta mamlakati: Gresiya, Portugaliya va Ispaniyada – 70 yillarning o'rtalarida, Sharqiy Yevropaga demokratiyalashish 80-yillarning oxiriga to'g'ri keldi.

Xullas, milliy qadriyat tushunchasi bevosita millat uchun zarur bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Millatga tegishli barcha buyum-narsalar, voqea-hodisalar va boshqa millat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi obyektlarning hammasi qadrlil hisoblanadi. Chunki ularsiz millat bo'lib shakllanmaydi. Ularning to'liq, qadrlil-qimmatini saqlab qolish orqali millat jamiyat hayotida o'z o'rnini yo'qotmaydi. Mustaqillik tufayli biz haqiqiy qadriyatlarimizni bilib olmoqdamiz. U ham bo'lsa tadrijiylik, andishalilik, qiyinchilik va bo'hron paytida sabr-toqat, maromlilik va vazminlik, mulozamatda sertakallufilik, keksalarga munosabatda hurmat-izzat, ijtimoiy-siyosiy hayotda bosiqlik, sipolik, qarindoshchilik aloqalariga alohida e'tibor va hakazolar.

Atamalar va asosiy tushunchalar:

Qadriyat – inson va insoniyat uchun o'tmishda va hozirda katta ahamiyat va qadrlil ega bo'lan barcha moddiy va ma'naviy omillarni anglatadi.

Milliy qadriyatlar – muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar, yashayotgan hudud, madaniy-ma'naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, yashash tarzi, milliy umrguzaronlikning tartib-qoidalari hamda ular bilan bog'liq xususiyatlar, jihatlar ijtimoiy ahamiyatini ifodalaydigan tushuncha.

Umuminsoniy qadriyatlar – turli davlatlar, xalqlar o'rtasidagi ko'priklil vositasini o'tab, odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamkorlikka chorlovchi kuch vositasini o'taydi.

Millatning qadrlil-qimmatil – muayyan hududda istiqomat qiladigan etnoijtimoiy birlikning tarixi, qadriyatlari, an'analari, madaniyati, yashash tarzi, rasm-rusumlari, urf-odatlari, diniy e'tiqodlarini o'z ichiga oluvchi tushuncha.

Ma'naviy qadriyatlar – inson ma'naviyati va axloqiy qiyofasiga dahldor bo'lib, jamiyat a'zolarini tarbiyalashga, ularning ma'naviy barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladigan qadriyatlar tizimini ifodalovchi tushuncha.

Aksiologiya – qadriyatlar va uning asosiy xususiyatlar haqidagi fan

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadriyat tushunchasi nima?
2. Milliy qadriyatlar va ularning asosiy xarakteri nima bilan belgilanadi?
3. Milliy qadriyatlar va ular haqida nima bilasiz?
4. Milliy qadriyatlarning millatning obyektiv va subyektiv omillari nimada?
5. O'zbekistonda milliy qadriyatlarni qayta tiklanishi jarayoni haqida gapiring?

2-MAVZU: MILLIY MADANIYATNING NAZARIY ASOSLARI

Ma'ruza rejasi:

1. *Milliy madaniyat – milliy qadriyat sifatida*
2. *O'zbek milliy madaniyatining nazariy asoslari*

Mavzuning maqsadi: *Talabalarga milliy madaniyatning milliy qadriyat sifatidagi tutgan o'rni va o'zbek milliy madaniyatining ilmiy-nazariy masalalarini yetkazish.*

Milliy qadriyatlar rang-barang bo'lib, ularning ichida markaziy o'rinni milliy madaniyat egallaydi.

1. Ma'lum bir millat yoki xalq tomonidan uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida yaratilgan, ularning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini ifoda etgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmui hisoblanadi. Milliy madaniyatga til, turmush tarzi, mentalitet, urf-odatlar, din, xalq ijodi, me'morchilik, adabiyot, musiqa, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar va hakazolar kiradi.

Madaniyat ichki (o'zak) va ustki qatlamdan iborat ijtimoiy-tarixiy hodisadir. Milliylik madaniyatning, eng avvalo, o'zak qatlamida aks etadi. Bu qatlamga xalqning uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan va shu xalqqagina mansub bo'lgan tili, turmush tarzi, dini, urf-odatlari, mentalitet kiradi¹⁷. Madaniyatning o'zak qatlamiga qarab biz har bir xalqning o'ziga xos xususiyatlarini, tarixiy-madaniy rivojlanish yo'llarini, jahon madaniyati va sivilizasiyasiga qo'shgan ulushini aniqlaymiz.

Madaniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi kishilik jamiyatining eng qadimiy, ilk bosqichlariga borib taqaladi. Boshqacha aytganda, madaniyat insonning kelib chiqishi bilan uzviy aloqadordir. Madaniyat tarixi – jamiyat tarixining ajralmas bir qismidir. Shuning uchun ham uning vujudga kelishi va rivojlanishini jamiyat tarixidan, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan, moddiy boyliklar ishlab chiqarish usulidan ajratib olish mumkin emas. Jamiyat bor ekan, madaniyat ham mavjud bo'ladi. Insonning insonga xos xislat va fazilatlarga ega bo'lishi, tabiatga ta'sir etishi, ijtimoiy faoliyatga kirishuvi, madaniy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqishi va iste'mol qilishi madaniyatga, uning yutuqlaridan bog'liqdir. Madaniyatning rivojlanishi insonga o'zi qanchalik o'sganligini, uning bilimlari nechog'liq kengayganligini, qobiliyati naqadar takomillashganini ko'rsatadi.

Ayrim olimlarning fikrlariga ko'ra, madaniyatni vujudga keltiruvchi, saqlovchi va nasldan-naslga qoldiruvchi asos faqat moddiy boyliklarnigina emas, shu bilan birga, madaniyatni ham yaratadi. Xalq ommasi bitmas-tuganmas qobiliyat egasi hisoblanadi. Fan va texnika sohasidagi eng muhim ixtiro va yangiliklar, ishlab chiqaruvchi kuchlar va madaniyatni rivojlantirish yakka-yakka kishilarning ishi emas, balki tarixning haqiqiy ijokori bo'lgan xalq ommasining ishlab chiqarish faoliyatidan kelib chiqadigan zaruriy natijalardan iborat.

¹⁷ Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati. Ma'sul muharrir B. Sayfullayev. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2015. – B. 106.

Xalq ommasi ham moddiy, ham ma'naviy madaniyatni asoschisidir. Eng muhim aloqa vositasi bo'lgan tilning ham yaratuvchisi xalq ommasidirki, tilsiz na jamiyat, na ilm-fan, na madaniyat bo'lishi mumkin emas.

Ma'naviy madaniyatning barcha turlari, jumladan, qo'shiq va musiqa ham keng xalq ommasi amaliy faoliyatining mahsulidir. Bunday deyiilishining asosiy boisi shundan iboratki, kun bo'yi qilingan mehnatdan hosil bo'lgan charchash toliqish, horg'inlikni yengishda, kayfiyatda yaxshilashda, ruhni tetik va bardam qilishda qo'shiq va musiqa kishilarga yordam bergan. Qo'shiq va musiqa mehnatning yo'ldoshidir, u xalq hayotidan, tarixdan ajralmasdir.

Xalq nima uchun musiqani sevadi? Chunki musiqa mehnat unumini oshirishda qudratli omillardan biridir. Qo'shiqlar ham, o'yinlar ham xalq tomonidan o'nlab yillar davomida yaratilgan, qiyomiga yetkazilgan, xalq ularda qimmatli narsalargina qoldirgan. Bironta ham odam o'zining qisqa hayoti davomida bunday ishni qila olmaydi – bu ish faqat xalqning qo'lidan keladi. Xalq barcha ma'naviy boyliklarnin ham ijodkori, asrovchisidir.

Dunyoda qo'shiq aytmagan, dilrabo qo'shiq, musiqa va baytlardan zavqlanmaydigan xalq, millat va elat bo'lmasa kerak.

O'tmish ajdodlardan qolgan qo'shiqlar, ertaklar, termalar, dostonlar, bayt va laparlar, barcha folklor asarlar – insoniyat ko'nglidagi g'am-anduhning badiiy ifodasi, inson aql-idroki va tafakkurining bitmas-tuganmas hazinasidir. Qo'shiq va musiqa, badiiy asarlar, umuman, ma'naviy madaniyat boyliklarining mazmuni va mohiyatiga qarab, ularni yaratgan, avaylab-asrab kelgan xalq ommasining orzu-istaklarini, o'tmish zamonlarda boshdan kechirgan azob-uqubatlarini, tarixiy taraqqiyot yo'lini bilish mumkin.

Barcha moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalari – inson aql-idroki, iste'dodi va mehnati mahsulidir. Xalq ommasi madaniyat ijodkorigina emas, balki uni to'xtovsiz ravishda boyituvchi, rivojlantiruvchi, avloddan-avlodga yetkazib turuvchi hamdir.

Madaniy taraqqiyotning umumiy qonunlaridan biri – uning to'xtovsiz ravishda boyib borishi va rivojlanishidan iboratdir. Madaniyatning rivoji zaminida moddiy ishlab chiqarishning rivoji asos bo'lib yotadi. Ijtimoiy-iqtisodiy formasiyalarning, ishlab chiqarish usullarining almashinuviga qarab madaniyat sifat jihatdan o'zgaradi. Jamiyatning taraqqiy etishi madaniyatning o'zgarishini talab qiladi, madaniyatning yangilanishi esa o'z navbatida jamiyatning taraqqiy qilishiga sabab bo'ladi. Bu hol, ayniqsa, inqilob davrlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Sosial inqiloblar natijasida siyosiy hokimiyat bir sinf qo'lidan ikkinchisiga o'tadi, ishlab chiqarish vositalariga hukmronlik shakllari ham o'zgaradi. Shu bilan birga, ijtimoiy hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi ma'naviy hayotda ham tub o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Insoniyatning madaniy-ma'naviy hayotida ro'y beradigan tub burilishlarini belgilab bera oladigan asosiy kuch mavjud. Bu asosiy kuch – xalq ommasidir. Madaniyat xalq ommasining amaliy faoliyatidan tashqari o'zgarmaydi. Bir ijtimoiy-iqtisodiy formasiyaning ikkinchisi bilan qonuniy almashinuvida tarixiy taraqqiyotning asosiy harakatga keltiruvchi kuchi xalq ommasining inqilobiy

faoliyati hisoblanadi. Xalq ommasining amaliy faoliyati jarayonida ma'naviy madaniyatning mazmunida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Madaniyat juda murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, ijtimoiy hayotning moddiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarini, inson mehnat faoliyatining barcha samaralarini o'zida qamrab oladi. Xalq ommasi tomonidan yaratilgan hamma moddiy va ma'naviy boyliklar madaniyatga kiradi. Madaniyat deyilganda, mehnat qurollarini yaratish va ulardan foydalanish, fan-texnika yutuqlari va ularni ishlab chiqarishga joriy etish, kishilarning ishlab chiqarish va ijtimoiy ko'nikmalari, mehnatni ijtimoiy tashkil etish, salomatlikni saqlash ishini yo'lga qo'yish, aholi o'rtasida bilimlarning yoyilishi darajasi va ma'lumot, umumiy, o'rta maxsus va oliy ta'limni amalga oshirish, adabiyot va san'at asarlari, ijtimoiy-falsafiy g'oyalar va boshqa shu kabilar nazarda tutiladi. Madaniyat, avvalo, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot yo'lida erishgan bosqichini: kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarini, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalaydi. Madaniyat tushunchasi muayyan tarixiy davrlar, ijtimoiy-iqtisodiy formasiyalar, millatlar taraqqiyoti, moddiy va ma'naviy darajasi, inson faoliyati va turmushining o'ziga xos sohalarini izohlash uchun qo'llaniladi. Madaniyat tushunchasi nihoyatda keng va ko'p qirralidir. U odamzod aql-idrokning eng yuksak cho'qqilarigacha bo'lgan narsalarning hammasini qamrab oladi.

Madaniyat muayyan tarixiy davrda jamiyat taraqqiyotining ma'naviy saviyasini ifoda etuvchi, kishilarning moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarishdagi butun ijodiy faoliyatining ko'p qirrali ijtimoiy hodisadir.

Qayd qilib o'tilganidek, madaniyat xalq ommasi tomonidan asrlar mobaynida yaratilgan va yaratilayotgan tarixan tarkib topgan moddiy va ma'naviy boyliklari yig'indisini ifoda qiladi. Madaniyat jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Madaniyat tushunchasi bilan ijtimoiy hayot tushunchasi aynan bir xil emas. Ijtimoiy hayot madaniyat tushunchasidan ancha keng. Ijtimoiy hayot tushunchasiga madaniyatdan tashqari ishlab chiqaruvchi kuchlar, ishlab chiqarish munosabatlari, sinfiy va milliy munosabatlar, jamiyatning siyosiy tashkilotlari, til va tafakkur singarilar ham kiradi. Madaniyat inson faoliyatining faqat moddiy natijalarigina emas, shu bilan birga, kishilarning mehnat jarayonida voqe bo'ladigan bilim boyliklari, tajribalari, qobiliyatlari, ishlab chiqarish va kasb malakalari o'zaro munosabatlarini ham o'z ichiga oladi.

Moddiy ishlab chiqarishning ikki asosiy turi – moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishga qarab madaniyat ikki turga – moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi. Madaniyatning bu turlari o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra birbiridan o'zaro farq qiladi. Moddiy madaniyat deganda mehnat qurollarini, mehnat ko'nikmalarini, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va moddiy hayot uchun xizmat qiladigan barcha boyliklarni anglaymiz. Moddiy madaniyatga moddiy boyliklarning butun majmui, ularni ishlab chiqarish vositalari kiradi. Moddiy madaniyatga kishilarning ishlab chiqarish tajribasi, qobiliyati, malakasi ham kiradiki, bularsiz ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish mumkin emas.

Moddiy madaniyatning asosiy qismini kishilarning mehnat faoliyati jarayonida foydalanadigan mehnat predmetlari va ishlab chiqarish vositalari tashkil etadi.

Moddiy madaniyatdan tashqari ma'naviy madaniyat ham mavjudki, u insonlar tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarni, ijtimoiy ongning ilmiy, badiiy, huquqiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa shakllarini, tafakkurning barcha shakllari va dunyoqarashining butun sohasini, jamiyatdagi g'oyalar va ta'limotlarni, badiiy asarlar, estetik qarashlarni, iborali qilib aytganda, "ma'naviy ishlab chiqarishni" o'z ichiga oladi. Ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida siyosiy va huquqiy mafkura, falsafa, axloq, san'at sohasidagi boyliklar, ya'ni ma'naviy boyliklari yaratiladi. Ma'naviy boyliklar olimlar, musavvirlar, bastakorlar, shoir va yozuvchilar, nazariyotchilar, xullas, xalq ommasi tomonidan yaratiladi va ulardan hamma bahramand bo'ladi. Ma'naviy boyliklar avloddan avlodga, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga meros sifatida o'tadi va jamiya taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Maorif, fan, axloq, teatr va kino tomoshalar, tasviriy san'at asarlari, maqollar, matallar, rivoyatlar, qo'shiq, musiqa she'riy va nasriy asarlar, lapar va raqslar, umuman xalq ijodiyoti ma'naviy faoliyatning muhim elementlaridir. Maktab va oliy o'quv yurtlari, kutubxona va muzeylar, matbuot, radio va televideniye va boshqalar haqida ham shu fikrni aytish mumkin.

Madaniyatning barcha turlari dialektik birlikda, o'zaro aloqadorlikdadir. Moddiy madaniyatni ma'naviy madaniyatdan batamom ajratib qarash tamomila noto'g'ri. Insonning amaliy faoliyatida, moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida moddiy va ma'naviy madaniyat uyg'un ravishda birlashadi. Bironta ham turini inson aql-idroki va tafakkurisiz bo'lmaydi. Inson amaliy faoliyatining har qanday turida ayni bir vaqtning o'zida uning ham aqliy, ham jismoniy mehnati obyektiv ravishda ishtirok etadi.

Amaliy faoliyatda insonning tafakkur natijalari moddiylashadi; narsalarga, buyumlarga, texnika vositalariga, san'at asarlariga aylanadi. Boshqacha aytganda, har qanday moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalari inson aqliy va jismoniy mehnatining o'zaro sintezidan boshqa narsa emas.

Jamiyatning moddiy hayoti belgilovchi asosdir. Ma'naviy hayot esa moddiy hayotning in'ikosidir. Jamiyatning moddiy hayoti kishilarining irodasiga bog'liq bo'lmagan obyektiv reallikdir, binobarin, u ma'naviy hayotga nisbatan belgilovchidir. Demak, ijtimoiy g'oyalar, ijtimoiy nazariyalar, siyosiy qarashlar, siyosiy muassasalarning kelib chiqish sababini ularning o'zidan emas, balki jamiyatning moddiy hayot sharoitlaridan, ijtimoiy turmushdan qidirmoq kerak.

Ma'naviy va moddiy madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir-biriga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ma'naviy madaniyat moddiy madaniyatni boyitadi. Ma'naviy madaniyat voqelikni badiiy aks ettirish va o'zlashtirishning faol vositasidir. Ma'naviy madaniyat moddiy ishlab chiqarish taraqqiyotiga, kishilar ijtimoiy hayotining boshqa sohalariga xizmat qiluvchi real kuch sifatida maydonga chiqadi.

Milliylik o'zbek xalq madaniyatining negizini tashkil etadi. Milliylikni o'ziga jo etmagan xalq madaniyati yo'q. Shu o'rinda Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Birinchil navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy

boyiligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqolab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko'z qorachig'idek asrash va yanada boyitishdir”¹⁸ deb bejiz aytmaganlar. Darhaqiqat mamlakatimizning kelgusi taraqqiyoti ushbu o'zgarishlarni yanada kengaytirish, chuqurlashtirish, milliy madaniyatni o'rganish, asrab-avaylash, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bilan bog'liqdir. Chunki:

Birinchidan, mustaqillik - milliy taraqqiyot - milliy madaniyat substansional voqeliklardir. Ular o'rtasidagi dialektik bog'liqliklarni tadqiq etish nafaqat xalq madaniyatining genezisi va funksional xususiyatlari, tizimlarini bilishga, balki, xalq madaniyatini mustaqillikni mustahkamlash, milliy taraqqiyotni barqaror ijtimoiy-madaniy voqelikka aylantirish va jamiyatni modernizasiyalashning sharti ekanini anglashga ham yordam beradi.

Ikkinchidan, mustaqillik xalq madaniyatini tarixiylik, vorisiylik va zamonaviylik - sosiodynamik, umuminsoniylik, milliylik etnososioantropologik tamoyillar nuqtai-nazaridan tadqiq etish imkonini berdi. Bu ilgari amalga oshirilgan tor, sinfiy yondashuvdan voz kechishga, milliy madaniyatiga millat, etnos borlig'ining substansional negizi, milliy taraqqiyotning sharti sifatida qarashga undaydi. Shuning uchun milliy madaniyati sosiodynamik va etnososioantropologik yondashuvni takozo etadi.

Uchinchidan, milliy madaniyatni o'rganish undan samarali foydalanishga va yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishga xizmat kiladi. Prezident Islom Karimov yozganidek, “...ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”¹⁹.

To'rtinchidan, milliy madaniyat turli millat, etnoslarni yaqinlashtiradi. “Bugungi kunda, - deydi Islom Karimov Navro'z xalq bayrami xaqida to'xtalib, - mamlakatimizning uzoq-yaqin hududlarida bo'lib o'tayotgan shodiyona sayillarda millati, tili va dinidan qat'iy nazar, O'zbekistonni o'z vatanim deb biladigan barcha millat va elat vakillarining ishtirok etayotgani, ko'plab xorijiy mehmonlarning bizning kuvonchimizga sherik bo'layotgani Navro'zning odamlarni birlashtiruvchi hayotbaxsh kuchidan dalolat beradi”. Demak, milliy madaniyatni o'rganish O'zbekistonda yashayotgan 136 millat va elatlarni birlashtirish, ularni ahil, ittifoq bo'lib yashashini ta'minlash, jamiyatda bag'rikenglik tuyg'ularini shakllantirish uchun zarur. Zero, mustaqillik tufayli sodir bo'layotgan o'zgarishlarning mazmun - mohiyati va pirovard natijasi milliy madaniyatning yuksalishida namoyon bo'lishini chuqur o'rganish davr talabidir.

Beshinchidan, o'zbek milliy madaniyatini yuksaltirish uning tarixiy-madaniy paradigmatlariga, ma'naviy merosiga alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Zero, Prezident Islom Karimov yozganidek, “hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq

¹⁸ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.78.

¹⁹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 19.

ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir"²⁰. Demak, milliy madaniyatni o'rganish mustaqillik yillaridagi milliy taraqqiyotning ko'lami va milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyatini, respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning o'zbek xalqi ma'naviyatidagi, turmush tarzi va tafakkuridagi o'rnini anglashga yordam beradi.

2. Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini yaratmoqda. Bu jarayonda jamiyat taraqqiyoti, shaxs kamolotining bosh omillaridan biri bo'lgan madaniyat, ma'naviyatning o'рни va roli beqiyosdir.

Respublikamizda madaniy hayotni boshqarishning o'рни va ahamiyati oshib borayotgani oldimizda turgan bir qator vazifalarni hal etish bilan bog'liq. Madaniy merosimizni eski andozalaru yondashuvlardan holi holda chuqur va har tomonlama tadqiq etish, noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, xalqimiz yaratgan, ammo turli sabablarga ko'ra chet ellarga chiqib ketgan madaniyat boyliklarini izlab topish va o'rganish bo'yicha ishlarni tizimli va tadrijiy davom ettirish bilan bog'liq vazifalar shular jumlasidandir.

Ayni paytda, fan, adabiyot, san'at, umuman milliy madaniyatimizning barcha sohalarini jahon madaniyati yutuqlari asosida boyitish va rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarishning o'рни va ahamiyati beqiyosdir.

Bularning barchasi o'z navbatida mustaqillik ruhiyatiga singgan, yurt manfaati va millat istiqboli yo'lida qayg'uradigan yangi insonni tarbiyalashdek bosh vazifani hal etishga xizmat qilishini ham alohida ta'kidlash zarur.

Qayd etilgan vazifalarni madaniyatimiz, ma'naviyatimiz, ma'rifatimiz taraqqiyotiga dahldor bo'lgan davlat va jamoat tashkilotlari ishini, ijodkor ziyolilarimiz va xalqimizning yaratuvchanlik faoliyatini muayyan yo'nalishda muvofiqlashtirmay, tashkil etmay, bir so'z bilan aytganda, boshqarmay turib muvaffaqiyatli hal qilish mumkin emas.

Ma'lumki, yaqin-yaqingacha necha o'n yillar davomida miqdoriy yondashuv ustuvor bo'lib keldi va asosiy diqqat madaniyat muassasalari soniga, kitoblar fondi, teatrlarning tomoshabinlarni qabul qila olishining miqdoriy xarakteristikalariga alohida e'tibor berildi. Vaholanki, miqdoriy ko'rsatkichlar qanchalik muhim bo'lmasin madaniyat muassasalari faoliyatining samaradorligi va sifati asosiy va muhim omil hisoblanadi. Bugun mamlakatimizda masalaning ana shu jihatiga alohida e'tibor berilayotganini mamlakatimiz madaniy hayoti, uni boshqarish bilan bog'liq xususiyatlarning o'zagini, tashkil etayotganini e'tirof etish joiz.

Shunday bo'lsa-da, bir holatni alohida qayd etish lozim. Gap shundaki, bugungi kunda ham madaniyatni boshqarish sohasida iqtisodiy metodlarning to'la ustuvorligini ta'minlash zarurligini ilgari suruvchi qarashlarni uchratish mumkin. Aslida, bozor iqtisodiyoti metodlarini madaniyatning barcha sohalariga ko'r-ko'rona ko'chirish amaliy jihatdan zararli, metodologik jihatdan esa noto'g'ridir.

²⁰Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat. 2008. – B. 76-77.

Chunki madaniyatning barcha tarmoqlarini ham bozor iqtisodiyoti relslariga o'tkazish mumkin emas. Aytaylik, xalq amaliy san'atining yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik yoki kino, estrada kabi san'at sohalarida bunday yondashuv to'g'ri va o'rinli. Ammo, muzeylar, kutubxonalar, arxivlar kabi madaniyat muassasalari davlat va jamiyatning doimiy yordamini talab etadi.

Madaniyat rivojlanishini takomillashtirish ma'muriy va o'z-o'zini boshqarish usullarini qo'shib olib borish hamda madaniy faoliyatning mazmuni, shakli va metodlarini boyitishdek maqsadlarni o'z ichiga oladi. Madaniyat muassasalarining moddiy bazasini mustahkamlash esa, o'sib borayotgan madaniy ehtiyojlarni qondirishning hajmi va sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur jarayon madaniyat xodimlari malakasini muntazam oshirib borish hamda boshqarishning samaradorligi va sifatini yuqori ko'tarishdek maqsadlar kompleksini ham qamrab oladi.

Madaniyatning boshqaruv tizimi madaniy siyosatni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish bilan shug'ullanadigan muassasalar demakdir. U yoki bu organ, tashkilot, muassasaning ushbu jarayondagi ishtiroki esa uning darajasi (markaziy, mintaqaviy, mahalliy), xarakteri (davlat, jamoatchilik, aralash, xalqaro) hamda faoliyat sohasi (masalan, ta'lim, fan, san'at) bilan belgilanadi.

Shu nuqtai-nazardan qaraganda, mustaqillik sharoitida Respublikada madaniy taraqqiyotni boshqarishning o'ziga xos tizimi yaratilganini ta'kidlash zarur. Buni ayrim tashkilotlar faoliyati misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, "O'zbekkino" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining tashkil etilgani kino sohasida umummilliy siyosat yuritish uchun zamin yaratdi.

Bugungi kunda ushbu kompaniya birinchidan, milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan, badiiy jihatdan yuksak, milliy-madaniy merosga hurmat-ehtirom va kelajakka ishonch tuyg'usini tarbiyalashga xizmat qiladigan kinovideomahsulot ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazish;

Ikkinchidan, o'zbek milliy kino san'atining eng yaxshi yutuqlarini saqlab qolish va ko'paytirish, xalqning ma'naviy-axloqiy va madaniy mulkning bir qismi sifatida milliy kino va videofond barpo etish, saqlash, bu boradagi faoliyatni muvofiqlashtirish;

Uchinchidan, jahon kino san'atining eng yaxshi yutuqlarini targ'ib etish, chetdan xarid qilinadigan kino va video mahsulotlarga ekspert bahosi berilishini amalga oshirish, kino san'ati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

To'rtinchidan, kino tarmog'ini shakllantirish, boshqarish, kinematografiya sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish²¹ bilan bog'liq vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilib kelmoqda.

O'zbek xalqi boy badiiy meros, jahon san'ati rivoji tarixida o'ziga xos o'ringa, tasviriy va amaliy san'atning zamonaviy yo'nalishlari, xalq hunarmandchiligi bo'yicha shakllangan an'analar va maktablarga ega. Ushbu meros va tajribani chuqur va ilmiy asosda o'rganish, rivojlanish istiqbollarini

²¹Qarang: "O'zbekkino" davlat-aksiyadorlik kompaniyasini tuzish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari. 4. – Toshkent, "Adolat", 2000. – B.72-74.

belgilash, mazkur yoʻnalishlardagi faoliyatni tizimli tashkil etish hayotiy-amaliy ahamiyatga egaligi shubhasiz.

Badiiy barkamol sanʼat asarlari yaratish, bu yoʻldagi harakatlarni ragʻbatlantirish, zarur moddiy-texnik bazani shakllantirish hamda tasviriy va amaliy sanʼat, dizayn, xalq hunarmandchiligi sohalari boʻyicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ushbu maqsadga erishishning muhim yoʻnalishlari hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur jarayonda soha boʻyicha xalqaro ijodiy, ilmiy aloqalarni mustahkamlash, oʻzbek milliy sanʼati yutuqlarini dunyo jamoatchiligiga tanitishning ham oʻrni beqiyosdir²². Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tashkil etilgan Oʻzbekiston Badiiy akademiyasi ana shu vazifalarni hal etish borasidagi ishlarni samarali tashkil etib, muvofiqlashtirib, boshqarib kelayotganini alohida qayd etish lozim.

Umuman olganda, oʻz ichiga markaziy, mintaqaviy, mahalliy davlat organlarini hamda jamoatchilik tashkilotlari va muassasalarini qamrab olgan mazkur tizim doimiy takomillashib, boyib borayotganini va samarali ishlayotganini eʼtirof etish lozim. Xususan, bu tizimda markaziy davlat tashkilotlari va muassasalari ichida umuman madaniyat va uning ayrim (taʼlim, fan, badiiy madaniyat) sohalari rivojlanishining muhim, fundamental yoʻnalishlarini belgilab beradigan, boshqaruv jarayonlarini olib boradigan tashkilotlar, ularning joylardagi boʻlimlarining oʻziga xos oʻrni borligini qayd etish lozim.

Ayni paytda, turli yoʻnalishlarda faoliyat olib borayotgan jamoat tashkilotlari, markazlar, uyushmalar, jamgʻarmalar ham mazkur tizimning zaruriy va eng muhim elementi hisoblanadi. Ular bugungi kunda madaniy merosimizni oʻrganish, milliy qadriyatlar, anʼana va urf-odatlarini tiklash, saqlash va rivojlantirish boʻyicha faoliyat olib borish, folklor ekspedisiyalari tashkil etish, doimiy ravishda turli festival, koʻrik, tanlov, ijodiy kechalar oʻtkazish, iqtidorli yoshlar ijodini ragʻbatlantirish borasida samarali faoliyat koʻrsatib kelmoqda.

Madaniyat jabhasida faoliyat koʻrsatayotgan turli ijodiy tashkilotlar va birlashmalar esa aholining madaniy ehtiyojlarini toʻlaonli qondirish, milliy madaniyat, adabiyot, sanʼat, musiqa, teatr, kino yutuqlarini, maʼnaviy va axloqiy qadriyatlarni keng targʻib etish borasida sarmahsul natijalarga erishayotganlarini alohida qayd etish lozim.

Atamalar va asosiy tushunchalar:

Madaniyat – muayyan tarixiy davrda jamiyat taraqqiyotining maʼnaviy saviyasini ifoda etuvchi, kishilarning moddiy va maʼnaviy boyliklar ishlab chiqarishdagi butun ijodiy faoliyatining koʻp qirrali ijtimoiy hodisadir.

Milliy madaniyat – millatga tegishli boʻlgan moddiy va maʼnaviy boyliklar, millatning rivojiga hissa qoʻshadigan ijtimoiy hodisadir.

Moddiy madaniyat – millatga tegishli moddiy boyliklar, yaʼni oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va mehnat qurollari hisoblanadi.

Maʼnaviy madaniyat – insonning maʼnaviy xususiyat va xislatlari, jamiyatning madaniy darajasini aks ettiruvchi tushuncha.

²²Qarang: Oʻzbekiston Badiiy akademiyasini tashkil etish haqida. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. // Xalq soʻzi. 1997, 24 yanvar.

Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Milliy madaniyat tushunchasi nima?
2. Moddiy madaniyatning milliyligi nimada bilasiz?
3. O'zbek xalqining o'ziga xos madaniyati va unig asosiy xususiyatlari haqida nimalar bilasiz?
4. Milliy madaniyatning nazariy asoslari haqida so'zlab bering?
5. Umuminsoniy va milliy madaniyat uyg'unligi nimalarda ko'rinadi?

3-MAVZU: MILLIY TIL – MILLIY QADRIYAT SIFATIDA

Ma'ruza rejasi:

1. *Sobiq ittifoq davrida Milliy tilga nisbatan salbiy munosabat va uning oqibatlar*
2. *O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi*
3. *Hozirgi o'zbek tilidagi ayrim kamchiliklar va ularni bartaraf etish masalalari*

Mavzuning maqsadi: *Talabalarga milliy til, ayniqsa o'zbek tilining ijtimoiy hayotda tutgan o'рни va uning qadriyat sifatida tadqiq qilinishi haqida ma'lumotlar berish.*

Eng asosiy milliy qadriyatlaridan biri – millat uchun umumiy muomala vositasi bo'lgan milliy til hisoblanadi. Mutaxassislar fikricha, dunyoda 5000 ga yaqin til bor, ular 15 ta katta til oilalariga bo'lib o'rganiladi.

1. Sobiq Ittifoq davrida milliy qadriyatlarimizning ko'zgusi bo'lgan o'zbek tili ham boshqa milliy qadriyatlarimiz kabi ahvoli yaxshi emas edi. Tillarning o'zaro yaqinlashtirish va umumiy socialistik tilni yaratishga urinishlar milliy tillarning imtiyozini cheklab, imkoniyatini susaytirib, mavqeini pastga tushirib yubordi. Ularning tabiiy taraqqiyotiga halal berdi.

Milliy tillar bilan bog'liq muammoga sobiq Ittifoqda “millatlarning bir-biri bilan yaqinlashuvi prinsipi” asosida qarab kelindi. Respublikalarda milliy tillarni ishlatish doirasi qisqarib bordi.

1922 yildayoq o'zbek tili va grammatikasi bo'yicha birinchi o'lka syezdi bo'lib, syezdda o'zbek tilining “klassik ovro'pacha grammatika tizimi”ni ishlab chiqish masalasi qo'tarildi. O'zbeklarning millat bo'lib uyushish jarayoni o'zbek tilining taraqqiyoti va uning adabiyotda to'la hajmda aks etilishiga to'siq bo'lib turgan shevachilikni bartaraf qilish ham katta ahamiyatga ega edi. Ma'lumki, milliy til butun millat miqyosida kishilarni bir-birlariga yaqinlashtirish, bog'lash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bunday vazifani bajarishda yozma til asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun milliy til, hamma uchun tushunarli til adabiyotda, matbuotda, radio kanallarida bir xillik bo'lishlikni talab qiladi. O'sha kezlarda Andijon, Qo'qon, Toshkent, Farg'ona shaharlari dialektlari madaniy markaz

dialektlari sifatida o'zbeklar orasida keng yoyildi. Bu shahar aholisining tili butun o'zbeklarning gazeta va jurnal, kitob va radio kanallari, maktab va oliy o'quv yurtlari darslik va qo'llanmalarining tiliga, o'zbeklarning kundalik munosabat vositasi bo'lib qoldi. Biroq, 1926 yilda qabul qilingan yangi o'zbek orfografiyasi jonli o'zbek tilining umumiy xususiyatlarini aks ettira olmay qoldi. Shundan so'ng, amaldagi o'zbek yozma tili rivojlanayotgan jonli umumo'zbek tilidan ajralib qoldi. Bu muammoni ilmiy yechimi yo'lida tegishli amaliy ishlar qilindi.

Tilshunoslarning ta'lim berishicha, tilning adabiyotda mustahkamlanishi yozma adabiyotning paydo bo'lishidan iborat bo'lmay, balki jonli umumxalq tilining adabiyotda to'la aks ettirilishidan iborat bo'ladi. Milliy tilning qabila tilidan farqi ham shundaki, uning umummillat elementlari ustunlik qilib, ayrim lahja va dialektlar ustidan hukmronlik qiladi. Sheva va dialektlarning xizmati kundan-kunga qisqarib, umumxalq tili ularni siqib chiqara boshlaydi. Kundalik iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarning kuchayishi mazkur jamoa yashayotgan barcha tumanlarda bir xil standartlar va normalarni qo'llashni talab qiladi. Ana shu umumtil standarti va normalarining yozuvda aks ettirilishi tilning adabiyotda mustahkamlanishining garovidir. Bu ishlar nazariyotchi va amaliyotchi tilshunos va badiiy adabiyot ijod ahli tomonidan o'z vaqtida bajarilib bordi.

Mustaqillikka erishganimizga qadar o'zbek tili eski kommunistik mafkura yurgizgan siyosatning biryoqlamaligi sababli keyingi o'rinlarga surib tashlandi, uning amal qilish doirasi yildan-yil qisqarib bordi. O'zbek tili Respublika aholisining 70 foizidan ortig'ini tashkil qiladigan millatning tili bo'lishiga qaramay, unga bo'lgan e'tibor va qiziqish o'z-o'zidan kamayib ketdi. O'zbek tilining hayotda qo'llanilishi va istiqbolining xavf ostida qolishi xalqimizni qattiq tashvishga soldi. Bu narsa xalqning kuchli noroziligiga va haqqoniy e'tiroziga sabab bo'ldi.

2. O'zbek tilini astoydil muhofaza qilish, unga davlat tili maqomini berish, bu tilni aslidagiday qilib tiklash va tobora rivojlantirish, uni jahondagi yetuk millatlar tillari darajasiga ko'tarish zaruriyati tug'ilib, yetilib qolgan edi. Til davlat himoyasiga olinmasa rivojlana olmaydi. Til hokimiyat bilan tirik. Agar til davlat himoyasida bo'lsa, u chinakamiga ravnaq topadi, shu tilda gaplashuvchi xalqning madaniyati va adabiyoti ham tez rivojlanadi. Aslida-ku o'zbek tiliga davlat maqomi berilishi kerakmi-yo'qmi, deb tortishib, munozara qilib o'tirishning hojati yo'q edi. O'zbekistonda o'zbek tiliga davlat maqomi berilishi, bu, nihoyatda, tabiiy, qonuniy bir jarayondir. Tabiiyligi shundaki, har bir respublikada ish yuritilishi uning hududida yashovchi, shu respublikaga o'z nomini bergan asosiy xalq tili bilan yuritilishi lozim. Modomiki, O'zbekistonning o'z bayrog'i, madhiyasi, gerbi, muhri bor ekan, xo'sh, nima uchun uning o'z davlat tili bo'lmasligi kerak, Modomiki, til millatni millat qiluvchi asosiy belgilardan biri, millatni birlashtiruvchi kuch, milliy taraqqiyotning ko'zgusi, avlodlarning avlodlarga qoldirgan oltin kaliti ekan, demak, o'zbek tiliga davlat maqomi berilishiga qandaydir favqulodda hodisa deb qaramaslik kerak edi. Shu narsani ochiq-oydin aytishimiz kerakki, o'zbek tiliga davlat maqomi berilishi oppa-oston, sip-silliq bo'lmadi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilish arafasida ayrim siyosiy guruhlar O'zbekiston sharoitiga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan bir-biriga zid

keladigan, qarama-qarshiliklardan iborat fikrlarni ilgari surdilar, ular xalq o'rtasida soxta obro' topishga odamlarni o'z orqalaridan ergashtirishga harakat qildilar. O'zbek tili haqidagi Qonunning qabul qilish masalasi bo'yicha O'zbekistonda bahslar, munozaralar, tortishuvlar uzoq davom etdi.

Til uchun bo'lgan kurashda o'zbek xalqi o'zini ko'rsatdi. Eng muhimi, bu kurashda xalq uyg'ondi. Uzoq davom etgan bahslar, tortishuvlar, munozara va muhokamalardan so'ng O'zbekiston Oliy Kengashi o'n birinchi sessiyasida 1989 yil 21 oktabrda "O'zbekiston SSR ning davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilindi. Davlat tili to'g'risidagi qonun qabul qilinganligi, mana shunday tarixiy jarayonda Markazda va o'zimizda qulay bahona va payt poylab turgan, g'arazli maqsadlarni ko'zlagan kuchlar mavjud bo'lganligi ona tilimizning bundan keyingi taqdiri o'zimizga bog'liq bo'lganligi to'g'risida gapirib I.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida shunday fikr bildirdi: "Avvalo, Respublika Oliy Kengashi qoshida til bo'yicha taniqli olimlar, ijodkor ziyolilar, jurnalistlar va jamoatchilik vakillaridan iborat maxsus komissiya tashkil qilindi. Komissiya a'zolari aholining turli ijtimoiy qatlamlari, siyosiy guruhlar, barcha millat va elat vakillari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni atroflicha o'rganib, respublika raxbariyati va keng jamoatchilikka doimiy axborot berib borar edi. Ana shunday ishchanlik ruhida Oliy Kengash sessiyasiga taqdim etiladigan loyihaning har bir moddasi bo'yicha har taraflama fikr almashuv, baxs va munozaralar bo'lib o'tdi"²³.

O'zbekistonda davlat tili to'g'risidagi Qonunning qabul qilinishi o'zbek xalqining, jumhuriyatimizda yashovchi boshqa xalqlarning madaniy-ma'naviy va siyosiy hayotida ro'y bergan g'oyat muhim voqea bo'ldi.

O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi haqidagi tarixiy qonun o'zbek tili obro'-e'tiborini ko'tardi, uni oyoqqa turg'azish uchun zarur bo'lgan moddiy shart-sharoitlar, iqtisodiy, siyosiy va xuquqiy asoslar yaratildi. Qonunga binoan o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili, deb e'lon qilindi. Bu hol xalqimizni behad quvontirib, dilini yayratib yubordi, milliy g'ururini kuchaytirdi.

Davlat tili to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi xalqimiz uchun muqaddas qadriyatlardan hisoblangan ona tilimizning qonuniy asoslarini yaratib berdi, tilimiz o'z himoyasiga ega bo'ldi.

Davlat tili haqidagi Qonun milliy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish uchun shunday bir istiqbol yo'lini ochib berdiki, bunday baxtli kunlar keladigan damlarni xalqimiz uzoq yillar osha intiqib kutgan edi.

O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi davlat tili deb qonun yo'li bilan belgilab qo'yilganligi xalqimiz uchun chinakamiga yangilik buyuk bo'ldi. Tilimiz, tariximiz, madaniyatimiz, butun ma'naviy hayotimiz tazyiq ostiga olinganligi, diniy, axloqiy, milliy qadriyatlarimiz oyoq osti qilinganligidan qanchalik aziyat chekkanligimizni hali unutgan emasmiz. Bundan kelgusi nasl-nasablarimiz, necha-necha avlodlarimiz o'zlari uchun, albatta, tegishli xulosalar chiqarib olajaklar!

O'zbek tili O'zbekistonda himoya qilinmasa, ravnaq topmasa, xo'sh, u qayerda ishlatiladi, uni kimlar himoya qiladi va qanday rivojlantiriladi? Xuddi shuningdek, boshqa milliy tillar va madaniyatlar ham o'z tarixiy vatanida ravnaq

²³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 23.

topish imkoniyatiga ega. Buni unutmasligimiz kerak. O'zbekiston Respublikasi o'zbek tili va madaniyatini butun choralar bilan rivojlantiradi va uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida to'liq amal qilishini ta'minlaydi. Bu haqda Qonunda aytib o'tilgan.

O'zbek tilini qo'llanish sohalarining kengayishi boshqa tillarning rivojlanish imkoniyatlarini cheklamaydi. Bu narsa Qonunning bosh qismida alohida ta'kidlangan, boshqa ko'pgina moddalarda ham yana bir bor qayd etilgan. Boshqa elatlar va millatlarning tilini hurmat qilish, ularni kamsitmaslik milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida katta rol o'ynaydi. Mustaqillik O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlar o'z ona tili rivoji haqida qayg'urish imkonlarini kengaytirdi. Ta'lim, kerakli ma'lumotlar olish xuquqlarini kafolatlab berdi. Prezident Islom Karimov bu xaqda gapirib, "Qabul qilingan qonunda davlat tili bilan birga yurtimizdagi barcha millat va elatlarning tillarini rivojlantirish, davlat yo'li bilan ximoya qilish, tili, dini va millatidan qat'i nazar, har bir fuqaroning o'z ona tilida ta'lim, axborot, kerakli ma'lumot olish kabi huquqlarini kafolatlash masalalari aniq belgilab qo'yilgan".

Davlat tili haqidagi Qonun qabul qilinib, mustaqillikka erishganimizga qadar, O'zbekiston davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida, anjuman, plenum, qurultoy, sessiya, konferensiya, majlis va kengashlar o'zbek tilida emas, rus tilida olib borilardi, qonun, qaror va boshqa hujjatlar shu tilda tayyorlanardi, o'zbek tiliga keyin tarjima qilinardi. Birorta odam, nima uchun shunday, deb so'ray olmasdi. Hozir ana shunday iztirobli davrlar biz uchun o'tmish bo'lib qoldi. Zanjirband qilib tashlangan tilimiz istibdod kishanlaridan qutuldi, erkin bo'ldi.

Til haqida Qonun qabul qilinishi natijasida korxona, muassasa va tashkilotlarda hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari respublika davlat tilida olib boriladigan, notarial ishlar, grajdanlik holatini qayd etuvchi hujjatlar hamda turli shahodatnomalar o'zbek tilida yoziladigan bo'ldi. Yaqin-yaqinlargacha ham ana shu masalalar bo'yicha o'zbek tiliga mensimasdan qarash odat tusiga kirib qolgandi. Bu haqda Islom Karimov shunday fikrlarni bildirdilar: "Holbuki, bundan yigirma yil oldim oddiygina ariza yoki ma'lumotnomani ham o'zbek tilida yozishni imkoni yo'q edi. Bugun bu haqda gapirsangiz, ko'pchilik yoshlarning ishonishi qiyin".

Mustaqillik yillarida o'zbek tilini qo'llanish doirasining kengaytirib borish imkonlari yanada ortib bormoqda. Istiqlol yillarida ilmiy tadqiqot ishlarini o'zbek tilida taqdim etish, ilmiy ishlarni himoya qilish va nashr qilish huquqi ta'minlandi. O'zbekistonda chiqadigan kitoblar, gazeta va jurnallar, davriy xabarnomalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalarining asosan davlat tilida nashr etilishi, televideniye ko'rsatuvlari va radioeshittirishlar o'zbek tilida olib borilishi xalqimizning madaniy-ma'naviy saviyasini yuksaltirish, milliy ongini o'stirishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

3. Milliy g'ururimizni o'stirishda hamda milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashni ta'minlashda til haqidagi Qonunning, O'zbekistonda davlat tiliga va boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi, degan qat'iy talabi muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunda belgilab qo'yilganidek, mansabdor shaxslarning respublika davlat tilini bilmaslikni ro'kach qilib, takliflar, arizalar va

shikoyatlarni olishdan yoki ko'rib chiqishdan bosh tortishlari man' etiladi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

O'zbek tilining milliy til darajasiga ko'tarilishidan guvohlik beradigan omillardan biri sohalar bo'yicha qator ilmiy-terminologik lug'atlar tayyorlash va ularni xalq o'rtasida keng tarqalganligi bo'ldi. Bu lug'atlarning o'zbek tili adabiyotida keng qo'llanilishi hozirgi zamon o'zbek tili umummillat tili sifatida to'liq shakllanganligidan guvohlik berar edi. Xalqni til, hudud va etnomadaniy jihatdan birlashtiruvchi omil iqtisodiy negizdir. Xalqning iqtisodiy-xo'jalik birligi asosida til va hudud hamda etnomadaniy birliklar shakllanib boradi. Xalqning iqtisodiy va siyosiy birlashishi xalq og'zaki tilining (lahjalarining) yaqinlashishi asosida yagona milliy til-yozma adabiy tilning paydo bo'lishiga olib keladi. Lahjalar o'rnini milliy adabiy til egallaydi. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobir davridagi eski o'zbek adabiy tili bo'lib, bu tilda Mahmur, Mashrab, Uvaysiy, Turdiy, Nodira, Ogohiy, Avaz O'tar o'g'li, Huvaydo va boshqalar ijod qildilar. Bu til Komil Xorazmiy, Munis, Feruz, Muqimiy, Furqat, Zavqiylar zamonasida yanada sayqal topib, jadidlar davrida o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi, ya'ni xalq tili millat tili darajasiga ko'tarila boshladi. Millat tili zaminida shakllangan hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida Abdulla Qodiriy, Oybek, G'ofur G'ulom, Hamid Olimjon, Zulfiya kabi badiiy ijodning darg'alari qalam tebratdilar.

Til – bu faqat odamlar o'rtasidagi muloqot vositasi bo'libgina qolmay, balki madaniyatning ulkan yutug'i, xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti, ko'p asrlik rivojining ko'zgusi hamdir. Tilni qonuniy muhofaza qilishning asosiy maqsadi har bir millat va elatning, qolaversa barcha xalqlarning tiliga nisbatan hurmatni saqlagan holda o'z ona tilidan erkin foydalanish va uni rivojlantirish xuquqini ta'minlashdan iboratdir.

Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror joxibasi bilan sinadi. Ona tili – bu millatning ruhidir²⁴.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zlari bilan aytganda, "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgon oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur".

Bolaning so'zlash qobiliyati, lisoniy tafakkuri, eng avvalo, oilada shakllanadi. bu jarayonda ona allasidan tortib, ertak tinglash, topishmoq va tez aytishlar, maqol va matallardan foydalana olish juda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ota-onalarning o'z ona tiliga bo'lgan munosabati, qo'ni–qo'shnilar nutqining qay darajada ekanligi bolaning ongu shuuriga, lisoniy tafakkurining kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalaridagi nutq (matn) yosh o'smir tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishini unutmazlik lozim. Shu sababli ham, ota-onalarning ona tilimiz oldidagi mas'uliyati doimo oshib borishi zarur. Milliy til avvalo, oilada tarbiyasidan boshlanadi. Ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalarini milliy tilni shakllantiradi.

²⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.83

Atamalar va asosiy tushunchalar:

Til – bu faqat odamlar o‘rtasidagi muloqot vositasi bo‘libgina qolmay, balki madaniyatning ulkan yutug‘i, xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy hayoti, ko‘p asrlik rivojining ko‘zgusi hisoblanadi.

Milliy til – ma‘lum bir elat, xalq va millatning muomala vositasi.

Milliylik – muayyan xalqqa, millatga xos bo‘lgan, uni boshqalardan farqini ko‘rsatuvchi xususiyatlar majmui.

O‘zbek tili – turkiy tillarning qorluq guruhiga mansub tillardan; yangi uyg‘ur tili bilan birgalikda qorluq-xorazm guruhchasini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili (1989 yil 21 oktabridagi «Davlat tili haqida»gi qonunga muvofiq o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan). Asosan, O‘zbekistonda, shuningdek, Afg‘oniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Rossiya Federasiyasi, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Xitoy, AQSH, Germaniya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. O‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning umumiy soni 25 mln. kishidan ortiqroq (O‘zbekistonning o‘zida 18 mln.dan, Tojikistonda 1,2 mln.dan ziyodroq, Afg‘onistonda esa, turli manbalarga ko‘ra, 2,5 mln.dan 4 mln.gacha, Qirg‘iziston va Saudiya Arabistonining har birida 550 – 600 mingdan ortiq, Qozog‘iston va Turkmanistonning har birida 320 – 330 mingdan ortiq) kishini tashkil etadi (2000).

O‘zbek lotin alifbosi – lotin grafikasiga asoslangan harf-tovush (fonografik) yozuv turi. O‘zbek xalqi va yozuvi tarixida 2 marta joriy etilgan. O‘zbek yozuvini arab grafikasidan lotin grafikasiga o‘tkazish haqidagi dastlabki qaror 1929 yil 15 – 23 may kunlari Samarkand sh. (O‘zbekistonning o‘sha davrdagi poytaxti)da bo‘lib o‘tgan respublika adiblari, til-imlochilari va umuman yetakchi ziyolilar ishtirokidagi konferensiyada qabul qilingan va bu qaror 1929 yil 10 avgustda O‘zSSR Xalq maorif komissarligi hay‘ati tomonidan tasdiqlangan edi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng respublikada o‘zbek yozuvini rus grafikasidan yana lotin grafikasi asosidagi yozuvga o‘tkazish haqida fikr-mulohazalar o‘rtaga tashlanadi. Bu masala bir yil davomida ommaviy axborot vositalarida keng jamoatchilik ishtirokida atroflicha muhokama qilinib, 1993 yil 2 sentabrda O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan uzbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi qonuni z‘lon qilindi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Milliy tilni qadriyat sifatida qanday tushunish mumkin?
2. Milliy madaniyatimizda milliy til muammosi haqida nimalar bilasiz?
3. Davlat tili to‘g‘risidagi Qonun qanday qabul qilingan?
4. Mustaqillik davrida o‘zbek tiliga e‘tibor berilishi va qonun bilan mustahkamlanishi haqida qanday ishlar olib borildi?

4-MAVZU:“TRANSFORMASIYA” TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY VA MADANIY TALQINI

Ma’ruza rejasi:

1. *“Transformasiya” atamasining ilmiy-nazariy talqini*
2. *Milliy qadriyatlarning transformasiyaga uchrashi*

Mavzuning maqsadi: Talabalarga *“transformasiya” tushunchasi va milliy qadriyatlarning transformasiyaga uchrashi haqida ma’lumotlar berish.*

1. Hozirda axborotlashgan va globallashuv jarayoni barcha sohalar kabi madaniyatshunoslik fanida ham yangicha yo‘nalishdagi jarayonlar yuzaga kelmoqda. Ushbu jarayonlarni mohiyatini bilish uchun yangi atamalar qo‘llanilmoqda. Bu atamalar, jumladan, *“transformasiya”* barcha sohalaridagi kabi madaniyatshunoslik sohani rivojiga ta’siri ko‘rsatmoqda. Avvalo bu atamaning ijtimoiy-falsafiy va madaniy mohiyati va mazmunini tahlil qilinishi kerak.

Fanda *“transformasiya”* (lotincha transformasiya) atamasi *“qayta o‘zgarish”*, *“qayta hosil bo‘lish”* degan ma’nolarini beradi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, transformasiya aslida hujayraga yot DNK kirishi natijasida uning irsiy xususiyatlari o‘zgarishini anglatadi. Bu so‘z ko‘proq genetikada ishlatilsa-da keyingi paytlarda u ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan madaniyatshunoslikda ham ishlatilmoqda.

O‘zbek halqining madaniyatida transformasion jarayonlar, ya’ni Yevropada vujudga kelgan madaniy jarayonlarining kirib kelishi XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlangan.

Podsho Rossiyasining O‘rta Osiyoni istilo qilishi bilan butun Turkistonning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bu esa o‘z navbatida, o‘lkaning mahalliy aholisining ma’naviy, madaniy va urf-odatlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Ayniqsa bozor munosabatlarining shiddat bilan kirib kelishi moddiy madaniyatda katta o‘zgarishlar yasadi. Bu o‘zgarishlarni kiyinish, oziq-ovqat tarkibi, uy-joy qurilishi va jihozida yoki mahalliy xalqlarning xo‘jalik faoliyatida kuzatish mumkin. Moddiy madaniyatdagi o‘zgarishlarning aksari ijobiy natijaga ega bo‘ldi.

Ammo ma’naviy madaniyatdagi o‘zgarishlar xususida bunday xulosaga kela olmaymiz. Fikrimizning isboti uchun bir necha misollar keltiramiz: qadim zamonlardan sabr-toqat eng muhim xislatlardan biri bo‘lib kelgan. Globallashuv jarayonida bu so‘z yo‘qolib bormoqda. Xalqimizda *“Sabrning tagi sariq oltin”*, *“sabr qilsang g‘o‘ridin holvo bitur”*, *“shoshilgan qiz erga yolchimabdi”*, *“yetti o‘lchab bir kes”* kabi maqollarning paydo bo‘lishi ham shu bilan bog‘liq. Rus etnografi va sayyohi N. Likoshinning fikricha, pul-tovar munosabatlarining rivojlanishi mahalliy xalqning xarakteridagi bu hislatiga putur yetkazgan. *“Shoshqoloqlik shaytonga xos”*²⁵. N. Likoshin musulmonlarga tegishli bu iborani

²⁵ Likoshin N. Rezultati sblijeniya russkix s tuzemsami. Seleniya Dalyan 29 iyunya 1903 goda. – S. 6.

eslatar ekan: “endilikda ular tirikchilik ilinjida tinmasdan shoshadilar”, – deb ma’lumot bergan²⁶. Hozir ham odamlar shoshadilar.

D.A. Aytmanbetov “Vliyaniye Rossii na xozyaystvennoye i kulturnoye razvitiye Kirgizii” maqolasida shunday yozgan: “Chorizmning xalqlar orasiga nifoq solishiga qaramasdan, qirgʻizlarning rus ayollari bilan (ruslarning qirgʻiz ayollari bilan kamroq) nikohlari, qirgʻiz yoshlarining provaslav dinini yoki aksincha, rus krestyanning islomni qabul qilishi qayd etilgan”²⁷. Bunday holatlar faqat qirgʻizlar uchungina emas, balki boshqa xalqlarga ham yangilik boʻlmay qolgan.

XX asr boshlarida Fargʻona viloyati amaldorlarining axborotida quyidagi ma’lumotni uchratish mumkin: “shahar yoki bufetlar mavjud temir yoʻl stansiyalari yaqinidagi qishloqlar aholisi orasida ichkilikbozlik paydo boʻldi: yoshlar orasida islom, shariat qoidalariga rioya qilmaslik avj olmoqda, mahalliy aholiga xos boʻlgan kamtarlik va muloyimlik, kattalarni hurmat qilish odatlari oʻrnini egallab borayotgan axloqsizlik odatiy holga aylanmoqda”²⁸. “Oxirgi paytlarda ayniqsa, inqilobiy harakatlar chogʻida shaharlarda yashirin islovotxonalarining mavjudligi kuzatilgan”²⁹. Bolalar uylari ish faoliyatini olib borgan.

Bir necha yuz yillar davomida shakllanib kelgan ma’naviyatimizning asosini odob-axloq tashkil etadi. Shunday ekan, Rossiya imperiyasi va sobiq ittifoq davrida milliy ma’naviyatimizdagi salbiy hususiyatlarimiz paydo boʻlishi qanday sabablar bilan bogʻliq? Podsho imperiyasi davrida uchastka va polisiya pristavlarining kuzatishicha, oʻlkadagi jinoyatlarning asosiy sababi ichkilikbozlikdir³⁰. Barcha talonchiliklar kayf holatda sodir etilgan. Oʻgʻrilik sodir etilgan uylarda boʻsh araq shishasi koʻp marotaba kuzatilgan. Buning ustiga jinoyat sodir etilgan joyda jinoyatchi kayf holatlarda qoʻlga olingan. Koʻrinib turibdiki, jinoyat jinoyatni keltirib chiqarmoqda. Podsho maʼmurlari esa jinoyatni oldini olish uchun oddiygina shariat qonun-qoidalarining bajarilishiga sharoit yaratib berishni xohlamadilar. Aksincha, ayrim amaldorlar ma’naviyatning yomon tomonga oʻzgarishida spirtli ichimliklar bilan savdo qiluvchi qovoqxonalar ochishgan kavkazliklar katta rol oʻynaganini sabab qilib koʻrsatganlar³¹. Vaholanki, podsho Rossiyasi maʼmurlari islomga zid ekanligini bila turib spirtli ichimliklar ishlab chiqaruvchi korxonalarni ishga tushirdilar. Quyida 1898 yilda Fargʻona viloyati boʻyicha spirtli ichimliklar ishlab chiqaruvchi zavodlar haqida ma’lumot berilgan³²:

	Yangi Margʻilon uezdi	Margʻilon uezdi	Qoʻqon uezdi	Namangan uezdi	Andijon uezdi
Aroq	1	-	-	1	-

²⁶ Oʻsha joyda

²⁷ Aytmanbetov D.O. Vliyaniye Rossii na xozyaystvennoye i kulturnoye razvitiye Kirgizii // Voprosi istorii. – Moskva, 1971. – № 4. – S. 61.

²⁸ Statisticheskiy obzor Ferganskoy oblasti za 1907 god. – Skobelev, 1909. – S. 96.

²⁹ Statisticheskiy obzor Ferganskoy oblasti za 1907 god. – Skobelev, 1909. – S. 96.

³⁰ Statisticheskiy obzor Ferganskoy oblasti za 1910 god. – Skobelev, 1912. – S. 185.

³¹ Statisticheskiy obzor Ferganskoy oblasti za 1907 god. – Skobelev, 1909. – S. 96.

³² Obzor Ferganskoy oblasti za 1898 god. – Noviy Margilon, 1900. – S. 66.

zavodi					
Pivo zavodi	1	-	1	1	-
Vino zavodi	2	-	-	1	-

Odob-axloq normalarining izdan chiqib borishiga podsho hokimiyatining yangi qonunlari aroq zavodlariga nisbatan kuchliroq ta'sir etgan. Ma'lumki, 1886 yil 12 iyunda "Turkiston o'lkasini boshqarish Nizomi" qabul qilingan. 1887 yildan viloyatda ushbu hujjat asosida sud va sudlov jarayonining yangi tartibi joriy qilingan³³. xonlik davrida rais mansabi mavjud bo'lib, bozorda talonchilik, torozidan urib qolish, matolarni to'g'ri o'lchanishini hamda ro'za tutilishi, besh vaqt namoz o'qish kabi musulmon qoidalarining bajarilishini nazorat qilgan. Yangi qonunchilik bo'yicha bu mansab tugatilgan. "Rais mansabi tugatilishi bilan bozorlarda torozidan urib qolish, matoni kam o'lchash boshlangan bo'lsa, kundalik hayotda ichkilikbozlik, zino yoki islom qoidalarining ayrimlariga bo'ysinmaslik keng tus ola boshladi", – deb yozgan V. Nalivkin³⁴.

Madaniyatdagi transformasiya aslida undagi sifatiy o'zgarishlarni anglatadi va u doimo davom etadigan, hech qachon to'xtamaydigan jarayon bo'lib XX asr tugab XXI asr boshlarida ham kuchaydi. Transformasiya – qiyofaning o'zgarishi bo'lib, hozirgi o'zbek xalqining milliy madaniyatiga chetdan kirib kelayotgan turli darajadagi madaniy yangiliklar ko'proq ommaviy axborot vositlari, internet, turli tovarlar yoki zamonaviy san'at namunalari orqali kirib kelmoqda. Ushbu yangi madaniy jarayonlar milliy madaniyatimiz rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston mustaqillik erishganimizdan so'ng, o'zbek xalqining moddiy madaniyatida bir qancha ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, uyali aloqa telefonlar, kabel televizorlar, internet, kamyuterlar ijtimoiy hayotga tezlik bilan kirib keldi. barcha sohalarda yangicha uslubdagi ko'rinishlar axborotlashgan transformasion va innavasion jarayonlarni kirib kelganini ko'ramiz.

Innovasiya masalasiga alohida e'tibor berishimizning bir necha muhim sabablari bor. Birinchidan, bizning anglashimizcha, Prezident Islom Karimovning O'zbekistonni mustaqillikka olib chiqish va mustaqil taraqqiy toptirish yo'li – "o'zbek modeli" behad katta va ulkan, uzoq muddatli, eng ustuvor va olamshumul umummilliy innovasion loyiha va dasturamal bo'ldi. Ikkinchidan, innovasiya, innovasion faoliyat va bozor hamda innavosion tizim O'zbekistonning o'z mustaqilligi uchun kurashda va taraqqiyot yo'li – "o'zbek modeli"ning tarkibiy qismi yo'nalishlaridan biri sifatida mustaqillik yillarida paydo bo'ldi. Uchinchidan, ma'lum bo'lganidek, bularning har ikkalasi – "o'zbek modeli" va innovasiya o'zaro uzviy bog'liqda dunyoga keldi. Ularning biri ikkinchisini mazmunan va mohiyatan boyitdi, jamiyatga ta'sirchanligini oshirdi. To'rtinchidan, "o'zbek modeli" ham, innovasiya ham faqat bir buyuk maqsadga hizmat qildi va qilmoqda. Bu Vatan va millat mustaqil qilib, takomil toptirish, jamiyat rivoji, ilm-fani va texnika taraqqiyotini tezlashtirishdan iborat bo'ldi. Bularni to'la to'kis anglash,

³³ Kuselevskiy V.I. Materiali dlya meditsinskiy geografii i sanitarnogo opisaniya Ferganskoy oblasti. – Noviy Margelan, 1891. T. 2. – S. 412.

³⁴ Nalivkin V., Nalivkina M. Ocherk bita jenshini osedlogo tuzemnogo naseleniya Fergani. – Kazan, 1886. – S. 37.

masalaning mazmuni va mohiyatini yanada chuqurroq his qilish uchun eng avvalo, innovasiya haqida alohida to'xtalishiga ehtiyoj tug'ilmoqda. Chunki, bu mutlaqo yangi tushuncha va soha bo'lib, hali to'la-to'kis anglanilganicha yo'q.

Insoniyat yangi tamaddunga qadam qo'yanini har nafasda his qilmoqdamiz. Bu narsa umumbashariy tamoyillarga urg'u berilgan holatda milliy ma'naviyatning evrilishi, qadriyatlarning o'zgarishi yoki almashishi hodisalari mavjud zamonaviy tafakkur tarzida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Butun dunyoda qadriyatlar almashishi, integrasiyalashuv, globallashtirish, agar ta'bir joiz bo'lsa, madaniyatlar aralashuvi, sintezlashuvi jarayoni kechayotgan hozirgi paytda o'zga urf-odatlariga, ma'naviy tamoyillarga moyil bo'lish tabiiy hol. Ko'plab tadqiqotchilar istilohlarida kishilar ongini programmalashtirish, axborot ekspansiyasi, madaniy gegemonlik, madaniy imperializm kabi iboralar qo'llanmoqda. Unda yangi madaniy tamoyillarga ko'r-ko'rona ergashish, hukmron madaniy ahloqqa bo'ysunish kabi hodisalar kechadi. Achinarlisi shundaki, demokratik tamoyillar va liberalizm turtkilari ta'sirida vijdon va individual xususiyat bilan bog'liq bu hodisalarda hech kim ayblanmaydi. Ushbu jarayon nafaqat kattalarga, xatto bolalar psixologiyasiga ham ta'sir qiladi. Kichik do'stlarimiz jajji ma'naviy dunyosini egallash borasida turli axborot rastalaridan tashqari yana mafkuraviy bozorlarda ham "savdo" ketmoqda. Bolalar ongu shuurini egallash qurollaridan biri kompyuterdagi Internet tarmog'i hisoblanib, u boshqa vositalarga qaraganda yetakchilik qilmoqda.

Bugun kompyuter texnologiyalari hayotimizda mustahkam o'ringa ega, kompyuter savodxonligi ko'rsatkichi esa ko'p hollarda insonning yuqori saviyasini belgilab beradigan omilga aylanib bormoqda. Endilikda kompyuterda ishlashni bilmaydigan xodimni yaxshi mutaxassis deyish qiyin. Agar o'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida yoshlarning eng sevimli mashg'ulotlari musiqa tinglash va teleko'rsatuvlar ko'rish bo'lgan bo'lsa, hozirgi paytda esa kompyuter va Internet avvalgi qiziqishlarni yosh avlod hayotidan siqib chiqardi. Zamonamiz yoshlarining 70 foizi o'z qiziqish va sevimli mashg'ulotlari haqida so'z yuritganda sport, do'stlar bilan suhbatlashish, ma'naviy va madaniy hordiq chiqarish bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari, Internetga bo'lgan qiziqishini birinchi o'rinda tilga oladi. Nielsen/Net Ratings kompaniyasi o'tkazgan so'nggi ilmiy tekshiruv natijalariga ko'ra, butun dunyo tarmog'iga ulanayotgan yosh bolalarning soni kun emas, soat sayin oshmoqda: birgina 2007 yili Yevropada yosh avlod vakillarining uchdan bir qismi onlayn tizimidan foydalanganini kuzatilgan. 2008 yili dunyo axborot tarmog'idan 10 million bola foydalangan bo'lsa, hozirda ularning soni allaqachon 13 milliondan oshib ketdi. Bu ko'rsatkich kundan-kunga ko'paymoqda. O'z hayot mazmunini bunday onlayn tizimida ko'rayotgan yoshlarning katta qismi - 4,5 millioni Buyuk Britaniyaga to'g'ri keladi. Ular har kuni elektron manzillarini tekshiradi, turli xil saytlardan ma'lumot izlaydi va chat (global tarmoqdagi suhbatxona)lar orqali muloqotda bo'lishadi. Germaniyada hozircha 3 million va Fransiyada esa 1,5 million bola vaqtini asosan onlayn tizimida o'tkazadi. Bir yildan so'ng bu ko'rsatkich ikki barobarga oshishi kutilmoqda. Yosh avlodning kompyuter savodxonligi baland, bugun hatto olti yashar bolalar ham blutus (bluetooth) va spam nimaligini kattalarga nisbatan yaxshi biladi. Dunyoning rivojlangan

mamlakatlaridan biri Kanadada o'n yetti yoshgacha bo'lgan 6 ming bola o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijasiga ko'ra, Internetdan faqat axborot olish maqsadida foydalanmas ekan. So'rovda ishtirok etganlarning 99 foizi Internetdan foydalanishini, ularning har o'ntasidan sakkiz nafari uyda ulanish imkoniyatiga ega ekanini bildirgan. Kanada yoshlarining yarmidan ko'pi Internet va kompyuter texnologiyalarini ota-onalaridan yaxshiroq bilishini aytgan. Ularning 80 foizi mustaqil ravishda Internetga ulanishini, ota-onalari kompyuterga himoya vositasi bo'lgan filtrlash dasturini o'rnatib qo'ymagani va farzandlari qanday saytlarga kirishini nazorat qilmasligini tan olishdi. Umuman olganda, aksariyat ota-onalar, aniqrog'i, ularning 65 foizi farzandlari Internetdan faqat uy vazifasini tayyorlash uchun foydalanadi, degan fikrdadir.

Kun tartibidagi mashg'ulotlarni darajaga bo'lsak, bunda yoshlar ilm olishni eng oxirgi o'ringa qo'yar ekan. Ular asosan internet orqali musiqa tinglaydi, elektron manzilni tekshiradi, xullas, vaqtichog'lik qiladi. Yoshlarning uchdan ikki qismi Internetga yangi do'stlar orttirish va kim bilandir suhbatlashish maqsadida ulanadi, ularning 15 foizi bu munosabatlarni keyinchalik real hayotda davom ettirar ekan. Muloqotning bu kabi shakllari yaxshi, albatta. Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham borki, unga chuqurroq nazar tashlash lozim. Alohida e'tibor talab etadigan jihat - Internet orqali tahdid deb nomlanadi.

Xukumatimiz rahbarining bu borada kuyunchaklik bilan aytgan so'ziga xali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Bu so'zni biz bejiz ikki bor takrorlamadik. Prezident ta'kidlaganidek, "...ba'zan beozor bo'lib tuyuladigan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi"⁴². Bu fikrlar aynan kompyuter, Internet va undan foydalanish masalasiga ham tegishli. Zohirda beozor ko'rinadigan kompyuter o'yinlari ostida nimalar yashiringanini bilish qiyin emas.

Bugungi kunda virtual tahdid nihoyatda ommalashib bormoqda. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, hozirda maktab yoshidagi bolalar Internetdan tobora erta foydalanishga kirishmoqda. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari bemalol maktab yon-atrofidagi kafe yoki klubga kirib, Internetdan foydalanishi mumkin. Shu bois ular uyda ham Internetga ulanish imkoni bo'lishini xohlashi tabiiy. Lekin, mutaxassislarning fikricha, yoshi o'nga yetmagan bola odatda mustaqil ravishda Internetdan foydalanish uchun zarur bo'lgan tanqidiy, tahliliy fikrlash va shu asosda ma'lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha aytganda, «filtrlay» olish qobiliyatiga ega emas. Shu sababli Internetdan yolg'iz qolganda ham foydalanish ehtimoli bo'lgan bolani qattiq nazorat ostiga olish kerak, unga o'zi haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni Internet orqali tanishgan odamlarga aytmaslikni o'rgatish zarur. So'nggi paytlarda Internet orqali tahdid etish yoki ilmiy tilda aytadigan bo'lsak, *grifing* holatlari ko'p kuzatilmoqda. Bu kabi tarmoq bezoriligining eng birinchi qurbonlari aynan yoshlar qatlami, xususan, o'smirlar hisoblanadi. Bir qarashda

⁴²Karimov I.A. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin" "Tafakkur", 1998. 2-son, - B.6.

beozor tuyulgan chat xonalar yoki maxsus muloqot dasturlari orqali kechadigan suhbatlar tafakkuri endi shakllanayotgan bolalarni ba'zan jinoyatgacha yetaklab borayotgani hayotiy haqiqat. Virtual sekta yoki grifing bilan shug'ullanadiganlar yohud *grifyorlar* zamonaviy yoshlarning qiziqishlaridan juda yaxshi xabardor bo'lib, onlayn konferensiya, forum xonalarida istalgan mavzuda suhbat yuritishi, o'zlarini ularning muammolarini tushunadigan odamlar sifatida ko'rsatishi mumkin, buning ustiga, veb tarmoqda anonimlikni saqlash xususiyati qisqa fursat ichida ishonchga kirib olishga imkon yaratadi. Grifing bilan kurashishning eng oddiy usuli — kompyuterga maxsus taqiqlov dasturlari (eng mashhurlari Kiberpatrul yoki Kidskontrol)ni o'rnatish. Shunda zararli manbalardan keladigan barcha xabarlar avtomatik tarzda filtrlanadi yoki dasturga ota-onalar tomonidan kiritilgan cheklov tufayli bolaning o'zi qiziqib nojo'ya axborotni olmoqchi bo'lganda, avtomatik taqiq ishga tushadi. Ayni paytda mazkur dasturlar ham to'liq xavfsizlikni kafolatlay olmaydi, chunki ba'zida ular foydali axborotni cheklab qo'yishi yoki keraksizini o'tkazib yuborishi mumkin. Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda Internetdan foydalanish ko'nikmalari fakultativ dars sifatida maktab dasturiga kiritila boshladi. Buni ham grifingga qarshi kurashishning o'ziga xos usuli sifatida ko'rsatish mumkin. Negaki, fakultativ darslar orqali bolalar Internetdan olinadigan ma'lumotlarning qanchalik haqqoniy va to'g'ri ekanini tekshirishga o'rgatiladi. Bunday darslar, ayniqsa, o'smirlar uchun zarur.

Ko'z o'ngimizda farzandlarimiz kutubxonaga emas, balki, Internet kafelarga bormoqdalar, bir chetda chang bosib yotgan mumtoz kuy-qo'shiqlar yozilgan grammaplastinkani emas, kichkina uyali aloqa telefonidan maxsus moslama orqali zamonaviy estrada va yallalarni tinglamoqda. Uyali aloqa kompaniyalarining arzon bonuslari sababli endilikda o'smirlar qo'l telefonlari orqali Internet saytlariga kirmoqdalar. Bugun nafaqat kichkina farzandlarimizning, balki o'smirlarni ham tarbiya jarayoni murakkab bir holatdadir. Internet saytlaridagi mahsulotlarni tanqid qilish oson. Ularga muqobil milliy, bolalar va o'smirlarga mos, ularning qiziqish olamlariga xos mahsulotlarni biz ham ishlab chiqarsak bo'ladi. Bugun agar farzandingiz kitob o'qimasa rasmiy kitob keltirsangiz va tushuntirsangizki, shu rasmdagi voqeani kitobga yozgan, desangiz, u albatta o'qiydi. Xuddi shu narsani kompyuter olamiga ko'chirsangiz, u shubhasiz boshqa chalg'ituvchi saytlarga kirmaydi. Chunki odatda biror nimani taqiqlashdan avval unga muqobil boshqa yaxshi narsa taklif qilinadi.

2. Ma'naviyat bilan etnik madaniyat o'rtasidagi farq shundaki, ma'naviyat an'anaviy, milliy bo'lmagan qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. Etnik madaniyat esa o'zbek xalqining milliy xususiyatlarini ifoda etadigan voqelikdir. Ma'naviyat subyektiv xarakterdagi tushuncha, u ko'pincha axloqiy sifatlarni, munosabatlarni o'z ichiga oladi, etnik madaniyat esa millatimiz hayotidan muhim o'rin olgan, tarixiy-madaniy qadriyatlarga aylangan boyliklardan iborat. Ma'naviyatga zamonaviy munosabatlar ham kirgani uchun u tez transformasiyaga uchraydi, etnik madaniyatga esa o'z o'zagini asrash, hatto konservativlik xos. U yangi, zamonaviy o'zgarishlarga, modernizasiyaga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladi, davr va hayot sinovidan o'tgan qadriyatlarnigina innovasiya sifatida qabul qiladi. Xullas, etnik madaniyat milliy ma'naviyatning o'zagidir.

Milliy o'zbek tilining shakllanishida O'zbekistonda yashagan qadimiy qabila va etnoslarning tillarining o'zni ham katta bo'lgan. Jumladan, qadimgi xorazm, baqtriya, so'g'd, parfiya, sak va massagetlar, tohar, qang', eskiy turkiy tillar transformasiyaga uchrab, o'zbek tilining hozirgi adabiy tiliga aylangan. Arab, fors, mo'g'il, rus tillarining ta'siri natijasida o'zbek tilining lug'ati boyib borgan. Hozirda globallashtirish va axborotlashgan jamiyatda esa o'zbek tiliga internet orqali ko'pgina Yevropa tillaridagi so'zlar ham kirib kelmoqda.

O'zbek xalqning mahalla va oilaviy marosimlarda transformasiyaga uchragan chaqaloqni cho'miltirish marosimi, chaqaloqqa ism qo'yishda ayollarning dasturxon yozish marosimi va boshqa marosimlar ko'rish mumkin. Shuningdek, sunnat to'ylari XX asrning 80-90 yillarida katta dabdaba bilan o'tkazilgan. Jumladan, nahorda "Osh" marosimi, peshin vaqtida "Xotin oshi", kechqurun "Erkaklar bazmi" nishonlangan. Bugun bu marosim ham ixchamlashib, transformasiyaga uchramoqda va ko'p hollarda "Beshik to'yi" yoki "Qovurdoq" marosimlariga qo'shib nishonlanmoqda. Nikoh to'yi o'zbek xalqi etnik madaniyatidagi muqim saqlanib kelayotgan, tashkiliy nuqtai nazardan transformasiyalarga uchragan bo'lsa-da, ijtimoiy mohiyatiga ko'ra insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi milliy qadriyatlardan biridir. Zardushtiylikka xos ko'pgina marosimlar o'zbek etnik madaniyatidan joy olgan. To'g'ri, ularning barchasi saqlanib qolgan emas, ayrimlari yo transformasiyaga uchragan yoki unutilgan. Shunday marosimlardan biri «O't ona», «Olov ayol»dir. Bu marosim uchun tajribali, mas'uliyatli, zardushtiyalar urf-odatlarini bilgan ayol tanlab olingan va u o'z vazifasini (o'zni asrash) bajarishga maxsus rasm-rusumlar bajarilganidan keyin kirishgan.

Tabiat bilan bog'liq marosimlardan biri «Choy momo» marosimi kuchli bo'ron yoki to'fonni og'ir mehnat bilan yetishtirilgan ekinlarni payhon qilmaslikka, meva-chevalarni bevaqt to'kmaslikka chaqirishga qaratilgan. Marosim qatnashchilari asosan ayollar bo'lib, ular shamol homiysidan tabiatdagi yovuz kuchlarni jilovlashni so'rashgan.

Albatta, xalqimizning rekreativ - dam olish va hordiq chiqarish an'analari keyingi yillarda keskin transformasiyaga uchramoqda. Ushbu novasion va innovasion o'zgarishlar tabiiy holdir, ammo xalqimiz etnik madaniyatidagi o'z qimmatini yo'qotmagan dam olish va hordiq chiqarish an'analarini asrash, ulardan samarali foydalanish ham muhimdir.

Atamalar va asosiy tushunchalar:

Transformasiya – "qayta o'zgarish", "qayta hosil bo'lish" degan ma'nolarini beradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, transformasiya aslida hujayraga yot DNK kirishi natijasida uning irsiy xususiyatlari o'zgarishini anglatadi. Etnomadaniyatning ijtimoiy-tarixiy jarayonlar ta'sirida qisman o'zgarishi. Ko'pincha, u etnik madaniyatning bir yo'nalishiga yoki qismiga ta'sir qiladi.

Modernizasiya – etnik madaniyatdagi qismlar yoki yo'nalishlarning zamonaviylashuvi, davr talablariga moslashuvi.

Tarixiy-madaniy paradigma – xalqning, millatning uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida yaratgan muqim qadriyatlari, hayot prinsiplari, fikrlash va yashash usullari.

Globallashuv – jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umum sayyoraviy tadbirlar, mamlakatlar va kishilar oʻrtasida oʻzaro aloqalarning kengayishi, murakkablashuvi, jahon miqyosida axborot makonining kengayib borishi, atrof-muhitga texnogen taʼsirining kuchayishi, “ommaviy madaniyat” namunalarining keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar havfining ortib borishini ifoda etuvchi tushuncha

Madaniy qadriyatlarning transformasiyaga uchrashi – maʼlum bir elat, xalq yoki millatga tegishli boʻlgan qadriyatlarni globallashuv sharoitida oʻzgarishi yoki oʻzining asliy koʻrinishini yoʻqotishi

Innovasiya – inglizcha “kiritilgan yangilik” maʼnosini bildiradi. Milliy qadriyatlar tizimidagi kiritilgan yangiliklar va ularning ijtimoiy hayotdagi asosiy xususiyatlari tushuniladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. “Transformasiya” tushunchasini izohlang?
2. Transformasiyaning ijtimoiy va madaniy talqini haqida nimalar bilasiz?
3. Internetning yoshlar maʼnaviyatiga taʼsirini qanday izohlaysiz?
4. Milliy qadriyatlarning transformasiyaga uchrashining asosiy sabablarini koʻrsating?
5. Gʻarblashtirish amaliyotchilari va boshqa mafkuraviy shaklda qurollangan kuchlar fenomeni deganda nimani tushunasiz?

5-MAVZU: URBANIZASIYA SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING TRANSFORMASIYASI

Maʼruza rejasi:

1. *Urbanizasiya sharoitida milliy qadriyatlar masalasi*
2. *Mustaqillik davrida shahar aholisining milliy qadriyatlarga eʼtibori*
3. *Shaharda milliy qadriyatlarning transformasiyaga uchrashi*

Mavzuning maqsadi: *Talabalarga urbanizasiya, yaʼni shahar aholisi orasida milliy qadriyatlarning transformasiyaga uchrashi masalasini tushuntirib berish.*

Milliy qadriyatlarimizga oid fikrlarda katta haqiqat, falsafa, hayotiy maʼno mavjudki, shuning uchun ham u barhayotdir. Mustaqillik davrida Oʻzbekiston shaharlarining qishloq bilan bogʻliqlik darajalari yuqoriligi saqlanib qolganligi oʻziga xos xususiyat ekanligi va undagi oʻzgarishlar ana shu holatga ham bevosita bogʻliq holdagi ijtimoiy hodisa sifatida tahlil etiladi.

Milliy qadriyatlar ham umuminsoniy qadriyatlarga monand ravishda jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarida roʻy berayotgan oʻzgarishlar taʼsirida doimo rivojlanib, shakllanib, mukammallashib boradi.

Natijada, ular muayyan bir vaqtda sun'iy va majburiy ravishda xalqimiz hayotiga singib, kirib borsa, ayrimlari asta-sekin o'z ahamiyatini yo'qotishi ham mumkin. Xalqlar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan munosabatlarining tiklanishi va rivojlanishi tufayli har xil millat va elatlarning qadriyatlarini bir – biriga ta'sir ko'rsatib, boyib borishi, ba'zan esa yangi qadriyatlar shakllanib, turmushga singib ketishi yoki yo'qolib ketishi ham mumkin.

Har bir insonning baxt - saodati milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham hozirgi murakkab davrda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yanada yaqinlashtirish, har qachongidan ham zarurroq. Bunda mamlakatlar, xalqlar o'rtasida savdo - iqtisodiy, madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash katta ahamiyatga ega.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishda tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik kabi ijtimoiy - siyosiy qadriyatlarning ahamiyati beqiyosdir.

Shu o'rinda Islom Karimovning quyidagi fikrini keltirib o'tish o'rinli. "O'tmish qadriyatlariga, an'analarga va turmush tarziga betartib ravishda, orqaketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin edi"¹².

Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, Yurtboshimiz ijtimoiy barqarorlik ma'naviyatdagi uyg'unlikka, qadriyatlarga yondoshuvda mutanosiblikka bevosita bog'liq ekanligiga alohida urg'u beradi, shu boisdan ham, jamiyatimizda milliy an'analarga mos determinizm tamoyillariga rioya etgan holda, ishlar qilinmoqda. Natijada, O'zbekistonning xalqaro nufuzi tobora ortib bormoqda. Mamlakat ichki va tashqi siyosati, Respublikada va mintaqada tinchlik - osoyishtalikni saqlash, har bir xonadon totuvligini asrash, iqtisodiy barqarorlikni bir meyorda ushlab, aholi turmush sharoitini yaxshilash yo'lidagi to'g'ri va oqilona siyosat va tadbirkorlikka jahon xalqlari tomonidan yuqori baho berilmoqda.

1. Dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalardagi o'zgarishlar shubhasiz, urbanizatsiya jarayonlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, so'nggi paytlarda jahon miqyosida urbanizatsiya jarayonlarining kengayishi va chuqurlashuvi kuzatilmoqda. Agar 1960 yilda dunyo aholisining 33,9 foizini, 1970 yilda 37,4 foizini, 1980 yilda 45,8 foizini shahar aholisini tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda bu ko'rsatkich 51,2 foizga yetdi. Masalan, Amerika qo'shma shtatlari, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Shvetsiyada jami aholisning 75 foizini, Germaniyada esa 94 foizini shahar aholisi tashkil etgan bo'lsa, Rossiyada bu ko'rsatkich 73 foizga teng bo'lgan³⁵.

Ma'lumki urbanizatsiya va shunga bog'liq migratsiya jarayonlari an'anaviy ijtimoiy munosabatlar tizimi, kishilarning tarixiy shakllangan turmush tarzi, oilaviy-maishiy hayoti, milliy psixologik qiyofasi va xatto ta'lim tarbiya tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, an'anaviy xalq tarbiyasida bolalarga mehnat tarbiyasini berish muhim o'rin tutgan. Urbanizatsiya sharoitida esa bolalarni mehnat bilan mashg'ul qilish va unga o'rgatish imkoniyati juda chegaralangan.

³⁵ Demidenko E.S. Demograficheskiye problemi i perspektivi bolshix gorodov: urbanizatsiya pri sotsializme. – Moskva: 1980. – S. 72. Urbanizatsiya i razvitiye gorodov v SSSR. – Leningrad: Nauka, 1985. – S. 234: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi – Toshkent O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 9-jild. – B. 115.

Ko'pincha shaharda yashovchi bolalar, ota-onalari ishga tketgach, ertadan kechgacha televizor qarshisida nazoratsiz qolib ketadilar. Bu ularning sog'lig'iga ham, tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Urbanizatsiya sharoitidagi yana bir jihat ijtimoiy nazoratning bo'shlig'idir. Bunday holda shaxsning individual mas'uliyati ortadi. Lekin, unda "qatyi orentatsiyalashgan ko'rsatmalar" bo'lmasa, "axloqsizlik va jinoyatchilikning yuzaga kelishiga" sharoit tug'diruvchi "ma'naviy bo'shliq" hosil bo'ladi³⁶.

Urbanizatsiya jarayoni maktablarning tarbiyaviy roliga ham ta'sir qiladi. Keyingi yillarda maktab va oilalar o'rtasidagi munosabatlar ham ko'pincha epizodik xarakter kasb etmoqda.

Ma'lumki, XX asrning oxiri – XXI asrning boshlarida jahon taraqqiyotida yangi umumdunyoviy tartib, davlatlar va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishi, xullas, jamiyat hayotining barcha sohaları iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat, hatto shaxsning turmush tarzini qamrab olgan globallashuv jarayoni bilan bog'lanmoqda.

Zamonaviy shahar sharoiti globallashuv³⁷ jarayonlarning tez o'sishiga imkoniyat yaratadi. Sababi, bunday shaharlarda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish sifati yuqori darajada. Jamiyatning turli vakillari aksariyat ommaviy axborot vositalari orqali o'zaro muloqotga kirishadilar.

Globallashuvning ijobiy tomonlarini ham inkor etmagan holda uning salbiy jihatlariga e'tibor qaratmoq lozim. Ana shunday salbiy jihatlaridan biri yosh avlod ongiga o'zga bir madaniyatni singdirishda ko'rinadi. Jumladan, g'arb turmush tarzini targ'ib qilish va g'arb dunyosiga xos dunyoqarashni singdirishga urunish bunga misoldir. 1914 yildayoq buyuk ma'rifatparvar Cho'lpon: "Ovro'paning mo'dasidan, shishasidan, buzuq axloqidan saqlaning. Ularga bul jihatdan taqlid etmang. Bular sizlarni xonavayron, bevatan asir, qul qiladur" – deb bejiz aytmagan edi.

Ayrim rivojlangan mamlakatlar sanoat mahsulotlari, axborot va mafkuraviy ta'sir ko'rsatish vositalari orqali keng ko'lamli geosiyosat yuritish bilangina cheklanib qolmay, o'z xalqining tabiati, madaniyati, mafkurasiga xos jihatlarini muntazam ravishda dunyo xalqlari turmush tarziga, ongu shuuriga, bir so'z bilan aytganda, ular hayotining barcha jabhalariga izchil singdirishga intilmoqda. Jumladan, sobiq sovet Ittifoqi barbod bo'lgandan keyin dunyodagi eng qudratli davlatga aylangan AQSH iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohada globallashuv jarayonining xarakatlantiruvchi kuchi va o'ziga xos sinov maydoni sifatida maydonga chiqdi. Parijdagi Siyosiy tadqiqotlar institutining professori A.Valladaoning fikricha, turli xalq va millatlar sintezi negizida shakllanadigan amerika jamiyatining madaniy qadriyatlari o'zga mamlakatlar qabul qilishi uchun oson kechadi. Ma'lum bo'lishicha, madaniy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha bozor sharoitga moslashuvchan yirik industriyaga ega bo'lgan ushbu davlat

³⁶ Xarchiyev A.G., Matskovskiy M.S. Sovremennaya semya i yeyo problemi. – Moskva: Statistika, 1978. – S. 7.

³⁷ Globallashuv atamasini dastlab amerikalik olim T. Levitt 1983 yilda muomalaga kiritgan.

hozirda turli mamlakatlarda namoyish etilayotgan kino hamda videofilmlarning to'rtidan uch qismini ishlab chiqarmoqda³⁸.

O'z madaniyatini boshqa xalq ongiga singdirishda omaviy axborot vositalari katta imkoniyatlar yaratadi. Bu hol, ayniqsa, endigina mustaqillikka erishgan mamlakatlar xalqining milliy o'zligi, madaniyatining vorisiyligi, an'analari hamda mentalitetiga putur yetkazishi turgan gap.

Madaniy globallashuv tarmoq otib, keng miqyosida rivojlanib borayotgani bois uning murakkab jihatlarini bugungi avlod zimmasiga katta-katta vazifalar yuklaydi. Globallashuv, eng avvalo, milliy mafkurani sinovdan o'tkazadi. Agar mafkuraviy immunitet susayib zaiflashsa, milliy g'oya globallashuv qurboniga aylanadi. Butun dunyo ma'naviyat tanazzuli avj olgan bir sharoitda jamiyatda axloqiy munosabatlarni saqlab qolish, zarur bo'lsa ixotalash lozim. Xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan muqaddas axloq qoidalarini yo'qotish fojeadir.

Ma'naviyat va iqtisodiyot bir - birini hech qachon inkor etmaydi, balki bir-birini o'zaro qo'llab - quvvatlaydi. «Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni - deydi I. A. Karimov, - ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini istaymiz. Siyosatimizni shunga qarata quramiz va uni to'la tadbqiq etamiz. Odamlarimiz omilkor, salohiyatli, halol va ijtimoiy maydonlarda sobit turadigan bo'lsinlar».³⁹

2. Mana shu boisdan milliy qadriyatlar evolyusiyasi bilan shahar taraqqiyoti va rivojlanish omillarining bog'liqligini aniqlab, bu boradagi umumiy xususiyatlarni keltirib o'tamiz:

a) shahardagi ijtimoiy nufuz, ya'ni aholi tarkibi, bir qarashda moddiy ishlab chiqarish va sanoat rivojini belgilasada, uning ma'naviy holatini ham belgilaydi;

b) shaharlardagi holat, ya'ni ko'p millatlilik elementining rivoji, ya'ni ijtimoiy guruhlar va ularning ijtimoiy aloqalari mazmunida milliy unsurlar bilan birga, baynalmillatlik omillarining rivojini ham ta'minlaydi;

v) shahardagi titul millat bo'lgan, tub joy xalqning o'z milliy qadriyatlariga bo'lgan, ijobiy munosabati boshqa millatlar turmush tarzidagi ijtimoiy aloqalarga ham o'z pozitiv ta'sirini o'tkazadi.

g) shahar muhitida ko'p dinlilik, konfessional holatning serqirraligi diniy qadriyatlarga munosabat mazmuniga ham bilvosita ta'sir ko'rsatadi;

d) shahar muhitida ko'p madaniyatlilik holatining mavjudligi, turli madaniy - estetik ta'sirlar ko'lamining kengayib borishi, milliy qadriyatlarga munosabatlar holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi;

ye) urbanizasiya jarayonlarga davlat tuzumi, iqtisodiy holatlar, turmush tarzi, mafkuraviy hamda madaniy - estetik muhit va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ham nafaqat tashqi omillarning muayyan subyektlarga ta'siri, balki subyektiv omillarning obyektga, ya'ni tabiiy ravishda yuz berayotgan obyektiv jarayonlarga ta'siri uyg'un tarzda amal qiladi.

Shu ma'noda shaharlar sharoitida milliy qadriyatlarning o'rnini aniqlash zaruriyati tug'iladi. Shahar muhiti qadriyatlar o'zgarishida ishlab chiqarish, fan va

³⁸ Baxodir Zokir. Globallashuv ziddiyatlari // tafakkur jurnali. 2004. №1. – B. 29.

³⁹ Karimov. I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent.: O'zbekiston, 1995. – B.198.

din omillarining o'rne hamda rolini kuchaytirishi tabiiydir. Ta'kidlash joizki, shaharlashish jarayonlari fan va din omillari raqobatini hamisha dolzarblashtirib turgan. Qadimdan O'rta Osiyo mutafakkirlari hech qaysi davrda fan bilan dinni bir - biridan ajratib urinmaganlar, balki ikkisidan ham barobar bahramand bo'lib kelganlar.

Shu boisdan ham Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalarning Xudo dunyoning asoschisi degan qarashlarini davom ettirgan, Mirzo Ulug'bek o'zining «To'rt ulus tarixi» asarida dunyoni Tangri taolo bunyod qilgan, odamni ham u yaratgan, degan g'oyani olg'a surgan⁴⁰.

130 yildan ortiq davr ichida dinga, fanga, uning yutuqlariga boshqacha nazar bilan qarab, dinlar bilan fanning bir - biriga zid bo'lgan, bir-birini mutloq istisno qiluvchi tomonlarini topib, fan bilan qadriyatlar o'zaro kurashda deb tushuntirishga urinib ko'rildi.

Mamlakatda demokratik jamiyat qurish tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston shaharlaridagi aholining turmush tarzida sobiq tuzumning nuqsonlari, o'zbo'larchilik, ma'muriy buyruqbozlik, poraxo'rlik, fohishabozlik, jinoyatchilik kabi illatlar milliy ravnaqimizga jiddiy to'sqinlik qiluvchi omillar sanaladi. Bu dolzarb muammoni ilmiy asoslar bilan, milliy qadriyatlarning barqarorlashuvi talablari doirasida tahlil qilib, ro'y - rost odil baholash shu kunning talabidir.

Bugungi kundagi mavjud ijtimoiy bo'hronlar oqibatida dunyoni xavfga solayotgan muammolardan jahondagi progressiv insoniyatni havotirga solayotgan atom urushi xavfi, terrorizm, ocharchilik, kambag'allik, fohishabozlik, SPID kasalligi, aholi sonining nihoyatda tez o'sib borishi, ekologik holatlarning buzilishi favqulodda ko'lam kasb etmoqda.

Bu muammolarning oldini olish yo'lidagi izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyoda ijtimoiy muvozanatni saqlash uchun shaharlar rolini ko'tarish, ularning ma'naviy va moddiy madaniyatini oshirish zarur. Shu o'rinda dunyoda ko'zga ko'ringan siyosatchilardan biri Kofi Annand quyidagi fikrni keltiradi: «Universal, ajralmas va o'zaro bir-biri bilan bog'langan inson va inson huquqlarigina bizni Homo Sapience (ongli inson) ga aylantiradi»⁴¹ deydi. Biz uning fikriga qo'shilgan holda, inson bo'lish uchun ma'rifatparvar bo'lish kerak, degan tushunchaga keldik. Demak, jamiyatni kayta qurish jarayonlarida milliy qadriyatlar, ma'naviy - ma'rifiy madaniyatning o'ziga xos o'rne va vazifasi yanada dolzarblashib boradi.

Sobiq ittifoq tuzumi davrida urbanizasiya jarayonlari hamda milliy, diniy qadriyatlar kommunistik ideologiya nuqtai nazaridan talqin etilib kelinganligi, bu esa o'z navbatida ma'naviy madaniyatga jiddiy zararlar yetkazganligi ma'lumdir.

Zero, milliy qadriyatlarimiz bugungi kunga kelib, shaharlarning rivojlanish jarayonida milliy qadriyatlarni asrash, ma'naviyatni shakllantirish, hozirgi kunning ilmiy muammolari ichidagi eng dolzarb muammo ekanligini davrning o'zi ko'rsatib turibdi.

Yoshlarimiz milliy qadriyatlar bilan bir qatorda koinot sir-asrorlarigacha bo'lgan dunyoviy bilimlarni ham teran o'rganishlari tobora muhim ahamiyat kasb

⁴⁰ Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – Toshkent.: 1994. – B.5-22.

⁴¹ The Quo table KofiAnno Un. – NewYork., 1998. – P. 32.

etib bormoqda.

Shunday qilib, davlat nafaqat milliy qadriyat egalari, balki butun jamiyatdagi ma'naviyat sohasi mutasaddilari oldiga jamiyatning g'oyaviy yo'nalishlarini, ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy - ma'naviy tamoyillardan kelib chiqqan holda, demokratik tendensiyalar yo'lini ko'rsatib bermoqda.

Avvallari odamlar milliy qadriyatlar orqasidan ergashsa, jamiyat o'z an'analaridan kechyapti, fuqarolarning fikri, ongi o'zgarib, hayot normasi buzilib, sovet tuzumiga putur yetadi deb qo'rqishar edi. Shu sababdan aholi milliy qadriyatlardan, diniy e'tiqoddan ajratib, qadriyatlar cheklab, yakkalab qo'yilgan edi.

1985 yil 15 fevralda AQSH aholisining milliy qadriyatlariga munosabatni o'rganish bo'yicha «Tayms» jurnali sosiologik tadqiqotlar o'tkazgan. Bundan quyidagilarni aniqlash mumkin: 51 % amerikalik katolik cherkoviga ibodatga qatnashadi, 34 % esa bunga mutlaqo qatnashmaydi. Kaliforniyada esa 50% amerikalik aholi qaysidir dinga e'tiqod qiladi, amerikaliklarning deyarli yarmi hech qaysidin, cherkov bilan ishi yuk. Bundan tashqari yarmidan ko'proq aholi o'zini dindor deb hisoblaydi, ammo cherkovga doimiy qatnamaydi. Nyu - Yorkda esa 3% dan ko'proq yoshlar «Bibliya» da buyurilgan qoidalar haqida hech qanday narsa bilmaydi.⁴² Bu hammasi shundan guvohlik beradiki, insonlardagi dinga e'tiqod, ularning shaxsiy kamolotini anglatadi. Misol uchun, sosiolog V. A.Saprikin tavsifiga ko'ra: birinchidan, aholi kam yashaydigan punktlarda qishloq xo'jaligi ustuvor bo'lgan joylarda diniy e'tiqod kuchliroqdir;

ikkinchidan, yirik shaharlarda diniy e'tiqod darajasi sust bo'lib, fan, madaniyat, ta'limning dunyoviylikligi dinning turmush tarziga ta'sirini pasaytiradi;

uchinchidan, shaharlardagi industrial ishlab chiqarish, fan - texnika, faol ijtimoiy - siyosiy tajribalar diniy e'tiqod targ'ibotiga monelik qiladi⁴³. Zero, urbanizatsiyaning zaminini shaharlarda sanoatning o'sishi, madaniy va siyosiy funksiyalarning rivojlanishiga ham chuqur ta'sir etadi.

Bu fikrni G. M. Filist ham tasdiqlab quyidagicha izohlaydi:

«... Ijtimoiy nazorat ostida (qarindosh - urug', qo'ni - qo'shni ma'naviyati) o'zaro aloqalar vositasida inson shaxsiyati shakllanadi, undagi omillarga psixologik, aholishunoslik, madaniyatshunoslik asosida yondashilganda bu munosabatlarda pozitiv o'zgarishlar aniqlangan»⁴⁴. Bu holat milliy ma'naviyat zaminida shakllanayotgan shaxslarga, oila omili uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Ma'lumki, shaharlar nafaqat sanoat, balki ma'naviyat markazi bo'lib, uning kuch - qudratini qishloq bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Shunga ko'ra, shahar muhitida aholi ma'lum darajada tashqi ijtimoiy ta'sirlar og'ushida bo'ladi. Urbanizatsiya jarayonlarni tadqiq etgan tadqiqotchilar buni quyidagicha izohlaydilar, « - katta sanoat korxonalarida mehnat qiladigan murakkab va avtolashgan tizimda cheklangan darajadagi malaka va bilimlar taqozo etilib,

⁴² Konik V. Svoboda sovesti i yeye ljezashitniki. – Moskva: Molodaya gvardiya, 1986. – S.14.

⁴³ Saprikin V. A. Sotsialisticheskiy gorod i ateisticheskoye vospitaniye. – Moskva., 1989. – S.124.

⁴⁴ Filist G. I. Urbanizatsiya sektanstvo. – Moskva., 1989. – S.3.

shaxsning ijodkorligi darajasi susayadi»⁴⁵. Shahar sharoitida mehnat erkin bo'lsa, ishlab chikarish takomillashsa, sifat va samaradorlik ko'rsatkichlari bir - birini to'ldirsa, ishda tashabbuskorlik, mustaqillik, ma'suliyatli qaror qabul qila olish, doimiy va puxta harakat qilmoqlik, jamoa a'zolarining qiziqishini hisobga olish, o'z - o'zini nazorat qilish, har qanday holatga texnologik, avtomatik va tashkiliy o'zgarishlarga o'zini tayyorlash va o'zining tajribalarini boyitgan holda boshqalarga ham o'rgatish imkoniyatlari kengayadi.

Shu boisdan, XX asr oxiridagi sobiq ittifoq davridagi holatni o'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, og'ir sanoat korxonalarida mehnat qilgan ishchilar ko'pgina diniy bayramlar, rasm - rusumlarda qatnashmagan, buni zamon ham ko'tarmagan. Shu sababli din va diniy e'tiqod ko'rsatkichi tushib ketgan. Masalan, 1964 - 1984 yillar orasida qator slavyan shaharlarida o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, Minsk shahrida xristian diniga cho'qintirish 3 marta, Brestda - 5 marta, Mogilev oblastida - 4 marta pasayib ketgan⁴⁶.

Shunday qilib, sobiq ittifoq hududlarida yashovchi aholi qaysi millat, e'tiqod dinidan qat'iy nazar, ular o'z qadimiy an'analari, marosimlaridan sekin uzilib, o'z dinlaridan uzoqlashib borgan edilar. Bunday milliy e'tiqoddan qaytishga dinsizlanishga o'sha davr siyosatidagi quyidagi fikr asos edi. «Zamonaviy jamiyat hayotiga, shahar aholisiga tashlandik, eskirgan, unutilgan tarixdagi, o'z domiga tortuvchi, ovloqdagi girdob kerak emas. Din aholining savodxonligini va bilimdonligini, ma'naviy talab va ehtiyojlarini yo'qotadi. Qishloqdagiday mustaqillik va tabaqachilik munosabatlarini shaxsiyatlaridan patriarxal zamonlaridan qolgan «kasalliklardan» xoli etib, dehqonlarning shaxsiyatida ham fuqarolik xususiyatlarini ko'tarmoq lozim»⁴⁷. Sobiq imperiyaning barbod bo'lishiga asosiy sabablardan biri e'tiqodsizlik tashviqotining kuchayishi, dinsizlik, ya'ni dahriylikning oshib borishi bo'ldi, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Milliy qadriyatlarining o'zgarishi jarayonlariga aholining demografik tarkibi turli millatlarning soni, millatlararo munosabatlar ham ta'sir etadi.

O'zbekistonda 1926 - 1959 yillar orasida 62.1% o'zbeklar, 37.9% boshqa millat vakillari yashagan. 1959 - 1989 yillar orasida 1.090 mingdan 1989 yil 1.652 minggacha (66%) ko'paydi. Shu davr ichida o'zbeklarning soni 6.015 mingdan 16.655 minggacha, ya'ni 27,5 % ga ko'paydi. Demak, o'zbeklarning soni ruslarning soniga nisbatan besh barobarga ko'proq o'sdi. 1897 yillarda O'zbekiston xududida 70 millat va elat, 1926 yilda 91 millat, 1959 yilda 113 millat, 1989 yilda 123 millat va elat, yashagan bo'lsa, hozirda esa 136 millat va elat vakillari yashaydi⁴⁸.

Shu ma'noda I. Karimovning quyidagi fikri ibratlidir: «Biz quradigan jamiyat O'zbekiston xalqining munosib turmushini, xuquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz kayta tiklanishini, insonning ma'naviy - axloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak»⁴⁹. Zotan, mamlakatimizda demokratik

⁴⁵ Voronsov G.V., Andrianov N.A. Ateisticheskoye vospitaniye lichnosti. – L.: 1987. – S.28.

⁴⁶ Filist T. Urbanizatsiya i sektanstvo. – Moskva., 1989. – S.34.

⁴⁷ Saprikin V.A. Urbanizatsiya. Ateizm. Religiya. – Moskva., 1989. – S.89.

⁴⁸ Xonazarov U.X. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. – Toshkent., 2001. – B.37.

⁴⁹ Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – B.35.

jarayonlarning omillarini, mohiyatini bilish, demokratiyaning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zaro uyg'un tarzda shakllantirish zarur. Bu esa jamiyatda yashayotgan fuqarolarda bugungi kun talabiga javob beradigan dunyoqarash, fikrlar xilma - xilligi, erkinligini qadrlash, inson qadr - qimmat, sha'ni va or - nomusini hurmatlash bilan bog'liq qadriyatlarni shakllantirib, Vatanni sevmolikni, shu el - yurt, xalq uchun fidokor bo'lishni taqozo etadi. Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqish yildan - yilga o'sib bormoqda.

Ma'naviyatda hamma narsadan oldin madaniy kamolatga intilish shaklini, shaxsiy turmushni vujudga keltirish talab etiladi. Bizning fikrimizcha, inson uchun ma'naviy madaniyatni shakllantirish manbai, bu unumli mehnatdan keyin mazmunli dam olishdir. Moddiy va ma'naviy manfaatdorlik oshsagina, inson madaniy hayoti o'zgaradi, kun sayin shaxsiy turmushida uning talab-ehtiyojlari o'sib, turmush darajasi ko'tariladi.

XX asr oxirida sosiologik so'rovlar olib borgan Z. A. Yankov, I. Y. Rodzinskaya o'zlari o'tkazgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib quyidagicha xulosa chiqaradilar: shaharda yashovchi ishchining turmush darajasi, ularga to'lanadigan oylik maosh o'rtacha yashash darajasi uchun yetmasa ham qishloqda yashovchi dehqonlarnikidan yuqori⁵⁰. Oylik ish xaqi katta bo'lishiga qaramasdan uy-joy kommunal xizmatiga to'lanadigan, gaz, elektr va boshqa to'lovlar; shu bilan birga sartarosh, chevarga, dam olish maskanlari yoki sanatoriya, turistik va ekskursiyalarga to'lanadigan harajatlarga o'rtacha oylik maoshi yetmasligi tabiiy hol.

Urbanizatsiya ta'sirida tobora rivojlanib borayotgan shaharlar ijtimoiy axloq qoidalarining mazmunida intellektual hamda iqtisodiy omillar ta'siri tobora kuchliroq seziladi. Shu o'rinda ommaviy axborot vositalarining rolini ham alohida qayd etish joizdir. Sosiolog B. F. Kusev fikriga ko'ra: "Ko'pchilik ko'p kavatli uylarda yashovchilar, madaniy dam olishni, o'z kuch - quvvatini tiklashni ham ommaviy texnika vositalarining rovida deb tushunadigan bo'lib qolganlar". Bundan tashqari, u yana shunday yozadi: "Eng o'ziga kerakli yangiliklarni, o'zi mustaqil, o'z bo'sh vaqtidan foydalanib, ilmiy - texnik, ijtimoiy - siyosiy, madaniy xabarlar, axborotlarni o'z kvartirasidan chiqmasdan oladi. Shunday holatda, zamonaviy uylar, asosan turli ijodiy faoliyatga xizmat etuvchi maydonga aylanadi. Bu uylar shahardagi boshqa uylardan alohida ajralib turgan va keng tarqalgan mustaqil ma'lumot oluvchi, texnik va badiiy ijodiyot bilan mustaqil qiziquvchilar klubiga o'xshaydi"⁵¹.

Zotan, ishlab chiqarish, fan hamda sanoatning rivoji shahar ma'naviyati, madaniy hayoti yuksalishi uchun o'lchov bo'lib, shahar turmush tarzini qayta o'zgartirib, fikrlash turmush tarzini va ijtimoiy holatlarni o'zgartirishga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Ta'kidlash joizki, sobiq tuzum turmush tarzida, kommunistik mafkura qarashlari va siyosatlarida, jamiyatda yashovchi shaxsning "e'tiqodsizlik" ruhda

⁵⁰ Yankov Z.A., Rodzinskaya I.Y. Problemi bolshogo goroda / Opit sotsiolo. issled. – Moskva.: Nauka, 1982. – S.16.

⁵¹ Gorod: problemi sotsialnogo razvitiya. / Pod red. A. V. Dmitriyeva i M. I. Mejevicha. – L.: Nauka. 1982. – S.82.

tarbiyalash, u jamiyatning oliy maqsadi bo'lib, urbanizasiya muhitda bu tendensiya ayniqsa, oshkora namoyon bo'lgan edi.

Urbanizasiya jarayonlarida milliy g'oya va istiqlol mafkurasining o'rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi. Millat manfaatlariga xizmat qiluvchi mafkura urbanizasiya jarayonlarning ma'naviyatdan uzilib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Prezident Islom Karimov ta'kidlagani kabi: "o'zining hayotini, oldiga qo'yan maqsadlarini aniq, tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. Mafkura bo'lmasa, har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar"⁵².

Mustaqillik yillarida shaharlarning o'sishi va ijtimoiy nufuzining ortishiga aholi ongiga milliy qadriyatlarning ta'siri, milliy qadriyatlarning rivojiga yaratilgan imkoniyatlar va shart - sharoitlar, milliy qadriyatlarning mohiyati, xususiyatlari, shahar aholisining ma'naviy, ma'rifiy-madaniy darajasini o'sishi borasida amalga oshirilayotgan faoliyatlardan iboratdir.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotidagi ma'naviy hayot qadriyatlar ishlab chikarish, ularni tarixiy rivojlanishi va moddiy farovonlashuv jarayonlari bilan aloqadorlik asosida shakllanadi. Qadriyatlar diniy e'tiqod hodisasi bilan uyg'un amal qilib kelganligi ma'lumdir. Xususan, islom dinining yurtimizda amal qilinuvchi xanafiya mazhabi qadriyatlarimiz bilan mustahkam uyg'unlashgandir.

"Qadriyatlar - jamiyat qarashlarining yig'indisidek takomillashib, boyib, jamiyat talablari, qiziqishlari asosida mukammallashib, ma'naviy jihatdan rivojlanib boradi. Feodal jamiyat davridagiday hunarmandchilik va dehqonchilik avloddan - avlodga o'tib borganday islom dini hayot tarzimizga nasldan - naslga o'tib bormoqda"⁵³.

Demak, milliy qadriyatlar xalqning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotini o'zgartirish bilan bir vaqtda, xalqning ma'naviy bir butunligini ham ta'minlab kelgan. Ularda ishonch, e'tiqod ruhini shakllantirgan aholining turmush tarzi barqarorligini ta'minlangan. Zero, shahar aholisining tez o'sishi, zichligi, turmush tarzining barqarorligi odamlarda muayyan darajada hamkorlik darajasining yuqoriligi ma'naviyatning rivoji uchun zarur shart - sharoitlar yaratgan.

Mamlakatimiz tarixida milliy qadriyatlarning o'sishi uchun imkoniyatlar shahar ko'lamida kengroq bo'lishiga quyidagi sabablar asos bo'lgandir.

1. Shaharda yashash uchun qulaylik va imkoniyatlar ko'proqligi, xalq zich joylashganligi sababdan qadriyatlar tez va keng tarqalgan.

2. Shaharda yashovchilar mehnat qilish uchun kasb - korning ma'lum bir turi bilan shug'ullangan. Masalan, beshikchilik, do'ppichilik, kosibchilik, tikuvchilik, duradgorlik, oshpazlik, ko'ndichilik yoki shunga o'xshash.

3. Shaharlarda masjid va madrasalar, maktablar ko'p bo'lganligi uchun ma'rifat, ma'naviyat qishloqlarga nisbatan tez o'sib borgan.

Shaharning o'ziga xos yana bir jihati, shahar atrofida joylashgan qishloqlarni o'z ortidan ergashtirib borishi xususiyatidir. Ayni shu jihat bilan shaharlar

⁵² Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent.: «O'zbekiston», 2000. – B.5-6.

⁵³ Suxov A. D. Filosoficheskiye problema priosxojdeniya relegiY.– Moskva.: Nauka, 1967. – S.83.

o'zining madaniy transformasiya vazifasini bajaradi. Mazkur transformasiya hodisasi asosan, madaniylashgan turmush tarzini kuchaytirish shaklida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda YUNESKO sobiq bosh direktori Federiko Mayorning "Demokratiya boshdan kechirilgan to'liq o'zaro kelishuvga, mas'uliyatga asoslangandagina yashaydi. Bunda demokratiya olinadigan foyda yoki ko'riladigan zararga bog'liq bo'lmaydi. Demokratiya - fakatgina saylovlar prosedurasi yoki boshqarish shakli emas, balki turmush tarzi hamdir"⁵⁴, degan fikri asoslidir.

Xulosa shuki, Sharqda, xususan, O'zbekistonda ma'naviy - madaniy jarayonlarni o'rganish, umumiy qonuniyatlar va o'ziga xos tendensiyalar asosida borganligi, shaharlarimiz qiyofasida alohida xususiyatlar shakllanganligini ko'rsatadi. Madaniylashgan turmush tarzi transformasiyasi so'nggi yillarda yurtimizning barqaror rivojlanishi ta'sirida yanada intensivlashmokda. Shuning uchun ham olib borilayotgan ishlardan keyin milliy - ma'naviy madaniyatning rivoji sezilmokda.

Shaharlar kengaydi, aholi soni o'sdi, sanoatlashgan shaharlar ko'paydi. Turli obodonlashtirish ishlari olib borilib, ilgari mavjud bo'lmagan yangi shart - sharoitlar yaratildiki, natijada insonlarning ijtimoiy tashabbuskorligi, siyosiy qarashlari hayotga bo'lgan pozitiv yondashuvlari kengaydi.

Atamalar va asosiy tushunchalar:

Urbanizasiya – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy jihatlaridan murakkab hodisa kompleks bo'lib, o'zida insoniyat hayotining turli jabhalarini mujassamlashtirganligi uchun universal xarakterga ega. Bu jarayon shunchaki, oddiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning statik, mexanistik yig'indisi emas, aksincha, urbanizasiyaning mazmuni dinamik va dialektik o'zgaruvchidir.

Shaharsozlik – shahar qurish, memorchilikning yirik sohasi, aholi yashaydigan hududlar (turar joylar)ni loyiha asosida rejalashtirish.

Shaharlarda milliy qadriyatlarning transformasiyasi – shaharlashish jarayonida ma'lum bir elat, xalq yoki millatga tegishli milliy an'analari, urf-odatlar, marosimlarining o'zgarishi yoki yo'qolib ketishi

Madaniyatlar migrasiyasi – ma'lum bir elat, xalq yoki millat bir joydan boshqa joyga ko'chishi oqibatida madaniyatning ko'chishi

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Urbanizasiya nima?
2. Hozirgi shaharlarda milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi haqida nimalar bilasiz?
3. Milliy qadriyatlarning transformasiyasi haqida nimalar bilasiz?
4. Milliy qadriyatlar va ular haqida nima bilasiz?
5. Umuminsoniy qadriyatlar haqida gapirib bering?
6. O'zbekistonda qadriyatlarni qayta tiklanishi jarayoni haqida gapiring?

⁵⁴ Mustaqil O'zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. – Toshkent: Sharq, 2000. – B.23.

6-MAVZU: TARIXIY XOTIRA – XALQ MA’NAVIYATINING ASOSI

Ma’ruza rejasi:

1. *Mustaqillik davrida tarixiy xotirani tiklanishi.*
2. *Tarixiy siymolarimiz ma’naviyatimiz ko‘zgusi sifatida.*
3. *Tarixiy xotirasiz – kelajak yo‘q.*

Mavzuning maqsadi: *Talabalarda Mustaqillik yillarda tarixiy xotirani tiklanishi, shu jumladan o‘tmishda o‘tgan buyuk ota-bobolarimiz haqidagi haqiqatni anglash, ularda ajdodlar merosiga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish.*

1. Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o‘z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma’naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. YA’ni, tarixiy xotira tuyg‘usi to‘laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o‘tgan yo‘l o‘zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo‘qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o‘rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo‘ladi.

Jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlarimiz tarixini bilish, milliy axloqiy qadriyatlari hamda an‘analar va muqaddas dinimizning o‘rni va ahamiyati katta. Biron bir xalq o‘z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma’naviy merosga tayanmay va uni rivojlantirmay turib kelajagini tasavvur eta olmaydi. Zero milliy “o‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi”⁵⁵. Isbottalab bo‘lmagan ushbu haqiqat mustaqillik yillarida davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu bois, mustabid tuzum davrida soxtalashtirilgan xalqimiz tarixini xolisona, haqqoniy yoritish, barcha o‘quv maskanlarida Vatan tarixini o‘qitish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi. 1996 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va Jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida “O‘zbekistonning yangi tarixi markazi” tashkil etildi.

O‘zbek halqi va o‘zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini haqqoniy ilmiy asosda yoritish vazifalari Prezident I.A. Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998 yil iyun oyida bo‘lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyulda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori belgilab berilgan⁵⁶. Ma’naviy hayotning ajralmas qismi bo‘lgan tarixga yangicha ko‘z bilan, xolisona, ilmiy jihatdan hech bir mafkuraviy aqidasiz yondoshish imkoniyati paydo bo‘ldi. Ilgari sovet mafkurasiga xizmat qilgan tarix fani oldiga o‘zbek xalqining tarixiy xotirasini tiklash, haqqoniy tarixini yaratish vazifasi qo‘yildi. “Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o‘zlikni anglashni, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy

⁵⁵ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz – kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 5.

⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risidagi qarori // O‘zbekiston ovozi. 1998 yil 28 yil. Yana qarang: O‘zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiyasi // O‘zbekiston tarixi. – Toshkent, 1999. – № 1. – B. 31.

iftixorni tiklash va o‘stirish jaryonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi” – deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov⁵⁷.

Mazkur jarayonda O‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganish, uni xolisona tahlil etish muhim omillardan biri hisoblanadi. “...o‘zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi... davlatchiligimizni ilmiy nuqtai – nazardan asoslangan tarixini yaratishdir”⁵⁸.

Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o‘rganish masalalari partiyaviylik, sinfiylik yondashuvlardan, hukmron kommunistik mafkura ta’siridan halos etildi. Necha 10 yillar davomida buzib ko‘rsatilgan yoki so‘zsiz yuritilmay kelgan tarixiy voqealarni xolislik, tarixiylik, haqqoniylik tamoyillari asosida yuritilgan qator ilmiy asarlar, darsliklar va o‘quv adabiyotlari yaratildi.

Qariyb uch ming yillik tarixga ega o‘zbek davlatchiligi o‘zining butun taraqqiyoti davomida yuksalish va inqirozli davrlarni boshidan kechirdi. Qadimgi davrlarda O‘zbekiston hududida yuzaga kelgan Xorazm, Baqtriya, Parfiya, Farg‘ona davlatlarida o‘zbek davlatchiligi asoslari va an‘analari shakllana boshlandi. Ular Markaziy Osiyo xalqlari siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan Kushonlar, Eftaliylar, Ashinaliylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar, Anushteginiylar sulolalari vakillari tomonidan yanada rivojlantirildi va yangi tarixiy tajriba bilan boyitildi. O‘zbek davlatchiligi Amir Temur davrida sifat jihatdan eng yuqori bosqichga ko‘tarildi. Juda katta hududlarni birlashtirgan markazlashgan davlatni tuzishga muvaffaq bo‘lgan va hukmdorning kuchini adolat asosida yuritiladigan siyosatda deb bilgan Amir Temur davrida markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi takomillashtirildi, iqtisodiy hayotni jonlantirish borasida davlatning roli oshib bordi, soliqlarni undirish va aholini ijtimoiy himoyalash borasidagi tadbirlar takomillashtirildi. Biroq, bu jarayon Amir Temur va uning avlodlari – Temuriylardan so‘ng O‘rta Osiyo siyosiy hayoti sahnasiga kelgan turli sulola va davlatlar tomonidan ijodiy rivojlantirilmadi. Natijada XVIII – XIX asr birinchi yarmida davlatchilikning turli elementlari – ma’muriy boshqaruv tizimi, soliqlar tizimi, qo‘shin, davlatning iqtisodiy hayot borasidagi siyosati, aholining ijtimoiy himoyasi davr talablariga javob bera olmay qoldi.

Amir Temur yubileyi munosabati bilan Samarqand va Shahrisabzda o‘nlab tarixiy obidalar ta’mirlanib qayta tiklanib, yangi inshootlar bunyod etildi. Samarqand va Shahrisabz shaharlari markazlarida ko‘rkam Amir Temur maydonlari barpo qilindi va ulug‘vor haykallar o‘rnatildi. Shuningdek, bu shaharlarga “Amir Temur ordeni” ham topshirildi.

1997 yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 1999 yilda buyuk vatanparvar siymo Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi nishonlangan. 2002 yilda Termiz shahrining 2500 yilligi nishonlandi.

Vatanimiz ozodligi yo‘lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, CHo‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq ziyolilari nomi, hurmati o‘z joyiga qo‘yildi, asarlari nashr etildi. O‘zbek xalqining ana shunday ming-minglab fidoyi va matonatli

⁵⁷ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – B. 140.

⁵⁸ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 12.

o'g'il-qizlarining xotirasini eslash, haqiqat va adolatni tiklash, zamondoshlarimiz, xususan, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbi va ongidayotganlar xotirasiga hurmat va ehtirom tuyg'usini tarbiyalash istiqlolimiz tufayli davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy va mafkuraviy masala bo'lib qoldi. Prezident farmoni bilan qatag'on qurbonlarini yod etish kuni har yili 31 avgust kuni Mustaqillik bayrami arafasida nishonlanadi. Bu ham bejiz emas, chunki orqamizga bir nazar tashlab tarixiy xotiradan saboq olib oldinga intilamiz. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasi abadiylashtirish maqsadida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi bunyod etildi. Mazkur majmua qoshida "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi qurilib, 2002 yil 27 avgust kuni foydalanishga topshirildi.

Biz bu masalaga ana shunday ilmiy asosda yondashib, qadimiy tariximizni o'rganish va baho berishda uning biror-bir davri yoki jabhasini e'tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qildik. Jumladan, mustamlakachilik va sovet davridagi ommaviy qatag'onlar paytida zulm va zo'rovonlik qurboni bo'lgan, istiqlol yo'lida jon fido etgan ajdodlarimizning hurmati va xotirasini joyiga qo'yish, ularning el-yurt ozodligi yo'lidagi ishlari, qoldirgan merosini izlash va o'rganishni aynan ana shunday ma'naviy negizda yo'lgan qo'yganimizni qayd etish zarur.

Ma'lumki, 1937-1953 yillarda sobiq SSSR hududida mudhish ommaviy siyosiy qatag'onlar amalga oshirilgan edi. Uning salbiy oqibatlarini o'zimizga tasavvur etish uchun birgina O'zbekiston bo'yicha qariyb 100 ming kishi qatag'onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlanganini eslash kifoya⁵⁹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 1 mayda qabul qilgan "Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida"gi farmonida shunday deyilgan: "El-yurtimiz ozodligi va erkinligi yo'lida, xalqimizning qadr-qimmatini, or-nomusini, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizni himoya qilishda, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda qurbon bo'lganlar xotirasi minnatdor avlodlar yodida abadiy saqlanib qoladi.

Mustabid tuzum davrida million-millionlab begunoh insonlarning umri xazon bo'lganini, qancha-qancha oilalar xonavayron bo'lib, qancha-qancha go'daklar yetim qolganini tarix, bugungi va kelajak avlod hech qachon unutmaydi"⁶⁰.

Ma'lumki, sobiq SSSR davrida 9 may har yili G'alaba kuni sifatida bayram qilinardi, Markazda va respublikalarda dabdabali harbiy paradlar o'tkazalar edi. Biz mazkur sananing asl insoniy ma'no-mohiyati hamda jamoatchiligimizning bu boradagi taklif va mulohazalarini inobatga olgan holda, 9 may kunini mamlakatimizda Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlashga qaror qildik. Bu voqea, hech shubhasiz, yurtimizda tarixiy xotirani to'laqonli tiklash yo'lida hayotning o'zi taqozo etgan yana bir jiddiy qadam bo'lganini aytish lozim. Shu munosabat bilan poytaxtimizda, viloyat va tumanlarda sovet mafkurasini o'zida ifoda etgan eski yodgorliklari o'rniga xalqimizning ruhi va qarashlariga hamohang bo'lgan Xotira maydonlari tashkil etilib, Motamsaro ona haykali o'rnatildi.

⁵⁹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 97-98.

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida"gi 2001 yil 1 mayda qabul qilgan farmoni // Xalq so'zi. 2001 yil. 2 may.

Ana shu maydonlarda barpo etilgan yodgorlik majmualarida Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan yurtdoshlarimizning nomlari maxsus ishlangan lavhalarga zarhal bilan yozib qo'yilgani, ular haqidagi ma'lumotlar jamlangan 35 jilddan iborat "Xotira" kitobi chop etilgani, aytish mumkinki, mamlakatimiz tarixida ibratli voqea bo'ldi⁶¹.

Prezident Islom Karimov fikricha: "Tarixni unutgan xalq, jamiyat o'z yo'lini yo'qotadi. Bunday xalq va jamiyatning kelajagi yo'q"⁶².

Istiqlol tufayli milliy madaniyatimiz, jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk bobolarimizning ma'naviy merosi qaytadan o'rganildi va tiklandi. Xalqimiz ulardan bahramand bo'la boshladi.

2. Mustaqillik yillarida xalqimiz ma'naviyati yulduzlari bo'lgan buyuk allomalarimizning tavallud topgan tarixiy sanalari YUNESKO bilan hamkorlikda mamlakatimizda va xalqaro miqyosda keng nishonlandi:

№	Buyuk alloma, qadimiy asarlar va shaharlar	Tavalludi	Yubiley o'tkazilgan shahar	sana
1	Alisher Navoiy	550 yilligi	Toshkent	1991 y
2	Boborahim Mashrab	350 yilligi	Namangan	1992 y
3	Najmiddin Kubro	850 yilligi	O'zbekiston	1993 y
4	Baxouddin Naqshbandiy	675 yilligi	O'zbekiston	1993 y
5	Zahiriddin Muhammad Bobur	510 yilligi	O'zbekiston	1993 y
6	Mirzo Ulug'bek	600 yilligi	Toshkent	1994 y
7	Maxmud Zamaxshariy	920 yilligi	O'zbekiston	1995 y
8	Imom at-Termiziy	1200 yilligi	Termiz	1995 y
9	Amir Temur	660 yilligi	O'zbekiston, Fransiya	1996 y
10	Xiva	2500 yilligi	Xorazm	1997 y
11	Buxoro	2500 yilligi	Buxoro	1997 y
12	Abdulhamid CHO'lpon	100 yilligi	Toshkent, Andijon	1997 y
13	Ahmad al-Farg'oniy	1200 yilligi	Farg'ona	1998 y
14	Jaloliddin Manguberdi	800 yilligi	Xorazm	1999 y
15	Ogahiy	190 yilligi	Xorazm	1999 y
16	Ajiniyoz Qosiboy o'g'li	175 yilligi	Nukus	1999 y
17	"Alpomish" dostoni	1000 yilligi	Termiz	1999 y
18	Burxoniddin Marg'iloniy	1200 yilligi	O'zbekiston	2000 y

⁶¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 100.

⁶² Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir – Toshkent: "O'zbekiston", 2015. – B. 109.

19	Abu Mansur Moturidiy	1130 yilligi	O'zbekiston	2000 y
20	Kamoliddin Bexzod	545 yilligi	O'zbekiston	2000 y
21	“Avesto” kitobi	2700 yilligi	Xorazm	2001 y
22	Alisher Navoiy	560 yilligi	O'zbekiston	2001 y
23	Termiz	2500 yilligi	Termiz	2002 y
24	Shaxrisabz	2700 yilligi	Shaxrisabz	2002 y
25	Abduxoliq G'ujdujoniy	900 yilligi	O'zbekiston	2003 y
26				2004 y
27				2005 y
28				2006 y
29	Marg'ilon	2000 yilligi	Toshkent, Marg'ilon	2007 y
30				2008 y
31				2009 y
32	Toshkent	2200 yilligi	Toshkent	2010 y
33				2011

3. Prezident Islom Karimov 1998 yil tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvdagi suhbatini *“Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”*, deb nomlandi. Asarda tarix fanining millat, xalq, mamlakat taqdiridagi o‘rni, mohiyatiga yangicha nazar tashlandi, uning taraqqiyot yo‘llari belgilab berildi. Suhbat boshida mustaqillik yillari xalqimizning o‘z tarixiga qiziqishi ortib borayotgan, O‘zbekiston esa umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini jahon tan olgani ta’kidlab o‘tildi. Asarda bu yurtidan buyuk olimlar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan, diniy va dunyoviy bilim asoslari ana shu zaminda yaratilganligi bayon etildi.

Suhbatda tariximizni o‘rganishda yaxlit konsepsiya yo‘qligi tanqid qilindi. “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo‘lmagan bu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi zarur... Tarixiy xotirasi bor inson irodali insondir. Uni yo‘ldan urush mumkin emas” deyiladi.

Prezident Islom Karimov: “Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o‘zlikni anglashni, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi”, deb ta’kidlagan edi⁶³.

Milliy g‘oya o‘zlikni anglash, milliy o‘zlikni anglash va umumbashariy o‘zlikni anglashni uzviy bog‘liqlikda ko‘rishga da’vat etib, milliy va umuminsoniy mohiyat ham kasb etadi. Bu borada ma’rifatparvarlik g‘oyasi, jadid bobolarimizning faoliyati va ma’naviy merosi muhim o‘rin tutadi.

1. Abdulla Avloniy (1878-1934) o‘zining “Turkiy guliston yohud axloq”, “Maktab gulistoni”, “Adabiyot yohud milliy she’rlar”, “Birinchi muallim” asarlari

⁶³ Karimov I.A. Asarlar. T.6. – B. 127.

bilan o'zbek adabiyotiga, o'zbek milliy romanchilik maktabiga buyuk hissa qo'shgan adiblardan biridir.

2. Abdulla Qodiriy (1894-1938) o'zining "O'tgan kunlar" romani, "Ahvolimiz", "Millatimiz", "To'y" kabi she'rlarini, "Baxtsiz kuyov" pyesasini yozdi, "Obid ketmon" qissasi va boshqa asarlari bilan milliy rivojlanishga ulkan hissa qo'shgan buyuk yozuvchilardan biridir.

3. Abdurauf Fitrat (1886-1938) 1917-1918 yillarda "Xurriyat" gazetasiga muharrirlik qildi. "Yosh buxoroliklar" harakatining faol ishtirokchilaridan biri, "Shaytonning tangriga isyoni", "Qiyomat" kabi asarlari mavjud. U 1923-24 yillarda Moskva va Leningradda yashadi. O'zbek tilining qoidalari to'g'risida "Sarf", "Nahv" asarlarini yozdi. Musiqashunos olim sifatida "Shashmaqom", "O'zbek klassik musiqasi ham uning tarixi", "Sharq musiqasi" kabi tadqiqotlari mavjud.

4. Abdulvohid Burhonov - Munzim (1875-1934) "Yosh buxoroliklar" partiyasini tuzib, unga raislik qildi, ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qildi.

5. Abdulhamid CHO'lpon (1897-1938) "Kecha va kunduz" romani bilan o'zbek romanchiligiga katta ta'sir ko'rsatdi.

6. Ashurali Zohiriy (1885-1937) rus-tuzem, jadid maktablarida o'zbek tili va adabiyotidan dars berdi, Farg'ona davlat pedagogika institutini tashkil etdi, Qo'qonda birinchi dorilfunun tashkilotchisi edi.

7. Abduqodir Shakuriy (1875-1943) Samarqand gimnaziyasini qurgan, o'qituvchilik qilgan va "Savod chiqarish qo'llanmasi" kabi bir qancha darsliklar yozib qoldirgan.

8. Boboxxun Salimov (1874-1929) islom g'oyalari asosida yangilikka intildi. Xorazm (Gurlan)da shariatda tenglikka erishishga, xon amaldorlarining huquqlari bilan o'sib kelayotgan savdogarlar va sanoatchilar, hunarmandlar va ziyolilar huquqlarini tenglashtirishga intildi. Sobiq ittifoq hukumati tomonidan sudsiz otib tashlandi.

9. Isxoqxon To'ra Ibrat (1862-1937)ning tarixshunoslikka oid "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat" va "Mezon uz-zamon" asarlari bor. Ma'rifat tarqatib, pedagoglik qilgan.

10. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) 1911 yili "Padarkush" dramasini yaratdi. U yangi usuldagi maktablarning ilk targ'ibotchisi va asoschilaridan biridir.

11. Munavvar Qori Abdurashidxonov (1878-1931) "Jamiyati xayriya" uyushmasini tuzadi, "Turon" nomli jamiyatni ochdi. "Turk o'chog'i" ilmiy-ma'rifiy jamiyatini tashkil qildi. "Milliy ittihad" va "Milliy istiqlol" yashirin tashkilotlariga rahbarlik qilgan.

12. Muso Saidjonov (1893-1937) "Yosh buxoroliklar" partiyasi tashkilotchilaridan biri. O'zbek milliy ziyolilarining namoyondasi edi.

13. Muhammadsharif So'fizoda (1869-1937) "Chustiylar bizlar" she'rini yozdi. Chustda jadid maktabini ochadi.

14. Obidjon Mahmudov. 1936 yili vafot etgan.

15. Polvonniyoz Hoji Yusupov (1863-1936).

16. Saidahmadxo'ja Siddiqiy - Ajziy (1864-1927).

17. Saidnosir Mirjalilov (1884-1937).

18. To‘lagan Xo‘jamyorov - Tavallo (1882-1937).
19. Ubaydulla Xo‘jayev (1880-1938).
20. Fayzulla Xo‘jayev (1896-1937) kabi buyuk ma‘rifatparvar zotlar milliy istiqlol g‘oyasiga katta hissa qo‘shganlardandir.

Milliy madaniyat, til va tarixdan begonalashishning zararli oqibatlarini. Chor Rossiyasi, so‘ng kizil Imperiya davrida ko‘plab madaniyat durdonalari yo‘q qilindi, dinimiz, tilimizdan begonalashtirishga harakat qilindi. Madaniyatimiz durdonalaridan ozuqa olishga yo‘l qo‘yilmadi. “Milliylik”, “milliy g‘urur” so‘zlarini tilga olib bo‘lmasdi. Tarixiy xotirani zo‘r berib yo‘q qilishga, xalqni manqurtlashtirishga qaratilgan siyosat tufayli o‘zligimizni yo‘qotish darajasiga kelib qolgan edik.

Mustaqillik sharofati bilan “ajdodlarimiz tomonidan yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma‘naviy va madaniy meros tiklana boshlandi» va «xalqimiz o‘ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi»⁶⁴. Prezident Islom Karimov o‘zining 2005 yilda “o‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi” asarida bugungi milliy taraqqiyotimizning mazmun va mohiyatini milliy g‘oya asosida chuqur ko‘rsatib bera olgan⁶⁵.

Prezident Islom Karimovning bu o‘ta murakkab va dolzarb vazifani olimlar oldiga qo‘yishi haqqoniy tarix yaratilishi jarayonida xalqimiz, mamlakatimiz o‘tmishi haqida yot qarashlarga asoslangan aksari soxta, g‘ayriilmiy mulohazalarga o‘rin qoldirmaydi.

Tarixni ilmiy o‘rganish natijasida hozirgi O‘zbekiston zamini jahon sivilizasiyasining beshiklaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu qadimiy madaniyat o‘chog‘idan ko‘plab atoqli allomalar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Jahon sivilizasiyasining rivojida yurtimizning salmog‘i katta. Qadim zamonlarda qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha qimmatini yo‘qotmagan osori atiqalarimiz bu zaminda azaldan dehqonchilik, hunarmandchilik, me‘morchilik va shaharsozlik madaniyati yuksak bo‘lganidan dalolat beradi. Bunday katta madaniy merosga ega bo‘lgan xalqning kelajagi ham porloq bo‘lishi aniq.

Asarda necha ming yillik tariximizni o‘rganish masalasi qo‘yilar ekan, tabiatan o‘zbek bunyodkor xalq ekani, o‘troq holda yashagan, uning Beruniy, Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va Mirzo Bobur kabi ulug‘ zotlarga vorisligi isbotlab berilgan.

Buyuk mutafakkir Beruniy ta‘kidlaganidek, “o‘tmish kelajakning kalitidir”. Uni bilish imkoniga ega bo‘lish muhim. Mustaqillik tufayli xalqimiz tili, madaniyati, urf-odatlarini, an‘analari, qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘z tarixini bilish imkoniga ega bo‘ldi.

Tarixiy xotira qanchalik boy, mazmunli bo‘lsa, xalq shunchalik uyushgan, hamjihat, ulug‘vor ishlarni bajarishga qodir bo‘ladi. Tarixiy xotiraning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri o‘z o‘tmishidan faxrlanish tuyg‘usidir. Dunyoda hududi O‘zbekistondan bir necha marta katta bo‘lgan ba‘zi davlatlar ham, aholisi o‘troq

⁶⁴ Karimov I.A. Asarlar. T.6. – B.125.

⁶⁵ Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – B. 160.

bo'lib yashashni boshlagan moziyning azaliyligi, o'nlab shaharlarning tarixi 2500 yildan ortiqroq ekanligi bilan g'ururlana olmaydi.

Avgustin (ilohiyatchi): "G'aflatda yotgan xalqni uyg'otish uchun uning tarixini uyg'otmoq kerak", degan edi.

Chingiz Aytmatov: "O'z tarixini bilmagan xalq mannqurtga aylanadi" ("Manqurtlik" - o'zligini bilmaydigan insonga aylantirilishi, - xotira-sizlik). CH.Aytmatov "Asrga tatigulik kun" romanida sochini taqir qilib olingan, mannqurtlashtirilgan odam haqida hikoya qiladi. "Asrni qaritgan kun" ("Bo'ronli bekat") romani, Muxtor Shohonov bilan birga yozgan "Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori" nomli suhbatlarida manqurtlik, sadizm, "zombi"lik haqida hikoya qiladi. "Sadizm" - jinsiy buzuqlik, azob berib huzur qilish. "Zombi"da inson itoatgo'y qul-ijrochiga aylantiriladi.

Bunday misollarni Chingiz Aytmatovning "Iks zurriyat" asarlari misolida yoki polyak kinoijodkorlari tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, 2005 yili namoyish etilgan "Tabib" kinoasarlari orqali talabalarga tushuntirish mumkin. Shu boisdan ham Islom Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida "Bugungi kunning o'ziga xos yorqin xususiyatlaridan biri millatning o'zligini anglashdir", degan edi. "Lekin bizda tarix va falsafani uzviy bog'liq holda o'rganish malakasi yetarli emas. Aslida tarix va falsafa mantiqiy ravishda bir-birini taqozo etadigan, kerak bo'lsa, to'ldiradigan, taraqqiyot jarayonlari haqida yaxlit tasavvur beradigan, oq-qorani farqlashga asos bo'ladigan fanlardir".

Demak, xalqimizning tarixiy taraqqiyot yo'lini falsafiy idrok qilishda, hissiz bayonchilikdan, ilmiy sayozlik va fikriy cheklanganlik illatlaridan qutilmog'imiz kerak.

"Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida Vatanimiz tarixini mustaqillik g'oyalari asosida yangidan yaratish vazifasi qo'yilgan. Zero, millat, davlat, jamiyat taqdiri hal bo'layotgan pallada o'zligimizni anglash, ma'naviy ildizlarimizni unutmaslik katta ahamiyatga ega⁶⁶. Sobiq ittifoq davrida tariximiz ataylab soxtalashtirilganini e'tiborga olsak, asl tariximizni tiklash qonuniy zaruriyat hamdir. Tarixni anglash nafaqat bugungi kunning muammolarini hal qilishda, balki kelajak uchun ham katta ahamiyatga ega. Zotan, o'tmishni bilmay turib, hozirgi davr mohiyatini bilish va kelajakdagi maqsad-muddaolarni to'g'ri belgilash qiyin.

Haqqoniy tarixni bilmasdan, uni falsafiy tahlil qilmasdan o'zlikni anglash, yuksak madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatga erishish mumkin emas. Tarixiy haqiqatni tiklash uchun bizga meros sifatida yetib kelgan manbalarni jiddiy o'rganib, o'tmishga yangicha yondashishimiz darkor.

Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib, bugungi kutubxonalar xazinasida saqlanayotgan qo'lyozmalar sinchiklab o'rganishni kutib turibdi. "Biz, - degan edi Islom Karimov, - haqqoniy tariximizni tiklashimiz xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur". Asar haqqoniy tariximizni barpo etish uchun ko'p ming yillik boy o'tmishimizni tadqiq etishning sof ilmiy-nazariy izlanishlarga

⁶⁶ Nazarov Q., Ochildiye A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – B. 139-141.

asoslangan yaxlit konsepsiyasini va yangi dasturini aniqlab olishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi.

Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur.

Shuningdek, asarda mustaqillik sharoitida haqqoniy tariximizni yaratish uchun dastavval bu sohadagi muassasalar tarkibini va ish uslubini o'zgartirish, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi tarix fakultetlari va kafedralarining mavqeini oshirish, o'quvchilar va talabalar uchun yangi darsliklar yaratish dolzarb vazifa ekani ta'kidlangan.

Unda ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish masalalariga ham e'tibor berilgan. Nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan bu asar milliy istiqlol g'oyasining tarixiy ildizlarini o'rganishda dasturamal bo'lib xizmat qiladi.

Prezident Islom Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli ushbu asaridan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Mamlakatimiz kommunistik mafkura hukmronligi yillarida butun ma'naviyatimiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimiz toptalganligi, tariximiz, milliy davlatchilik tarixi buzib ko'rsatilganligi ta'kidlab o'tildi. Bu nuqson va qarashlarga mustaqillik yillarida aniq bir fikrga kelinmaganligi, milliy davlatchilik taraqqiyoti, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayoti atroflicha tahlil etilgan bironta jiddiy ilmiy tadqiqot yaratilmaganligi aytiladi.

2. Davlatchiligimi tub burilish pallasiga kirgan ayni bir paytda o'zimizning zamon va makondagi o'rnimizni aniq belgilab olishimiz, nasl-nasabimizni, kimligimizni bilishimiz kerak.

3. Komil inson tarbiyasi davlat siyosatining ustivor sohasi deb e'lon qilindi. Komil inson deganda biz, avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz.

4. Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qola oladigan yagona kuch – ma'rifatdir. Millatning madaniy saviyasi uning o'z tarixiga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi.

5. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Buni davlat siyosati darajasiga ko'tarish zarur va shunday bo'ldi ham.

6. Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi.

7. Ma'naviyat, ma'rifatni targ'ib qilish o'ar bir ziyolining vijdon ishidir. Har bir ziyoli fidoyi ma'rifatchi bo'lishi kerak.

8. Inson uchun tarixidan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir.

9. Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. Uni yo'ldan urish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi. Tarix qadimiydir. Xorazm davlati 2700 yilliy tarixga ega. Bundan 3 ming yil avval "Avesto" bizning zaminimizda yaratilgan.

10. Milliy birligimiz, madaniyatimiz ildizlari, tomiri o'troq bo'lgan. "O'zbek" degan nom Shayboniyxon davridan meros emas, balki qadimiy millat bo'lib shakllangan. O'zbek tom ma'noda bunyodkordir.

11. "Qur'oni karam"ni yod bilgan Amir Temurdek inson yovuz bo'lmagan. Qonxo'r odamning "Kuch - adolatda" deyishi mumkin emas. Prezident Islom Karimov Amir Temurning "Kuch - adolatda" degan g'oyasini rivojlantirib "Kuch - bilim va tafakkurda" g'oyasini o'rta tashladi.

12. Biz xalqni madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz.

13. O'zbek xalqining iligi to'q, baquvvat. Biz o'zbekligimizdan faxr va g'ururlanamiz.

14. Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz.

15. Tarix - xalq ma'naviyatining asosidir.

16. Biz Beruniylarga, Buxoriylarga, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Boburlarga vorismiz.

17. Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo'lmaydi. Chunki, mafkuraning falsafiy asoslari o'z davrida tarixiy haqiqat tufayli tug'ilgan. Tarix va falsafa mantiqiy ravishda bir-biri bilan uzviy bog'liq, uni o'rganish kerak. O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz kerak.

18. Fan - jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch va vositadir.

19. Izlanish, bahs, munozara bor joyda haqiqat yuzaga chiqadi.

20. Dovyurak, zamonaviy fikrlaydigan, xalqaro anjumanlarda bahslashadigan olimlar (yetishmaydi) zarur. Tarixchi mutaxassis kadrlarni tayyorlashni yaxshilash, tarixga ixtisoslashgan maktablar ochish lozim. Yosh iste'dodli olimlarni akademiklar safiga kiritish zarur. O'zR FAsining Tarix, Arxeologiya, Etnografiya institutlari faoliyatini takomillashtirish darkor. Oliy o'quv yurtlarida tarixchi mutaxassis olimlar faoliyatini tanqidiy nazoratdan o'tkazish lozim.

21. Har bir xalq o'z tarixini har xil ta'sir va tajovuzlardan asrashi kerak.

22. Haqqoniy tarixni bilmasdan, uni falsafiy tahlil qilmasdan turib, o'zlikni anglash mumkin emas. Biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur.

Umuman, Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasining 1996 yil dekabrda "O'zbekistonning yangi tarixini yaratish" va 1998 yil iyulidagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Respublika rahbariyatining Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi qoshida "O'zbekistonning yangi tarixi" Markazi tashkil qilindi. Shu asosda Markaz 3 jildlik "O'zbekistonning yangi tarixi"ni yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi 2006 yilda Respublika oliy o'quv yurtlariga talabalarni test asosida qabul qilishda ayrim yangiliklarni kiritishni lozim topdi. Xususan, iqtisodiyot, tabiiy va ijtimoiy yo'nalishlar bo'yicha test bloklariga tarix, davlat va huquq asoslari fanlaridan savollar kiritish Vatanimizning ming yillik tarixini va jamiyatimizda

ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni o'rganish hamda yoshlarda huquqiy madaniyatni rivojlantirish maqsadida, jaxon tajribasida iqtisodiy va tabiiy yo'nalish bo'yicha savollar berilishini e'tiborga olib, iqtisodiy va tabiiy yo'nalishlar bo'yicha test bloklariga tarix, davlat va xuquq asoslari fanini kiritdi.

Atamalar va asosiy tushunchalar:

Milliy meros – tarixiy taraqqiyotning o'tmishga aylangan bosqichida muayyan millatning ajdodlari aql-zakovati, qobiliyati va mehnati bilan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar majmuini ifodalovchi tushuncha.

Tarix – tabiat va jamiyatdagi har qanday o'zgarish va rivojlanish jarayonini ifodalovchi atama, insoniyat va uning hayoti, avlodlar almashuvi, sivilizasiyalar, jamiyat va davlatlar shakllanishi, o'tmishi va taraqqiyoti bilan bog'liq jarayonlarni o'rganuvchi fan.

Tarixiy xotira – Prezident Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni kishilar ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta namoyon bo'lishi, eslanishi, qadrlanishini ifodalovchi tushuncha.

“Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” – Prezident Islom Karimovning respublika tarixchi olimlari va jurnalistlariga qarata so'zlagan nutqi (1998 yil 26 iyun) o'z ifodasini topgan kitob. Unda mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari, tarixni bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortiq borayotgani ta'kidlanadi.

Tarixni anglash va qadrlash – yuksak ma'naviyat tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan, tarix saboqlarini, el–yurt kelajagi yo'lida umr kechirgan insonlar, buyuk allomalar faoliyatini anglash, xotirlash, ularga yuksak ehtirom ko'rsatish, shu tarixni yaratgan xalq sha'nini himoya qilish orqali bugungi kun va kelajagini qadrlashni ifodalovchi tushuncha.

Mavzu bo'yicha takrorlash uchun savollar

1. Tarixni o'rganish, uni xolis va ilmiy asosida tadqiq etish zarurati qanday?
2. Tarixni o'rganmay turib kelajakni qurib bo'lmasligi.
3. Yoshlar tarbiyasi va ayniqsa ma'naviyatini o'stirishda tarixning o'rni qanday?
4. Tarixda o'tgan ajdodlarimizning xalq ma'naviyatidagi xizmatlari qanday?
5. O'zbekistonda qadriyatlarni qayta tiklanishi jarayoni haqida gapiring?

7-MAVZU: O‘ZBEKISTONDA DINIY QADRIYATLARNI QAYTA TIKLANISHI

Ma’ruza rejasi:

1. *Diniy qadriyat tushunchasi*
2. *Mustaqillik yillarida diniy qadriyatlarga e’tibor va ularning tiklanishi.*
3. *Diniy bag‘rikenglik (tolerantlik): tarixiy va zamonaviy asoslari.*

Mavzuning maqsadi: *Talabalarda O‘zbekistonda diniy qadriyatlarni qayta tiklanishi jarayonini fakt va misollar bilan tushuntirib berish hamda diniy bag‘rikenglik (tolerantlik) goyalarini ilgari surish.*

1. Qadriyat shakllari orasida diniy qadriyatlar muayyan ahamiyat kasb etadi va o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Diniy qadriyatlar va ularning o‘ziga xosligi, avvalo, dinning mazmun-mohiyati, funksiyalari, jamiyat va inson hayotidagi o‘rni bilan belgilanadi. Bu o‘ziga xoslik mazkur qadriyatlarning ilohiylik bilan uzviy bog‘liqligida ham namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, “Diniy qadriyat” tushunchasi dinning o‘ziga qadriyat sifatida qarash, uni jamiyat hayotining tarkibiy qismi, muhim ijtimoiy funksiyalarni bajaradigan ma’naviy omil, inson e’tiqodini shakllantirish vositasi ekanligiga asoslanadi, ilohiy qadriyatlar tizimini ifodalaydi.

Ma’lumki, din ijtimoiy hayotni, voqelikni, uning hodisalarini o‘ziga xos tarzda in’ikos ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biridir. U dastlab inson hayotining ibtidoiy davrida vujudga kelgan va o’sha zamonda yashagan insonlarning dunyoqarashini ham aks ettirgan. Din dunyo, inson va boshqa mavjudotlarning yaralishi va kelib chiqishini, hayotning ma’no-mazmuni, insonning yashashdan ko‘zlangan maqsadi kabi masalalarga ilohiy nuqtai-nazardan javob beruvchi dunyoqarash shaklidir. U bugungi kunda ham shu vazifani ado etib kelmoqda.

Ayniqsa, ko‘p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma’nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo‘lib kelayotganini alohida ta’kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o‘ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo‘lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi⁶⁷.

Sobiq Ittifoq davrida dinga qarshi faoliyat rag‘batlantirilar edi. Bu boradagi “fan” ateizm deb nom oldi. O’sha davrda barcha oliy o‘quv yurtlari talabalari, xoh u gumanitar bo‘lsin, xoh tibbiyot yoki texnikaviy oliy dargohi bo‘lsin, “Ilmiy ateizm” degan fandan imtihon topshirishga majbur edi. Darslarda, ma’ruzalarda, asosan diniy qarashlarning puch, safsata ekanligi ta’kidlanar, dinlar tarixi ayovsiz tanqidga loyiq bo‘lgan adashishlar tarixi sifatida talqin qilinar edi. Mabodo gap qadimgi yoki o‘rta asr jamiyatlari haqida ketadigan bo‘lsa, osongina va qulayroq tarzda dinni turli udum, uydirma, marosim, diniy urf-odat va rivoyatlar yig‘indisi deb qarab, yuqori tabaqa manfaatini ko‘zlab, mehnatkash xalqni ezish quroli

⁶⁷ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 36.

o'rnida foydalanilgan, deb talqin qilinar edi⁶⁸. 1925 yilda sobiq Ittifoq davrida "Xudosizlar uyushmasi" tuzildi, uning a'zolari soni tez orada 3,5 mln. kishidan oshib ketdi. Dinga qarshi, turli ommaviy tadbirlar, kinofilmlar, spektakllar, plakatlari, badiiy adabiyotlar, jurnallar yaratildi va keng xalq orasida dinga nisbatan hurmatsizlik va nafrat uyg'otish ishlariga kirishib ketdi. Birgina O'zbekistonda 24 mingdan ortiq masjid yopildi, ularning binolari buzib tashlandi. Diniy ulamolarni qatag'on qilindi. Diniy mutafakkirlarni yetishtirgan xalqlar "qoloq", "madaniyatsiz"ga chiqarildi.

2. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, diniy qadriyatlar sohasida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sobiq ittifoq davridagi dinga bo'lgan salbiy munosabat rad etilib, fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlangan. Bu kafolat Konstitutsiyada ham belgilandi. 1998 yilda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni ham qabul qilindi.

Mustaqillik davrida diniy tashkilotlar, masjidu-madrasalar, cherkov, sanagogalar ochildi. O'zbekistonda 18 ta diniy konfessiya faoliyat yuritmoqda, 2104 ta diniy tashkilotlar davlat ro'yxatidan o'tgan. Albatta, davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlarda qonun ijrosini nazorat qilib turish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita zimmasiga yuklatilgan. Adliya vazirligida ro'yhatidan o'tmagan diniy tashkilot Respublikada faoliyat yuritishi mumkin emas.

Bugun biz tarixiy bir davrda - xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani - bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama to'g'ri tushunib, tanlagan taraqqiyot yo'limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo'llab-quvvatlayotgani oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan

⁶⁸ Nazarov Q. Aksiologiya (Qadriyatlar falsafasi). – Toshkent: Akademiya, 2011. – B.191-192.

ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

El-yurtimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida bunday mash'um xatarlarni necha bor ko'rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday havf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etishi lozim. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan.

Albatta, bu dunyoda halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Aynan ana shunday insonlar va ularning ezgu ishlari tufayli bu yorug' olamda ma'naviyat hamisha barqaror bo'lib keladi.

Lekin, bunday olijanob fazilatlardan butunlay uzoq bo'lib yashaydigan, hayotning ma'no-mazmunini o'zicha talqin qiladigan shaxslar ham oz emas. Ming afsuski, ular o'zini xuddiki dunyoning haqiqiy egasidek, bekamu ko'st, boshqalarning havasini tortadigan umr kechirayotgandek, baxt qushi boshiga qo'ngandek his qilishga urinadi.

Tabiiyki, bunday holatlarni ko'rib-kuzatib, o'zi uchun ezgu niyatlarni yuksak maqsad qilib qo'ygan insonlar qalbida qandaydir ikkilanish va shubha paydo bo'lishi mumkin. Odamlarni o'ylantirib qo'yadigan bunday holatlar hayotda ko'p uchraydi. Bunga qanday izoh berish mumkin?

Hammamizga ma'lumki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi, lekin, shu bilan birga, hayotda bu kabi da'vatlarga amal qilishga intiladigan odam ko'pincha turli qiyinchiliklar, hatto azobu uqubatlarga duch kelishini kuzatish qiyin emas. Tan olish kerakki, yuksak ma'naviy tushunchalar bilan yashashga harakat qiladigan odamning bugun ham ko'p mashaqqatlarni, og'ir sinov va to'siqlar, muammolarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi.

Agarki e'tibor bersak, tilimizda halollik va nopoklik haqidagi ibratli hikmatlar bilan birga, "Yo'lini topibdimi, qandini ursin", "Uzumini yeng-u, bog'ini surishtirmang" degan maqollar ham borligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Albatta, bunday maqol-matallar bejiz paydo bo'lmagan, ular ham ma'lum bir haqiqatning ifodasi. Binobarin, biz hayotning ma'no-mazmunini shunday tushunib, shu asosda yashashga intiladigan kishilar ham borligini inkor etolmaymiz.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analарimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-

oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o'rni va ahamiyati bilan bog'liq.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.

Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lishini, oxir-oqibatda esa ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur.

Ma'lumki, xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shib keladi. Bu haqiqatni jahon jamoatchiligi, butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi – AYSESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007 yidda Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingani ham ana shunday yuksak e'tirofning yana bir tasdig'idir.

Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida «muhaddislar sultoni» deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo'tabar zot merosining gultoji bo'lmish eng ishonchli hadislar to'plami - «Al-jome' as-sahih» kitobi islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomondan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi. Mana, o'n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo'liga chorlab kelmoqsa.

Yana bir ulug' vatandoshimiz - Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziyning ma'naviy merosi, jumladan, «Sunani Termiziy» asari ham musulmon olamida ana shunday yuksak qadrlanadi. Allomaning asrlar davomida olimu fuzalolarga dastur bo'lib kelgan insof va adolat, insonparvarlikni targ'ib etuvchi g'oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko'plab axloqiy-ma'naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e'tiborga molikdir.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Manbalarning guvohlik berishicha, Imom Buxoriy vafot etgan yili, ya'ni milodiy 870 yili tariximizdagi yana bir mumtoz siymo - Imom Moturidiy tavallud topgan ekan. Bu voqea zamirida shaxsan menga ilohiy bir bog'liqlik, Oллоhning buyuk marhamati bordek, bamisoli Imom Buxoriyning nurli qalamini Imom Moturidiy olib, ul zotning xayrli ishlarini davom ettirishga bel bog'lagandek tuyuladi. Imom Moturidiy bobomizning o'rta asrlardagi g'oyat xatarli va taxlikali bir vaziyatda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, avlodlarga ibrat bo'ladigan ma'naviy jasorat namunasini ko'rsatib, islom olamida "Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi" degan yuksak sharafiga sazovor bo'lgani bu nodir shaxsning ulkan aql-zakovati va matonatidan dalolat beradi".

Ul zot asos solgan moturidiya maktabi Sharq mamlakatlarida bunday katta pguhrat topishining sababi shundaki, unda ilgari surilgan g'oyalar islom dinimizning asosini to'g'rilik, ezgulik va insoniylikdan iborat deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohang edi.

O'zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratib, go'zal Farg'ona diyorini jahonga tarannum etgan islom huquqshunosligining yana bir ulkan namoyandasi Burhoniddin Marg'inoniyning tabarruk nomini butun musulmon dunyosi yuz yillar davomida e'zozlab keladi. Bu mo'tabar allomaning Sharq olamida «Burhoniddin va milla», ya'ni «Din va millatning hujjati» degan yuksak unvonga sazovor bo'lgani ham buni yaqqol isbotlaydi.

Marg'inoniyning o'lmas merosi, xususan, ellik yetti kitobdan iborat "Hidoya" – "To'g'ri yo'l" deb atalgan asari, mana, sakkiz asrdiki, musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e'tirof etib kelinayotgani albatta bejiz emas.

Butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan buyuk alloma va aziz-avliyolarimiz orasida Abdulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida ajralib turadi. Ota-bobolarimiz ulug' avliyo Bahouddin Naqshbandga chin diddan ixlos qo'yib, uni "Bahouddini Balogardon" deb ta'riflab kelishida teran ma'no bor. Uning "Diling Oллоhda, qo'ling mehnatda bo'lsin" degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olijanob ma'no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki shu bugun aytilgandek jaranglaydi.

Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot - bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllani-shiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi.

Mustaqil O'zbekistonda davlat organlari va diniy tashkilotlar rahbarlari o'rtasida o'zaro hamjihatlik va xayri-xohlik munosabatlari qaror topdi. 1992 yildan Ro'za hayiti (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al-Adho) bayramining birinchi kunlari dam olish kuni deb e'lon qilindi. Islom ta'limoti va falsafasini keng o'rganish, o'zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur ilmiy tadqiq etish, yuqori malakali dinshunos, huquqshunos va iqtisodchilarni tayyorlash maqsadida Toshkent islom universiteti ochildi (1999). Universitet

huzuridagi gimnaziya, liseyda, bakalavriat, magistratura, aspirantura bosqichlarida 1,5 mingga yaqin yoshlar tahsil oladi (2005). Universitet qoshida Islom tadqiqot markazi tashkil etilgan. Markaz respublikada islom tarixi va islomshunoslik bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni muvofiqlashtiradi va zarur ilmiy uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi.

3. Mustaqillik tufayli o'zligimizni angelayotgan, ma'naviy qadriyatlarimiz qayta tiklanayotgan hozirgi paytda ota-bobolarimiz dini, imoni, vijdoni bo'lib kelgan bizning mintaqaviy islom dinimiz o'ziga xos o'zbekona tusga ega, ya'ni o'zbekchilik bilan uyg'unlashib ketgan.

2006 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikada 2186 ta diniy tashkilot, jumladan, 1987 ta masjid rasmiy ro'yxatdan o'tgan. Imomlarning 484 nafari (24,4%) oliy, 1194 nafari (60,1%) o'rta maxsus diniy ma'lumotga ega. Respublikada Toshkent islom instituti (Islom ma'hadi), o'rta maxsus islom bilim yurtlari hamda pravoslav va protestant seminariyalari mavjud. Barcha dindorlar O'zbekistonda va xorijda nashr qilingan diniy adabiyotlardan erkin foydalanmokdalar. Alouddin Mansur tomonidan Qur'onning uzbek tilidagi dastlabki izohli tarjimasi «Sharq yulduzi» jurnalning 1990-92 yillardagi sonlarida e'lon kilindi, so'ng «CHO'lpon» nashriyotida jamlanib kitob holida nashr etildi. Imom al-Buxoriyning «Al-jami' as-sahih»ining uzbek tilidagi 4 jildi «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyotida, «Axloq va odobga oid hadis namunalari» «Fan» nashriyotida nashr kilindi. 2001 va 2004 yillarda Toshkent islom universiteti nashriyoti Abdulaziz Mansurning «Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi va tafsiri»ni chop etdi. Boshqa nashriyotlarda ham shu turdagi kitoblar chiqarish yo'lga qo'yildi.

Diniy tashkilotlarning xorijiy aloqalari kengaymoqda. O'zbekiston vakillari xalkaro diniy anjumanlarda ishtirok etmoqdalar. 400 dan ortiq talaba Misr Arab Respublikasi, Saudiya Arabistoni, Turkiya va Pokiston diniy oliy o'quv yurtlarda tahsil oldi. Diniy xodimlar Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti, Buxorodagi Mir Arab madrasasida, shuningdek, Toshkentdagi Xadichai Kubro, Buxorodagi Jo'ybori Kalon ayol-qizlar islom o'rta maxsus bilim yurtlari, Namangandagi Mulla Qirg'iz, Urganchdagi Faxriddin ar-Roziy, Nukusdagi Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy, Andijondagi Sayd Muhiddin Maxdum islom o'rta maxsus bilim yurtlarda va boshqa viloyatlardagi diniy o'quv yurtlarda tayyorlanadi. Ehtiyojga qarab toliblar xorijdagi oliy diniy o'quv yurtlariga ham o'qishga yuboriladi. «Hidoyat» jurnali, «Islom nuri» gazetasi va boshqalar nashr etilmoqda. O'quv yurtlarida Qur'on, hadis, din tarixi, islom diniga oid adabiyotlarni o'qish va talqin qilish, husnixat, islom huquqshunosligi kabi bilimlar bilan birga dunyoviy fanlar ham o'rgatiladi.

Diniy bag'rikenglik g'oyasi – xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi.

Din ijtimoiy hayotni, voqelikni, uning hodisalarini o'ziga xos tarzda in'ikos ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biri. U dastlab inson hayotining ibtidoiy davrlarida vujudga kelgan va o'sha zamon kishilarining dunyoqarashini aks ettirgan.

Din dunyo, inson va boshqa mavjudotlarning yaralishi va kelib chiqishini, hayotning ma'no-mazmuni, insonning yashashdan maqsadi kabi masalalarga ilohiy nuqtai nazardan javob beruvchi dunyoqarash shaklidir. U bugungi kunda ham insoniyatning talay qismi uchun ushbu vazifani ado etib kelmoqda. Din diniy dunyoqarashni, diniy marosimlarni, shuningdek, diniy tuyg'uni o'z ichiga oladi. O'rta asrlarda din madaniyatning barcha turlarini (ilm-fan, falsafa, huquq, axloq...) o'zida mujassamlashtirgan va ularga o'z ta'sirini o'tkazgan. qadim-qadimdan din aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Ma'naviy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham dinning ana shu tabiati bilan bog'liq. Din bizning qon-qonimizga, ongu shuurimizga shu qadar teran singib ketganki, uni hech qanday kuch, hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo'lmaydi.

Diniy e'tiqodlarning mohiyati umumiy ekaniga qaramay, ularning ko'rinishi xilma-xildir. Dunyoda juda sodda, qadimiy dinlar bilan bir qatorda, umumjahon ahamiyatiga molik, murakkab jahon dinlari ham mavjud. Ular tarixiy zaruratga qarab, turli davrlarda vujudga kelgan.

Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlariga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi.

O'zbekiston dunyoviy davlat sifatida kun sayin rivojlanib borishida hukumatning diniy e'tiqodlarga nisbatan bo'lgan munosabati jahonning turli mamlakatlarida katta qiziqish o'yg'otmoqda.

Mamlakatimizda 1992 yil 7 martda O'zbekiston Vazirlar Maxkamasi huzurida diniy ishlar bo'yicha Ko'mita tashkil etilib, hozirgi vaqtgacha samarali tarzda faoliyat yuritib kelmoqda. Diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida mustaqillikning ilk onlaridanoq, davlat va konfessional tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Jamiyat a'zolarining vijdon erkinligini ta'minlash, ularning o'z diniy marosim va urfodatlarini ado etishlari uchun barcha shart-sharoitlar vujudga keltirildi. Yangidan-yangi cherkov, masjid va madrasalar qurish, eskilarini tiklash-ta'mirlash bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi hamda bu jarayon bugungi kunda ham amalga oshirib kelinmoqda. Shu o'rinda diniy asarlarni nashr etish ham kesin suratda oshdi. Mustaqillik sharofati bilan "Islom nuri" xaftanomasi dunyoga keldi, ko'plab diniy-ahloqiy adabiyotlar chop etila boshlandi. Jumladan, Imom Buxoriyning to'rt jildidan iborat, imom Termiziyni bir jildli "Xadis" haqidagi kitoblari, boshqa allomalarning qator asarlari yuz minglab nushada chop etildi. Kur'oni karim sakkiz marta, jami bir million nushada nashrdan chiqdi. Bu muqaddas kitob yurtimizda ilk bor Alouddin Mansur tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi va uch marta, jami 300 ming nushada bosmadan chiqarilgan edi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan xalqparvar siyosat natijasida islom olamining zabardast allomalari–vatandoshlarimiz Imom Abu Iso at-Termiziyni 1200, Maxmud az-Zamaxshariyni 920, Najmiddin Kubroni 850, Bahouddin Naqshbandning 675 va Xoja Ahror Valiyni 600 yilliklari hamda Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy – qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligi keng ko'lamda

nishonganligini ko'rsatish mumkin. Bu aziz va mukarram zotlarning bebaho asarlari qayta chop etildi, nomlari esa abadiylashtirildi⁶⁹.

Bugungi kunda, turli diniy tashkilotlar xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan madaniy tadbirlarini mamlakatimizda keng nishonlab, millatlararo bag'rikenglik va konfessiyalar o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishmoqda. Ayniqsa, hukumatimiz diniy tashkilotlarga ushbu xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni o'tkazishlarida yaqindan yordam berib, ma'naviy-diniy merosni tiklanishiga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Misol uchun, 1996 yil noyabrda Markaziy Osiyo respublikalaridagi barcha pravoslav dindorlari tomonidan Toshkent va O'rta Osiyo Rus pravoslav Yeparxiyasining 125-yilligi nishonlandi. Ushbu tantanaga Patriarx Aleksey II tashrif buyurib, O'zbekistondagi barcha millatlarning samimiy va bag'rikenglik tamoyillari asosida yashayotganliklarini alohida ta'kidlab o'tdi⁷⁰.

Umuman olganda O'zbekistonda unchalik ko'p sonli izdoshlariga ega bo'lmagan diniy jamoalarni tarixi, kelib chiqishi va mazmun-mohiyatini ochib beruvchi ilmiy xarakterdagi adabiyotlarni ko'payishi shubhasiz katta ijobiy ahamiyatga egadir.

Bu kabi izlanishlar natijasida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillarining ma'naviy-diniy qadriyatlari qayta tiklanib rivojlanmoqda. Ko'p millatli davlatimizda aholining ruhiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan bog'liq yuqoridagi kabi tadqiqodlar kun-sayin o'z ijobiy samarasini bermoqda.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, biz yashab turgan hudud g'oyat hilma-hil madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan mintaqa hisoblanib, ushbu yerdagi konfessiyalar tarixi hamda ularning qadriyatlari olimlarimiz tomonidan o'rganib kelinmoqda. Mavjud tadqiqotlarda konfessiyalarning tarixiy rivojlanishi, o'ziga hos xususiyatlari, bugungi kundagi holati va ahamiyati yoritilgan. Diniy qadriyatlarni tiklash bo'yicha amalga oshirilayotgan izlanishlar tufayli yurtimizda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik uzoq tarixiy o'tmishga ega ekanligi yana bir bor o'z tasdig'ini topmoqda.

Atamalar va asosiy tushunchalar:

Diniy qadriyatlar – dinning mazmun-mohiyati, funksiyalapri, jamiyat va inson hayotidagi o'rni bilan belgilanadi. Dinga qadriyat sifatida qarash, uni jamiyat hayotining tarkibiy qismi, muhim ijtimoiy funksiyalarini bajaradigan ma'naviy omil, inson e'tiqodini shakllantirish vositasi ekanligiga asoslanadi, ilohiy qadriyatlar tizimini ifodalaydi.

Diniy marosimlar – fuqarolarning diniy ta'limotlardan, ularning qonun-qoidalari va aqidalaridan kelib chiqadigan diniy faoliyat va xatti-harakatlari. Diniy marosim diniy e'tiqod, ibodatning amaldagi ko'rinishidir. Barcha dinning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Diniy marosim diniy tasavvur va sig'inishlar orqali

⁶⁹ Jurayev N. Ma'naviy poklanish va milliy qadriyatlarning tiklanishi // O'zbekiston tarixining dastlabki saxifalari. T.3. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.133.

⁷⁰ Xalq so'zi. 1996. 12 noyabr.

vujudga kelgan. Qadimda odamlar g'ayritabiiy kuchlarga turli marosimlar orqali ijobiy yoki salbiy ta'sir etish mumkin deb hisoblaganlar.

Diniy qarash – iloxiy va dunyoviy tushuncha va tasavvurlar mushtarakligini ifoda etuvchi ma'rifiy qarash.

Diniy bag'rikenglik – turli diniy e'tiqoddagi kishilarning olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadigan tushuncha.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Diniy qadriyat nima va uni tushuntiring.
2. Diniy qadriyatlarning tiklanishini tushitirib bering?
3. O'zbekistonda nechta diniy konfessiyalar bor?
4. O'zbekistonda diniy tashkilotlar e'tibor berilmoqda?
5. Islom dini va uning asosiy xususiyatlari haqida gapirib bering?
6. Diniy bag'rikenglik deganda nimani tushunasiz?
7. O'zbekistonda din va davlat o'rtasidagi munosabatlar qanday kechadi?
8. Mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma'naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish bo'iycha qanday choralar ko'rilmogda?
9. Islom madaniyati, umuman, diniy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?

8-MAVZU: MAHALLA INSTITUTI VA OILADA MILLIY QADRIYATLARNING TIKLANISHI

Ma'ruza rejasi:

1. *Mahalla institutida milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi*
2. *Oilaviy qadriyatlar va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni*

Mavzuning maqsadi: *O'zbekistonda mahalla va oilaning jamiyatdagi o'rni, oilaviy qadriyatlar to'g'risida talabalarga turli faktlar asosida to'liq ma'lumotlar berish hamda talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirishdan iborat.*

1. O'zbekistonda barcha hayotiy ishlar bilan shaharlarda mahalla, qishloqda qishloq ovul jamoalari shug'ullangan. Mahalla va qishloq jamoasini jamoa yig'inida saylangan oqsoqol (Horazmda-yoshulli) boshqargan. Ijtimoiy hayot masjid, choyxona va bozorlarda mujassamlashgan, ularda asosan erkaklar ishtirok etgan, jamoaga ma'lum bir mahallada, qishloqda yashovchilar birlashganlar. Kishining e'tiqodi, millat va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, u yoki bu jamoa hududida yashashi uning o'sha jamoaga mansubligini yagona belgisi hisoblangan. Jamoadagi qishilar, kasb-hunari mavqedan qat'iy nazar jamoa ishlari (hashar) va marosimlarga qatnashishlari zarur bo'lgan, aks holda bunday shaxs xalq nazaridan qolgan.

Qadimdan an'ana bo'lib kelgan milliy qadriyatlarimizdan hisoblangan hashar, mehmondo'stlik, kattalarni hurmat qilish va bir qancha odatlar, marosimlar mahalla jamoasining qatnashuvida o'tgan. Hasharning bir necha turi mavjud:

jamoat ishlarini bajarishda, qo'ni-qo'shnichilik va qavm-qarindoshchilik doirasida o'tkaziladigan hashar va boshqalar. Hasharning bu turi ixtiyoriy o'zaro yordam bo'lgan. hasharning yana bir turi davlat miqyosida o'tkazilgan. Unda oldinlari xon va mulkdor yerlariga suv chiqarish uchun ariq qazilgan, qo'riq yerlar ochilgan, hosilni yig'ishtirish va qurilishlar amalga oshirilgan bo'lsa, keyingi yillarda bahorda Navro'z arafasida o'tkaziladigan hasharda jamoat joylarni tozalash, yangi ko'chatlar ekish va daraxtlarni qirqib, shakl berish kabi yumshlar ommaviy ravishda bajarish an'anaga aylangan. Kichik ko'lamdagi hasharhasharni hasharboshi (ariq qazilsa mirob yoki mahalla oqsoqoli) nazoratida o'tkazilgan. Qo'shnilarni o'zaro hashari ham qadimiy qadriyatdir.

Aslida hammamiz mahalla farzandlarimiz. Har birimiz qaysidir bir mahallada tug'ilganmiz.. ha-ha, Yorug' olamga kelganimiz haqidagi mujda shu mahalla bo'ylab ilk bor tarqalganda mahalla ahli o'z safining yana bir inson evaziga to'lishganidan nechog'li xushnud bo'lib, ota-onalarimizni qutlashgan.

Ma'naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta'siri xususida to'xtalish albatta o'rinlidir. Ma'lumki, azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan habar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to'y-tomosha, hashar va marakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan⁷¹. Xalqimizga xos o'zini o'zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz "Mahalla – ham ota, ham ona" degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz.

Mahalla haqida gapirganda, ko'pchilik ana shunday chuqur ma'noli so'zlarni eslashi va tilga olishi tabiiy. Ular shu tariqa nainki o'zlarining dardu tashvishlarini hal qiladigan ta'sirchan ijtimoiy fuqarolik idorasi, ayni vaqtda yurt ramzi bo'lgan mahallaga o'zining munosabatini izhor etadi.

Mustaqillik yillarida mahalla hayoti bilan bog'liq ko'plab qadriyatlar, udum va an'analarimiz qayta tiklanib, zamon talablari asosida boyib bormoqda. Shu bilan birga, mahallaning huquq va vakolatlari kengaytirilmoqda, ular bugun o'zini o'zi boshqarish idorasi, haqiqiy demokratiya darsxonasi sifatida keng ko'lamli faoliyat olib bormoqda.

Har birimizning mavjudligimizni va muqaddas o'zlikka egaligimizni anglatuvchi va e'tirof etuvchi ism qo'yish va muslimlikni qabul qilishdan iborat aqidamiz mahalla masjidi imomi, mahalla oqsoqoli va mahalla kayvonisi ishtirokida o'tgan. Mahallalarning ma'naviy bir butunligi shu zaminda asrlar davomida shakllangan. Mahalladan chiqqan biror ulug' zot butun mahalla nomini elu-yurtga tanitib, uning iftixoriga aylangan, qolaversa, hatto mahalla ham shu ulug' inson nomi bilan atala boshlagan. Shundanmikin, halqimizda bir bolaning chinakam inson sifatida kamol topishiga yetti mahalla mas'ul deb qarash qadimdan rasmiyatga aylangan. Chunki bola tuqqanniki emas, tarbiyalaganniki. Bola onadan

⁷¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 58.

o'g'ri, tovlamachi, kazzob, bezori, aldamchi, qallob, ishyoqmas va sotqin bo'lib tug'ilmasligi ayni haqiqat. U shunday illatlarga ota-ona, maktab, mahalla-kuy va jamiyatning tarbiyada yo'l qo'ygan nuqsonlari, tarbiyaviy jarayonga beparvolik, loqaydlik bilan qaraganliklari, talabchanlikni susaytirganliklari tufayli giriftor bo'lishi ham aniq. Bunda bola mansub oilaning mahalladan ajralib qolishi, aniqrog'i, mahalladagi tartib-intizomni chetlab yashashga intilishi ham sabab bo'lishi mumkin. Shu vajdan mahalla ahli o'z bolalari yurish-turishiga ko'z-quloq bo'lib turmog'i, har qanday noxush hatti-harakatni sodir etgan bolaning ota-onasini ogohlantirishi zarur. Eng muhimi, mahalla bolalarining ham, kattalarning ham o'zaro ahil-totuv va birodar bo'lib yashaydigan maskani. Shundagina mahallada osoyishtalik, tinchlik, o'zaro hurmat, hamkorlik qaror topadi. Mahallaning tinchligi esa elu yurtning, qolaversa, butun boshli mamlakatning tinchligi, farovonligi, kuch-qudrati va omonligining garovi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi o'z istiqlolini e'lon qilib, mustaqil davlat sifatida boshharishning demokratik yo'lini tanlaganidayoq Mahallaning ana shu asriy tajribasiga suyanish zarurligi ravshanlashdi. Bu Bosh Qomus - Konstitusiyaning 105 moddasida shunday ifodalandi: "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'ilishlari o'z-o'zini boshharish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi". Bu moddaning qabul qilinishi mamlakatimizda mahalliy boshqaruvning yangi demokratik tizimining qaror topishiga, aniqrog'i, mahallaning ota-bobolarimiz aqlu idroki bilan yaratilgan asriy qadriyat sifatida qayta tiklanishiga yo'l ochdi. Bunda, ayniqsa, Prezident Islom Karimovning shaxsiy tashabbuslari bilan 1992 yil yilning 12 sentabrida qabul qilgan Farmon va Vazirlar Mahkamasining 480-sonli qarori asosida O'zbekiston Respublikasi "Mahalla" hayriya jamoat fondi hisobiga davlat zahirasiidan 25 million so'm mablag' ajratilganligi, 1993 yilda "Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishi to'g'risida" qabul qilingan qonunning 1999 yili yangi tahrirda takomillashtirilganligi, hatto uning mustaqil minbari sifatida "Mahalla" gazetasining 1995 yil 1 dekabridan e'tiboran nashr etila boshlanishi, qolaversa, Respublika mustaqilligining bir yilligi sharafiga mahallalarga 3 million so'mlik buyumlar hadyalar qilinganligi muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada Respublika "Mahalla" hayriya jamoat fondi mahalliy o'z-o'zini boshqaruv tizimi tarzida keng tarmoq yoza boshladi, shu tariqa davlatni boshqarishda ommani kengroq miqyosda jalb qilish yo'li topildi. Hozirgi paytda Respublika "Mahalla" hayriya jamoat fondining Qoraqalpog'iston Respublikasida, Toshkent shahrida va barcha viloyatlarda, shuningdek, barcha shahar hamda tumanlarda o'z bo'linmalari tashkil qilingan bo'lib, ular ixtiyorida 10004 ta mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyat ko'rsatmoqda, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 350 ta, Andijon viloyatida 957 ta, Buxoro viloyatida 541 ta, Jizzax viloyatida 396 ta, Namangan viloyatida 856 ta, Navoiy viloyatida 338 ta, Sirdaryo viloyatida 349 ta, Samarqand viloyatida 1208 ta, Surxondaryo viloyatida 818 ta, Toshkent viloyatida 1446 ta, Farg'ona viloyatida 1003 ta, Xorazm viloyatida 675 ta va nihoyat, Qashqadaryo viloyatida 593 ta, Toshkent shahrida 474 ta mahalla fuqarolar yig'inlari aholi tinchligi va osoyishtaligi, hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamlashtirish,

kelajagimiz umidi - yosh avlodni tarbiyalash, qo'li qisqaligidan o'zini ta'minlashga qiynalayotgan ko'p bolali oilalar, nogironlarga imkon qadar madadkorlik qilish yo'lida hormay-tolmay xizmat qilmoqda. Bu bilan O'zbekiston Respublikasi "Mahalla" hayriya jamoat fondi hukumatimiz belgilab bergan:

- O'zbekiston aholisining tarixan tarkib topgan udum va an'analarni asrash va boyitishga har tomonlama ko'maklashish;
- kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, yetimlarga va yolg'iz qolgan qariyalarga nisbatan insonparvarlik va mehr-shafqat munosabatida bo'lish g'oyalarini targ'ib qilish, ularga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallalarni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat ado etish yo'lida ma'lum natijalarga erishilayotganini ta'kidlash joiz.

Mahalla ma'naviy mas'ullik maskani hisoblanadi. Insonni ko'pincha o'zining mavjud holatini to'g'ri anglashini asoslashga haratilgan hissiyot boshqarib turadi, nazorat qiladi. Ammo, bu har doim ham to'g'ri emas va uning salbiy jihatlari keyinchalik jiddiy ravishda sezilishi mumkin.

Mahalla fuqaro yig'inlari o'z hududidagi madaniy yodgorliklarni asrash, hashar yo'li bilan atrofini ozoda tutish, ta'mirlash ishlariga ham bosh qo'shmoqdalar. Ayniqsa, mahalla yoshlari o'rtasida ishsizlikning oldini olish va o'g'il-qizlarning kasb-hunar o'rganishlarini yo'lga qo'yishda alohida jonbozlik ko'rsatib, mahalla sharoitlari va imkoniyatlari doirasida duradgorlik, beshiksozlik, uysozlik, sandiqsozlik, elektr asboblari, radio hamda televizorlarni tuzatuvchilar, mashina-mexanizmlar ustachiligi, zardo'zlik, guldo'zlik, ko'rpado'zlik, patdo'zlik, jiyakdo'zlik, to'r va jemperlarni to'qishni o'rgatadigan kichik korxonalar yoki to'garaklar tashkil etib, ishlab topilgan mablag' hisobiga shu kichik korxonalarni ko'paytirilmoqda.

Millat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan, etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar shakllidir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi tufayli milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Zero, milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri. Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros tarzida kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ular ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi, boshqa xalqlarnikiga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'alar bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli ular mahalliy, milliy, mintaqaviy shakllar va umuminsoniy shakl mazmunda mavjud bo'ladi. Mahalliy qadriyatlarning eng yetuklari va milliy manfaatlarga, moslari asta-sekin saralanib, umummilliy darajaga ko'tariladi. Milliy muhit qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbaidir: u milliy qadriyatlarning eng yaxshilarini voyaga yetkazib, jahon miqyosiga olib chiqadi.

Milliy qadriyatlar - milliy g'oyaning ma'naviy negizi. Milliy g'oya - millat tafakkurining mahsuli, ijtimoiy ongning yuqori darajadagi shakli, xalq

falsafasining o'zagidir. Turli xalqlarning milliy g'oyasi ularning maqsad-muddaolarini, orzu-umidi va ishonch-e'tiqodini ifodalaydi, ayni paytda, muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Tarixdan ma'lumki, o'tkinchi manfaat va g'aliz niyatlarga tayangan, o'zga xalqlar va yurtlarga tajovuz qilishni, bosqinchilikni ko'zlagan yovuz g'oya va mafkuralar millat va davlatlarni tanazzulga duchor etgan. Faqat ezgu g'oyalar va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g'oyalar xalqlarni taraqqiyotga eltgan.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol g'oyasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi.

Milliy qadriyatlar quyidagilardan iborat:

1. Xalqimiz hayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustuvorligi.
2. Xalq ongida ustuvor bo'lgan fikr - do'st va yaxshi qo'shni bo'lib, tinchlik va totuvlikda, yaqindan hamkorlikda yashash.
3. Oila, mahalla, el - yurt, Vatan tushunchalarini muqaddas bilish.
4. Ota-ona, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat - e'tibor, butun jamiyatni hurmat qilish.
5. Millatning o'lmas ruhi, millat ma'naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat, uni sevisht.
6. Kattalarga - hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat, hurmat, degan e'tiqodga amal qilish.
7. Ayol zotiga ehtirom ya'ni, muhabbat, go'zallik va nafosat timsoli, abadiy hayot ramzi bo'lgan ayolni qadrlash.
8. Sabr-toqat, va mehnatsevarlik.
9. Halollik, mehr-oqibat va hokazo.

Bu tamoyil va qadriyatlar O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarini asrab - avaylashi, kelajak avlodlarga yetkazishi uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. O'tmishdagi bobolarimiz qoldirgan meros, madaniy boyliklar, mumtoz qadriyatlarni hurmat qilish, ularni o'rganish, ular zahiridagi bu tamoyilning asosiy jihatlaridir. Har bir millatning tili, qadriyatlari, urf-odatlar, an'analarini hurmat qilishni ta'minlash milliy istiqlol mafkurasining amal qilishida umuminsoniy andozalar namoyon bo'lishi uchun asoslar yaratadi. Demak, o'zbek xalqining milliy xususiyatlarida:

1. *Oila - muqaddas tushuncha.* Oila qurish - o'ta mas'uliyatli ish. "Oila - eskilik unsuri emas". U muqaddas, oilada millat kelajagi mujassam. Yoshlarni tarbiyalashda, kamolga yetkazish, ilm-hunar berish, uyli-joyli qilish - aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir...

2. *Mahalla* - o'z-o'zini boshqarishning o'zbek xalqi yaratgan eng katta yutug'i, oqilona shaklidir. Mahalla - tarbiya maskani, har bir oilaga tayanch va suyanch ekanligi ko'pchilikka ayon.

3. *Qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari* uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida bu borada muayyan qadriyatlar shakllangan. "Yon qo'shnim - jon qo'shnim", «Xovli olma - qo'shni ol», «Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal» va h.k.

4. *Keksalarga hurmat* - inson hayotiy tajribasi davomida shakllangan qadriyat. Jonli tabiatda hayot uchun kurash qonuniyati mavjud. Nasl qoldirish, yagi avlodga mehr qo'yish, uni oyoqqa turg'azish jon fido qilish hollari aksariyat hayvonlarda

kuzatiladi. Ammo, qariyalarni e'zozlash, keksalarga ehtirom, mehr-muruvvat ko'rsatish - insoniy fazilatdir. Bularsiz milliy g'oyamizni tasavvur eta olmaymiz. «Keksani qopda saqla, o'ligini hafta saqla».

5. *Ayol zotiga ehtirom* - insoniyatning yarmidan ko'pini tashkil etadigan xotin-qizlarga bo'lgan munosabatning eng yuqori cho'qqisidir. Demokratiyaning eng muhim yutug'i - har ikki jinsning teng huquqli va erkin bo'lishini ta'minlashdir...

6. *Onaga bo'lgan hurmat va sadoqat* - eng oliy qadriyatdir. Shuning uchun Vatanga, milliy tilga nisbat berilganda ona nomi qo'shiladi. Milliy g'oya onalar uchun, jamiyatdagi barcha ayollar uchun farovon hayot, go'zal turmush yaratishni maqsad qilib, xotin-qizlarning erkinligi va o'z qadr-qimmatini anglab yetishiga, o'z salohiyat va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga sharoit yaratishni bosh g'oyasida mujassamlashtirgan. Demak, milliy qadriyatlar insonning inson sifatida o'zini anglashi, o'z-o'zini himoya qila olishi, erishgan zafar yo'li va mag'lubiyatlari, sitamli damlarining yodnomalaridir.

2. Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'рни va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Halqimizda "qush uyasida ko'rganini qiladi", degan dono maqoli bunga misol bo'la oladi. Qisqacha qilib aytganda, oiladagi har bir narsa – daraxt va o'simliklar bo'ladimi, turli o'yinchoqlar, uy hayvonlari bo'ladimi – bularning barchasi bolaning ko'ziga go'yoki olamning beqiyos mo'jizasi bo'lib ko'rinadi va shu tariqa u yorug' dunyoda o'zi uchun kashf qiladi.

Taassufki, ba'zi ota-onalar o'z farzandining ana shunday qiziqishi va intilishlariga, uning ongu tafakkurida har kuni bir o'zgarish ro'y berib, ko'zida yangi-yangi savollar paydo bo'layotganiga ahamiyat bermaydi. Boz ustiga, agar ota- oilada o'zini tutishni bilmasa, axloq-odob bobida farzandlariga o'rnak bo'lish o'rniga qo'pol muomala qiladigan bo'lsa, bu holat, tabiiyki, bola ma'naviy olamining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, vaqti-soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga noloyiq, hunuk bir odat sifatida namoyon bo'ladi. Yoki oilada qo'shnilarni ko'rolmasilk, fisqu fasod, ig'vo muhiti hukmron bo'lsa, hech shubhasiz, bularning barchasi bolaning xotirasida tuzatib bo'lmaydigan og'ir asorat qoldiradi. Umuman, oiladagi ma'naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki hudbin va bag'ritosh bo'lib voyaga yetishini tushunish qiyin emas⁷².

Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo har qaysi honadondagi ma'naviy iqlimni o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao bo'lur edi. Bu haqda gapirganda, men mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asaridagi qahramonlarning o'zaro muomala va muloqotlari, ularning hatto kichik farzandlarini ham "siz"lab gapirishi misolida ota-bobolarimizning oila ma'naviyatiga qanchalik katta e'tibor berganiga ishonch hosil qilaman⁷³.

⁷² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 54.

⁷³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 55.

Oilaviy–maishiy marosimlar ijtimoiy–funksional nuqtai nazardan: a) oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga; b) yoshlarni oilaviy-maishiy hayotga o‘rgatishga; v) yangi oila qurishga; g) sog‘lom farzandlar tarbiyalashga; d) dam olish va hordiq chiqarishga; ye) qarindosh-urug‘chilik an‘analarini davom ettirishga qaratilgandir. To‘g‘ri, oilaviy-maishiy marosimlar oilaning xo‘jalik yuritish, reproduktiv vazifalari, oila a‘zolarining sog‘ligini saqlash kabi funksiyalari bilan ham bog‘liqdir. Arastu oilaning rang-barang va murakkab munosabatlardan iboratligini nazarda tutib, uni “davlatning bo‘lagi” deb atagan. Shuning uchun oilaviy–maishiy marosimlar davlat va oila hayotining barcha qirralari bilan bog‘liq holda transformasiyaga uchraydi. Bizning fikrimizcha, ushbu qirralar oilaviy-maishiy marosimlarning yuqoridagi ijtimoiy funksiyalarida yetarli darajada o‘z aksini topadi.

Oilaviy-maishiy marosimlarda umumetnik, sinfiy va shajaraviy (oilaviy-nasliy) an‘analar qorishib, bir-biriga dialektik bog‘lanib keladi.

O‘zbek xalqiga xos etnomadaniy va etnopsixologik hodisalardan biri bolajonlikdir. Shuning uchun u bolaning otasi «pushti kamaridan ona rahmiga o‘tgan»idan boshlab turli oilaviy-maishiy marosimlar o‘tkazib keladi. Ularga “Suyunchi”, “CHo‘miltirish”, “Ism qo‘yish”, “Beshikka solish”, “Beshikkerti”, “Qovurdoq”, “Chalpak pishirish”, “Yupqa pishirish”, “Aqiqa”, “Chillagizoron”, “Tirnoq oldi”, “Beshik to‘yi”, “Soch to‘yi”, “Tish chiqdi”, “Ilk qadam”, “Sunnat to‘y”, “Muchal yoshi”, “Nikoh to‘yi” kabi marosimlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, faqat erkaklarga xos bo‘lgan “Gap-gashtak”, “Mo‘ylov oshi”, “Sabzi to‘g‘rash”, ayollarimizga xos bo‘lgan “Namozshom pardoz”, “Xalfana”, “Ayollar gapi”, “Ayollar hashari”, o‘zbek qizlariga oid “Arg‘imchoq uchish”, “O‘sma qo‘yish”, “Soch o‘rish”, “Xina qo‘yish” kabi marosimlar ham mavjud.

CHo‘miltirish marosimi. Ilgari o‘zbek ayollari o‘z uylarida tuqqan. “CHo‘miltirish” marosimida farzand tug‘ilgan xonadondagi katta-kichik ayollar ishtirok etgan. Marosimga ko‘pni ko‘rgan, kayvoni ayol boshchilik qilgan. Chaqaloqni onasi yoki buvisi qo‘liga olib, “bismilloh” aytib, iliq suvga solgan. Tog‘oradagi suvga rizqli-nasibali, sog‘lom bo‘lsin, balo-qazodan asrasin degan niyatda kumush solingan. Ayollardan biri chaqaloq ustidan suv quyib turgan, u har suv quyganida atrofdagi ayollar “boshing toshdan bo‘lsin”, “umring uzoq bo‘lsin” kabi ezgu niyatlarini bildirgan. Suvni avval chaqaloqning boshidan, keyin o‘ng yelkasi, so‘ngra chap yelkasiga quyishgan. Bu “Olloh avval insonni boshini yasagan, insonni ikki yelkasida ikki farishta o‘tiradi, Olloh har bir ishni o‘ng tomondan boshlashni buyuradi”, degan tasavvurlarni anglatgan.

Ayollarimiz zamonaviy tug‘ruqxonalarda farzand ko‘rishga o‘tgach, “CHo‘miltirish” marosimi ham transformasiyaga uchradi, ko‘p joylarda u unutilgan.

Umuman, milliy ma‘naviy qadriyatlar ijtimoiy hayotning va ma‘naviy borlig‘imizning muhim va serqirra sohasi bo‘lib, inson va jamiyat kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar muttasil rivojlanib, takomillashib boradi. Bularning ijtimoiy guruhlar va alohida shaxslar tomonidan o‘zlashtirilishi ta‘lim va tarbiyani talab qiladi. Milliy qadriyatlar jamiyatimizning asosiy maskanlaridan bo‘lgan mahalla va oila institutlar bag‘rida shakllantirish dolzarb

masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar bevosita Vatanimiz kelajagi hisoblanmish yosh avlod tarbiyasi bilan bog‘liqdir.

Atamalar va asosiy tushunchalar:

Mahalla – O‘zbekistonda ma‘muriy-hududiy birlik; o‘zini o‘zi boshqarish-ning xalqimiz an‘analari va qadriyatlariga xos bo‘lgan usuli. Shaharning ma‘lum bir hududini o‘z ichiga olgan va aholisi bir jamoaga birlashgan, o‘zini-o‘zi boshqarishga asoslangan ijtimoiy hududiy bo‘lagi.

“Mahalla” hayriya jamoat fondi – Mahalla va uning aholisining ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham madaniy yuksalishiga har tomonlama yordam berish, milliy an‘ana va urf-odatlarini boyitish, Mahalla qo‘mitalari ishlarini muvofiklashtirish, Mahallalardagi kam ta‘minlangan oilalar, keksalar, fahriylar, nogironlar, ko‘p bolali oilalar, yetim-yesirlar, baynalmilalchilar manfaatlarini har tomonlama himoya qilish maqsadida 1993 yil 17 avgustda O‘zbekiston «Mahalla» xayriya jamg‘armasi tashkil etilgan.

Hashar – o‘zbeklar, ayrim boshqa turkiy xalqlar orasida udumga aylangan ijtimoiy hamkorlik va beg‘araz yordam shakllaridan biri. Asosan, tezkorlik bilan bajarish zarur bo‘lgan ishlar (hosilni zudlik bilan yig‘ib olish) va katta mehnat talab inshootlarni bunyod etish (kanal qazish, yo‘l va ko‘priklar qurish)da qo‘llangan. Hashar ariq qazish, imorat qurish kabi ishlarda bir necha kun ham davom etgan.

Oilaviy an‘analar – oilada bola–chaqa, xonadon, urug‘, avlodlar, er–xotin, ularning nasldan naslga o‘tuvchi, hayotda qaror topgan (topayotgan) udum, urf–odatlar va boshqa amallar majmuasini ifodalovchi tushuncha.

Oilaviy tarbiya – bola rivojlanishi uchun eng qulay shart–sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan, uni ijtimoiy hayotga tayyorlashga, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan oila faoliyati.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mahalla nima va uni tushuntiring.
2. Mahallada o‘zbeklarning qaysi qadriyatlari ko‘zga tashlanadi?
3. Mustaqillikka yerishganimizdan so‘ng mahallada qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
4. “Mahalla” jamg‘armasi qachon tashkil etilgan?
5. Oilaviy qadriyatlarni aytib bering?
6. Mahallaning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini qanday baholaysiz?
7. O‘zbek halqining qanday qilaviy bayramlari, marosimlari bor?
8. O‘zbek oilasining keyingi taqdiri haqida qanday o‘laysiz?
9. Sizningcha o‘zbek oilasi qanday bo‘lishi kerak?

9-MAVZU: MILLIY URF-ODATLAR VA AN'ANALARNING TIKLANISHI

Ma'ruza rejasi:

1. *Urf-odat va an'analar milliy qadriyat sifatida.*
2. *Milliy urf-odat va an'analarimizni tiklanishi.*
3. *O'zbek halqiga xos bo'lgan urf-odatlar va an'analar.*

Mavzuning maqsadi: *Talabalarga "urf-odat", "an'ana" atamalarini tushuntirish, shu jumladan o'zbek halqiga xos bo'lgan milliy urf-odat, an'analarni qayta tiklanishi va qadriyat sifatidagi ahamiyati haqida to'liq ma'lumotlar berish.*

1. Milliy qadriyatlarni qayta tiklash jarayoni bevosita o'zbek xalqining ma'naviy va madaniy merosini, uning milliy an'ana va urf-odatlarini o'z ichiga olgan ma'naviy hayoti tarixini chuqur o'rganish bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, o'zbek xalqining ma'naviy merosi tizimida o'ziga xos o'rinni egallovchi urf-odat va marosimlar ayni paytda insoniyat madaniyatining muhim komponentlaridan biridir. Shuni aytish lozimki, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy qadriyatlarni etnologiya fanida qo'llaniladigan atama va tushunchalarni bilmasdan turib o'rganib bo'lmaydi. Etnologiya fanida "marosim", "urf-odat", "an'ana", "bayram"lar tadqiqot obyektlari tarzida keng qo'llaniladi. Chunki har bir xalqni shakllanish jarayoni bilan birga unga xos va mos milliy-etnik an'analar, urf-odatlar, marosimlar va bayram va sayillar shakllanib taraqqiy etib boradi. Ular kishilar turmush-tarzining muhim bir bo'g'ini tarzida tarkib topib boradi.

Etnologiya fani shakllangan davrdan boshlab milliy an'analarni, rasm-rusumlar va urf-odatlarini xalq madaniyatining fenomeni tarzida o'rganishni dolzarb muammolaridan biri sanalib kelgan.

Ayniqsa, Respublikamizda milliy qadriyatlarimizga va ma'naviy merosimizga davlat miqyosida e'tibor berilayotgan tarixiy bir jarayonda mutaxassis olimlar tomonidan an'anaviy marosimlarimizni tadqiq qilishda ularning yozma tavsifini berish bilangina cheklanib qolmasdan, balki qadimiy tarixga ega bo'lgan milliy marosimlarimizning xalq turmushi va an'anaviy madaniyatda tutgan o'rni, ularning genezisi va o'ziga xos xususiyatlari hamda saqlanish omillari borasidagi tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda. Lekin afsuslar bilan aytish joizki, hali hanuz etnologiya, madaniyatshunoslik, folklorshunoslik va xalq turmush-tarzi bilan shug'ullanuvchi fanlar doirasida yuqoridagi terminlarning ta'rif va tavsifi hamda farqli xususiyatlari borasida mukammal nazariy-metodologik qarashlar ishlab chiqilmagan. Shu bois, ba'zi hollarda ayrim tadqiqotlar tomonidan "marosim" va "urf-odat", "an'ana" va "bayram" kabi qator terminlarni sinonim tarzda ishlatish yoki izchil farqlanmagan holda qo'llanilish holatlari ham uchramoqda. Shubhasiz bu o'rinda "marosim",

“urf-odat”, “an’ana” va “bayram” terminlarning qanday o‘xshashliklar va farqli xususiyatlar mavjud? - degan savol tug‘ilishi tabiiydir. Bizningcha, ushbu terminlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, ammo bir-biridan keskin farq qiluvchi tushunchalardir.

Avvalo “an’ana” termini borasida to‘xtalib o‘tsak. “An’ana” – tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib o‘tadigan, kishilar madaniy hayotiga ta’sir o‘tkazadigan madaniy xodisadir. An’ana o‘ziga xos ijtimoiy qoida tarzida kishilar ongiga singan (umum yoki ma’lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi.

Urf-odat tushunchasi esa o‘ta keng bo‘lib, u o‘z ichiga xalq hayotining barcha tomonini-oddiy kundalik udum, rasm-rusum, irim-sirimlar, o‘zaro-muomala tarzi hamda barcha marosimlarni butunicha qamrab oladi. Marosim tushunchasi nisbatan tor tushuncha bo‘lib, u shu xalq hayotining ma’lum sohalarida omma tomonidan qabul qilingan, ko‘pincha ramziy xarakterga ega bo‘lgan va ma’lum kishilar majmui tomonidan maxsus uyushtiriladigan namoyishlardan iborat. Shuningdek marosim-inson hayotining moddiy va ma’naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma’lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko‘rsatuvchi asosiy belgilarni o‘zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. Boshqacha qilib aytganda, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo‘lgan hayotiy tadbirdir.

“Urf-odat” deyilganda kishilarning turmushiga singgib ketgan, ma’lum muddat takrorlanib turuvchi hatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko‘nikmasidir. Demak ushbu marosim va urf-odatga berilgan qisqacha qaydlardan ham ko‘rinib turibdiki, urf-odat tushunchasi xalq hayotining barcha sohasini o‘z ichiga qamrab olsa, marosim tushunchasi xayotining muayyan sohalarigagina aloqador, xolos. Urf-odat bir vaqtning o‘zida bir shaxs yoki bo‘lmasa ko‘pchilik tomonidan bajarilishi shart bo‘lgan qoida bo‘lsa, marosim belgilangan shaxslar tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan xatti-harakatdir. Jumladan, kichikning kattaga birinchi salom berishi yoki ko‘pchilikka kamchilikni salom berishi yoki, mehmonlarga alohida hurmat ko‘rsatish, bayram arafasida yaqinlari, keksa qariyalar, qo‘ni qo‘shnilar holidan xabar olish kabi ko‘rinishlar o‘zbeklarga xos milliy urf-odatlaridir.

2. Milliy urf-odatlar bo‘lsa motam marosimida hasratli motam, sochlarini to‘zg‘itib qayg‘uli ahvolda motam aytimlarini aytib yig‘lash motam marosimida ishtirok etayotgan ayrim kishilarnigina vazifasiga kiradi.

Xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, insonni ulug‘lash, tinch va osoyishta hayot, do‘stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ma’naviy hayotimizning uzviy qismiga aylanib ketgan hashar odati istiqlol davrida yangicha

ma'no-mazmunga ega bo'lib, umummilliy an'ana tusini olgani barchamizni mamnun etadi⁷⁴.

Urf-odatlar bilan marosim orasidagi o'zaro farqni ular ichidagi ramziy harakatlarni qo'llanilishi darajasi orqali ham anglab olish mumkin. Jumladan, urf-odat o'z ichiga ramziy va ramziy bo'lmagan harakatlarni to'la qamrab olsa, marosim faqat ramziy xarakterdagi hatti-harakatlarnigina qamrab oladi. qolaversa urf-odat muayyan xalq uchun asosan bir xil - o'zgarmas qoida, norma bo'lsa, marosim bir xil xalq doirasida keskin lokal farqlanishlarga ham ega bo'ladi. Shuningdek xar qanday marosim o'zi mansub bo'lgan xalq urf-odatlarining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, marosimdan urf-odat elementlarini qidirib topish mumkin, lekin urf-odatdan marosimni qidirib bo'lmaydi. Bu o'rinda biroz boshqacharoq tarzda folklorshunos B.Sarimsoqov ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, xar qanday marosim urf-odat hisoblanadi, ammo har qanday urf-odat marosim bo'la olmaydi.

Tadqiqotchi olimlar tomonidan o'zbek marosimlari ikkita katta guruhga - oilaviy-maishiy va mavsumiy marosimlariga bo'lingan. Biz mazkur ikki guruh marosimlar haqiqatdan ham marosimlarning asosiylaridan ekanligini rad etmagan va mazkur klassifikasiya to'g'ri tasniflash ekanini e'tirof etgan holda marosimlar tasnifiga diniy marosimlarni ham kiritish lozim deb hisoblaymiz. Chunki marosimlarni mohiyatan tahlil qiladigan bo'lsak diniy marosimlar alohida mustaqil turkumni tashkil etishini anglash qiyin emas.

Insonning hayot yo'li bilan bog'liq holda bajariladigan marosimlarning aksariyatini oilaviy urf-odat va marosimlar tashkil qiladi. Oilaviy-maishiy marosimlarni esa oilaning u yoki bu a'zosi hayotidagi muhim voqealarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, quyidagilarga ajratib ko'rsatish mumkin:

- oilada farzand tug'ilishi va uning tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va marosimlar;
- nikoh-to'y marosimlari;
- oila a'zosini so'nggi yo'lga kuzatish, ya'ni dafn etish va ta'ziya bilan bog'liq urf-odat va marosimlar.

O'rta Osiyo xalqlari tarixi bilan bog'liq milliy bayramlar ham bor: Mustaqillik bayrami, Navro'z, Mehrjon, Boychechak, Gul sayli va boshqalarni nishonlash an'anaga aylanib bormoqda.

Marosimlar tarkibidagi ikkinchi katta turkum marosimlarga yilning turli fasllari bilan bog'liq mavsumiy marosimlar, ya'ni - qishgi, bahorgi, yozgi va kuzgi marosimlar kiradi. o'z navbatida mazkur turkum marosimlarni kuyidagicha ichki turkumlarga bo'lib tasnif etish mumkin:

1. Qishgi marosimlar. Bu turkum marosimlarga yas-yasun, gap-gashtak, birinchi qor yoqqanda o'tkazildagan "qor yog'di" kabi marosimlar kiradi.

2. Bahorgi marosimlar. Bunga dastlabki "shoxmoylar"- dalaga qo'sh chiqarish marosimi, dastlabki urug'ni erga tikish marosimi, Navro'z, sumalak sayli, "sust xotin", loy tutish, xasharlar kabi marosimlar kiradi.

⁷⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 96.

3. Yozgi marosimlarga “Choy momo”, qovun sayli, uzum sayli kabi marosimlar kiradi.

4. Kuzgi marosimlar. Bu turkum marosimlarga “Oblo baraka”, shamol chaqirish va hosil bayrami marosimlari kiradi.

- Diniy marosimlarga hayitlar, mavlud, Bibimushkulkusho, Bibi seyshanba, Bibichorshanba, zikr kabi marosimlar kiradi.

Ziyoratgohlarda o‘tkaziladigan marosimlar.

Urf-odat va marosimlar maishiy turmush va oila hayoti bilan bog‘langan ijtimoiy hodisadir. Urf-odat va marosimlar jamiyat taraqqiyotining ilk davrlaridanoq shakllanib, rivojlanib kelgan. Kishilar o‘z hayotlari davomida ko‘plab urf-odat va marosimlarda ishtirok etishga tortiladilar, bevosita uning qatnashchisiga aylanadilar.

Har qanday urf-odat va marosimlar muayyan etnosning boshqa etnoslardan farqlanib turishini ta’minlovchi muhim etnografik belgilardan biridir. Ayni vaqtda ushbu urf-odat va marosimlarda inoetnik jihatlar ham aks etib turadi. Negaki, har bir etnosga xos madaniyat mazkur etnosning boshqa etnoslar bilan uzoq davom etgan etnogenetik va tarixiy-madaniy aloqalari natijasining mahsulidir. Bunday jarayon ma’naviy madaniyatda ham, jumladan, urf-odat va marosimlarda ham namoyon bo‘ladi.

3. Odamlarning oilaviy, xo‘jalik, jamoaviy, diniy udum, urf-odat va marosimlari yil fasllarini, haftalarni aniqlovchi, ularni belgilab beruvchi vaqt hisobi – taqvimlarga asoslanadi. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan yil taqvimi bilan bog‘liq xalqona tasavvurlar va diniy qarashlarni o‘zida mujassamlashtirgan bunday marosimlar taqvimiy marosimlar deb yuritiladi. Ular *Navro‘z, Darveshona, qo‘sh oshi, shoxmoylar, urug‘ sepish, turli (lola, boychechak, suv, qum, qovun...) sayillar, yomg‘ir chaqirish, shamol to‘xtatish va chaqirish, hosilni yig‘ib olish, Mehrjon, birinchi qor, qor xat, gap-gashtak, chorvani yaylov va qishlovlarga haydash, jun qirqimi, to‘l olish, Ramazon va Qurbon hayitlari* kabilardan iborat.

Xalq turmush tarzi va ma’naviyatining tarkibiy qismini uning azaliy udumlari, odat marosimlari va bayramlari tashkil qiladi. Shu bois, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ma’naviy tiklanish haqida gapirganda xalqning azaliy qadriyatlarni tiklash borasida olib borilgan ishlarni ham alohida ta’kidlash lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov farmoni bilan 1991 yildan boshlab har yili 21 mart – “Navro‘z” bayrami umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo‘ldi. Bu kun dam olish kuni deb e’lon qiligan.

Xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri, sevimli bayrami hisoblanmish “Navro‘z” bayramining xalqimizga qaytarib berishi mamlakat tarixida katta voqea bo‘ldi.

Darhaqiqat ajdodlarimiz Navro‘zni juda muqaddas deb bilganlar, uni g‘oyat qadrlaganlar. Navro‘z kunlarda qadimda, hatto, urushlar ham to‘xtatilgan, el-yurt osoyishta hayot kechirgan. Navro‘z go‘zallik va yaxshilik, mehr-oqibat, muruvvat bayrami sifatida qadrlangan. Shuning uchun ham bu shodiyona kunlarda inson dilini og‘ritish juda qattiq gunoh hisoblangan. Bir-birilarini muborak ayyom bilan qutlab, yaxshi tilaklar izxor etganlar. Gina-kuduratlar unutilgan, adovat o‘rniga

ezgulik tuygʻulari joʻsh urgan. Ana shu el ardoqlagan, avloddan-avlodga oʻtib kelgan azaliy anʻana yana hayotdan mustahkam joy ola boshladi.

Bu qadimiy bayramni xalqimiz nihoyatda orziqib kutishining yana bir boisi shundaki, Navroʻz rizq-roʻzimiz boʻlmish dehqon yilining boshlanishi hamdir. Navroʻzning bayram qilinishi teran xalq anʻanalari, yerga va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlish, dehqon mehnatini hurmat qilish, yaxshi qoʻshnichilikka, mehr-muruvvatga va boshqalarning dardiga malham boʻlishga intilishlari tiklanishining qudratli omili boʻlmoqda.

Har bir jamoa, muassasada nishonlanadigan bunday bayramlar, kishilarda xalqimizning qadimiy anʻanalariga xurmat, mehnatga muxabbat hissini tarbiyalaydi. Bundan tashqari, maʼnaviy hayotdagi diniy bayramlar, xayit kunlarining mamlakatda umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi uchun keng yoʻl ochilgani ham maʼnaviy poklanishning muhim koʻrinishidir.

“Mustaqillik sharoitida qayta tiklanib, istiqlol gʻoyalari bilan sugʻorilib, mazmunan va shaklan boyigan Navroʻz bilan birga yangilanish, ruhiy poklanish, tabiiy va madaniy boyliklarni saqlashga chorlash, atrof muhitni (mahalla, qishloq, shahar koʻchalari, maʼmuriy binolar, bogʻlar) tartibga solish, obodonlashtirish, aholi oʻrtasida mehr-muruvvat, doʻstlik, ahillik, birodarlikni mustahkamlash, millatlararo hamjihatlik, totuvlikni rivojlantirish omillari ham kuchaydi. Navroʻz xalqimiz uchun poklanish, ruhlanish, yangilanish va maʼnaviy kamol topish bayrami boʻlib qolmoqda. Qadimiy Navroʻz oʻzining asl mohiyatini saqlab, yangi gʻoyalar bilan boyib, ahillik, totuvlik, xalqlar birdamligi va doʻstligi bayramiga ham aylangan”⁷⁵.

Oʻzbek xalqining ijtimoiy va oilaviy sharoitidagi mavjud marosimlarning har birida bir qancha urf-odatlar, irim-sirimlar va rasm-rusumlar mujassamlashgan. Marosim va odatlarning koʻpchiligi, xalqimizning asrlar davomida amal qilib kelgan milliy qadriyatlardir. Sobiq ittifoq davrida olib borilgan mustamlakachilik va ateistik siyosat natijasida koʻplab milliy, anʼanaviy qadriyatlarimiz bilan bogʻliq anʼanalar va urf-odatlar taʼqib ostiga olinishi maʼlum maʼnoda maʼnaviy sabab boʻldi.

Oʻzbekiston milliy mustaqillikka erishgach, xalqning qadimiy va azaliy qadriyatlari asta-sekin tiklandi va ularning koʻpi xalqimiz turmush tarzidan oʻzining munosib oʻrnini topdi. Oʻz navbatida, sovetlar davrida kommunistik mafkura ostida olib kirilgan ayrim marosimlar xalq turmushidan chiqib ketdi va yangi qator zamonaviy marosimlar ham kirib keldi.

Atamalar va asosiy tushunchalar:

Milliy urf-odatlar – millatning turmush tarziga singib ketgan, uning shakllanishi va rivojiga xizmat qiladigan ijtimoiy-madaniy hayotida oʻz aksini topgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, koʻpchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va koʻnikmalar koʻrinishidir.

Anʼana – tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, ajdodlardan avlodlarga meros boʻlib oʻtadigan, kishilar

⁷⁵ Maʼnaviyat: asosiy tushunchalar izohli lugʻati. / Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. Tahrir hayʼati: X.Sultonov va boshq. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-mabaa ijodiy uyi, 2009. – B.760.

madaniy hayotiga ta'sir o'tkazadigan madaniy xodisadir. An'ana o'ziga xos ijtimoiy qoida tarzida kishilar onggiga singan (umum yoki ma'lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi.

Marosim – bu shartli, an'anaviy xarakterli, bevosita amaliy maqsadli muvofiqlikdan holi bo'lgan, biroq muayyan ijtimoiy munosabatlarning ramzi bo'lib xizmat qiladigan, ularni amaliy ifoda etadigan shaklidir.

Beshik to'y – O'zbekistonda keng tarqalgan qadimiy odatlardan. Bola tug'ilganda yetti, to'qqiz, o'n birinchi kunlari yoki kelin-kuyovning ota-oanlarining o'zaro kelishuvlari bilan belgilangan kunda asosan qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar ishtirokida o'tkaziladigan tantanali marosimdir.

Milliy o'yinlar – ma'lum bir elat, xalq va millatga xos bo'lgan bolalar va o'smir hamda kattalar o'yinlari bo'lib, ularda milliy qadriyatlar mujassam bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Urf-odat nima va uni tushuntiring.
2. Bugungi kunda urf-odatlarning o'rni qanday?
3. Etnologiya qanday fan?
4. An'ana, marosim deganda nimani tushunasiz?
5. O'zbek halqining qanday urf-odatlari bor?
6. Mustaqillikdan so'ng qanday milliy an'analar qayta tiklandi?
7. Navro'z bayrami tarixi haqida nimalar bilasiz?
8. An'anaviy nikoh to'yga qatnashganmisiz?

10-MAVZU: EKOLOGIK MADANIYAT – MA'NAVIY QADRIYAT SIFATIDA

Ma'ruza rejasi:

1. *Ekologiya va madaniyat.*
2. *Ekologik tarbiya bugungi zaruriyat.*

Mavzuning maqsadi: *Talabalarga ekologik madaniyatning ilmiy-nazariy jihatini, uni ma'naviy qadriyat sifatidagi ahamiyati muhim ekanligini faktlar asosida tushuntirib berish.*

1. Ekologik madaniyat, muxtasar qilib aytganda, tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglagan holda, unga zarar yetkazmay asrab-avaylashdir. Uning taraqqiyoti ekologik ta'lim-tarbiya hamda ekologik ma'lumotlarni aholiga yetkazish – targ'ibot-tashviqot qilish bilan chambarchas bog'liq. Binobarin, ekologik madaniyat zahirida ekologik ta'lim yotadi. U esa tabiatni muhofaza qilishni ilmiy asoslari uchun zarur bilimlarni chuqur o'zlashtirish jarayoni va natijasi hisoblanadi. Shuningdek, ekologik madaniyatni keng va tor ma'nolarda tushunish mumkin. Keng ma'noda, ekologik madaniyat – atrof-muhitni muhofaza qilish uning oldida burch va mas'uliyatni anglagan xolda tabiatga ongli munosabatda bo'lish. Ona tabiatni asrash yo'lidagi faoliyat. Tor ma'noda har bir shaxsning tabiatni muhofaza qilish madaniyati deyish mumkin.

Sobiq ittifoq davrida atrof-muhit bilan bog'liq munosabatlarda yo'l qo'yilgan hatolarni tuzatish, shaxsning ekologik madaniyatini rivojlantirish istiqbol yillarida respublika ma'naviy-ma'rifiy muassasalari faoliyatidagi muhim vazifalardan biriga aylandi.

Ayni paytda, jamoatchilik e'tiborini, ijtimoiy fikrni atrof-muhitni asrash va uni himoya qilish masalalariga qaratish g'oyat dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, kishilarda atrof-muhitni asrash madaniyatini yuksaltirish davlat boshqaruvi va ma'naviy-ma'rifiy muassasalar faoliyati diqqat-e'tiborida bo'lmog'i lozim.

Ijtimoiy ongning o'zgarishi, qadriyatlarga munosabatlarni ekologik yo'nalishdagi ma'naviy madaniyatning qayta ko'rib chiqilishi, chuqur tushungan holda sayyoramiz hayotiga yangicha qarashning shakllanishi uzoq davom etadigan va qiyin kechadigan jarayondir. Bu ma'noda ekologik madaniyat muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy ekologik madaniyat tarixini ilmiy tahlil etishning yangi nazariy-uslubiy asoslarini, aniq amaliy usul-vositalarini ishlab chiqish muhim vazifa sifatida quyidagilar e'tirof etilishi zarur.

- Etnoekologik madaniyat genezisi va shakllanishining tarixiy bosqichlarini o'rganib, uni rivojlantirishga doir nazariy, amaliy va metodologik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat;

- Milliy madaniyat taraqqiyotida ekologik madaniyatning o'ziga xos o'рни, funksional ahamiyati ko'rsatilgan.

- Ekologik madaniy meros rivojida vorislik munosabatlari va uni rivojlantirishning usul-vositalari ko'rsatilgan.

- Ekologik madaniyat tarixini o'rganish, metodikasi va metodologiyasini takomillashtirish;

- Ijtimoiy faoliyatning maxsus shakli sifatida aholi ekologik madaniyatining maqomini tiklash va rivojlantirish;

1. Xalq ekologik falsafasi – o'z ichiga noyob g'oyalar, afsona, dunyoqarash, e'tiqod, umuman tabiatga munosabatni o'z ichiga olgan. Xalq ekologik falsafasining asosiy muammosi insonni tabiatga ongli ravishdagi munosabatlardan iborat. Xalq ekologik falsafasi afsona, maqola, rivoyat, dostonlarda aks etgan. Bu ekofalsafa xalq qo'shiq, raqs, tomoshalarida yoritildi⁷⁶.

Prezident Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli strategik ahamiyatga molik kitobida haqli ravishda ta'kidlaganidek: Ma'naviy-ruhiy tiklanish insonning yerga va uning boyliklariga bo'lgan munosabatni ham o'z ichiga olishi lozim. Sivilizasiya belgilarini asrab-avaylash qanchalik zarur bo'lsa, qishloq xo'jaligi ming yillar mobaynida butunlay sug'oriladigan dehqonchilikka asoslangan mintaqada yer va suvni asrab-avaylash ham shunchalik muhimdir. Yer, havo, suv va olov (Quyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e'zozlab kelingan,

⁷⁶ Karabayev U. Etnokultura: (Tradisionnaya narodnaya kultura). Akademiya xudojestv Respubliki Uzbekistan, Nasionalniy in-t xudojestv i dizayna im. K. Bexzoda. – Tashkent: Sharq, 2005. – S. 30.

ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlari tomonidan munosib qadrlab kelingan⁷⁷.

Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat unsurlarini ilohiylashtiruvchi tasavvurlarga nisbatan mukammalroq ta'limot edi. Shu bois jahon madaniyati durdonasiga aylangan, ajdodlarimiz tafakkuri taraqqiyoti mahsuli bo'lgan "Avesto"ni tarixiy-etnologik jihatdan o'rganish o'sha davrdagi atrof-muhitni asrash bilan bog'liq masalalarga aniqlik kiritadi.

Dunyoda dinlarni insonlarga yetkazuvchi, ijtimoiy-madaniy hayotda va tarixda o'chmas iz qoldirgan siymolar ko'p bo'lgan. Shulardan biri Zardushtdir. U miloddan avvalgi VII asr oxiri VI asr birinchi yarmida Axura-Mazdani yakka-yagona Iloh deb e'lon qilib, tarixda birinchi bor vahdoniyat g'oyasiga tayangan – zardushtiylik diniga asos solgan.

Zardushtiylik kosmogonikasi bo'yicha Yer gardish shaklida, namlik, suv hamma narsaning asosi, yerni okean qurshagan, u xuddi suvdagi taxtadek. Ana shu aqidaga ko'ra, zardushtiylar suvni hatto olovdan ham ortiqroq e'zozlashgan.

Kishilarni suv, havo musaffoligi va tuproq unumdorligini saqlashga da'vat etgan zardushtiylik aynan bizning zaminimizda vujudga kelganligi tasodifiy emas. Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga nisbatan mukammallashgan, yakkaxudolik ta'limotidir. Ta'limotda behuda qon to'kuvchi qurbonliklarni qoralab o'troq hayot kechirishga, jismoniy mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga oid qat'iy qoida va talablar bayon etilgan.

Zardushtiylikdagi ko'plab marosimlar ko'pgina etnoslar turmush tarzida hanuzgacha saqlanib kelmoqda. Jumladan, dehqonlar hayoti, mehnati va hosilni yig'ish bilan bog'liq holda o'tkaziladigan bayramlarning ko'pchiligi bevosita zardushtiylik an'analari bilan bog'liqdir. "Avesto"da ("Vandidod" 3-fargard, 24-band) "Uzoq zamon ekilmagan va omoch tegmagan zamin baxtsizdir. U omochni orzu qiladi. Bunday zamin balog'at pallasiga kirgan sohibjamol qizdir. Bu qiz farzand va yaxshi yostiqdoshga intiqdir",⁷⁸ deyiladi.

Zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lgan qadimiy marosim, urf-odat va bayramlarimizning qimmatini va afzalliklaridan biri shundaki, ular ajdodlarimizning tabiiy ehtiyojlari zaminida paydo bo'lgan. Shu boisdan ham ular tabiat bilan uzviy bog'liq va har biri mehnat jarayoni hamda kundalik turmushning muhim voqealariga bag'ishlangan.

Zardushtiylik an'alarining izchil rivoji davomida yetti "barhayot azizlar" va ularning mifologik tabiatini o'zida timsollashtirilgan yetti narsa – havo, tuproq, suv, o'simlik, sigir, odam va olov sharafiga yettita marosim hamda bayramlarni o'tkazish udumi ham kelib chiqqan. Ana shunday bayramlardan ikkitasi baxt-saodat, ezgulik, samoviy tartibot va haqiqat ramzi sifatida ulug'langan iloha Asha nomi bilan bog'liq holda kelib chiqqan bo'lib, bu qadimiy udumlarning asrlar

⁷⁷ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B. 145.

⁷⁸ Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001 – B. 114.

davomida muayyan o'zgarishlarga uchragan ko'rinishlari xalqimizning yilboshi – Navro'z bilan aloqador an'anaviy marosimlari tizimida saqlanib qolgan⁷⁹.

Insoniyat ma'naviy yuksalishidagi eng buyuk cho'qqilaridan biri tabiat va odamzod hayotidagi o'zaro uyg'unlik va mutanosiblik mavjudligini idrok etish hisoblanadi. Tun ortidan kunning kelishi, daryolarning yuqoridan quyiga oqishi, issiq bilan sovuq, achchiq bilan chuchuk, yaxshi bilan yomonning farqiga borish odamning inson bo'lib shakllanishida o'ta muhim ahamiyat kasb etgan. Buni qadim zamonlarda yashab o'tgan ajdodlarimiz tarixi, dini, san'ati, tabobati to'lato'kis isbotlab turibdi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi yozma yodgorligi – "Avesto" kitobi qismlari bilan tanishish chog'ida ming yillar burun hayot kechirgan odamlar dunyoqarashi, atrof-muhitga munosabati nechog'lik murakkab ravishda shakllanganiga guvoh bo'lamiz.

Inson hayotining davomiyligi quyosh, suv, yer, va havo bilan bog'liq. Ularning meyoriy doirada mushtarakligi talab etilgan mintaqalarda tabiatning bu to'rt unsuriga topinish, sig'inish hayot talabi asosida paydo bo'lgan. Bunday mintaqalarning har ikki xo'jalik yo'nalishi, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik ularni ilohiylashtirishga olib kelgan. Ajdodlarimiz ularsiz hayotni tasavvur eta olmaganlar. O'zbekistonning barcha hududlarida bunga katta ehtiyoj sezilgan. Shuning uchun o'zbek xalqining ilk ajdodlari yashagan barcha hududlarda har ikki xo'jalik yurituvchilarining diniy-ma'naviy dunyosida zardushtiylikning roli va o'rni katta bo'lgan. Demak, zardushtiylik dinining atrof-muhit bilan bog'liq qarashlarni har tomonlama o'rganish ekologik madaniyat tarixini yoritishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kishilarda uy-ro'zg'ori ozodaligi, atrof-muhit pokizaligi, tabiatni muhofaza qilish xususidagi fikrlar, g'oyalar hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Zardushtiylarning asosiy mashg'ulotlari chorvachilik va dehqonchilik bo'lganligi uchun ular uy hayvonlariga ijobiy munosabatda bo'lganlar. Masalan, sigirlar, otlar va itlar ancha e'tiborda bo'lgan. Mabodo qurbonlik qilib, mol so'yilsa, uning tili va chap jag'i kohin oldiga qo'yilgan. Bundan tashqari qurbonlik qilingan mol go'shti ibodatdan so'ng kohinlar va diniy marosimda ishtirok etgan kishilar o'rtasida taqsimlangan. Bunday qurbonlik yoki "xudoyi" – qo'y so'yish, pishirilgan kallani keksalar oldiga qo'yish, so'yilgan tana go'shtini "xomtalash" qilib, qo'ni qo'shnilariga tarqatish udumi hozir ham xalqimiz o'rtasida uchrab turadi⁸⁰.

Markaziy Osiyo hududida esa tuproq va olovni e'zozlash (miloddan 6–7 ming yil muqaddam shakllangan Joytun madaniyati yodgorliklarida), to'rt unsur (suv, olov, tuproq va havo)ga e'tiqod (6–5 ming yil muqaddam Qadimiy Xorazmda), Tangriga e'tiqod (miloddan 7–8 ming yil muqaddam shakllangan Qadimgi Turon madaniyati yodgorliklarida) singari diniy va falsafiy g'oyalar vujudga kelgandir. Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning falsafiy g'oyalarida inson bilan tabiat kuchlari o'rtasidagi ziddiyat muammosi birinchi o'rindagi masala qilib ko'tarilgan. Avvalo, hamma narsaning ibtidosi Quyoshga, olovga intilish muqaddaslashtirilgan, chunki Turon madaniyati vujudga kelgan hududlarning qishi

⁷⁹ Jo'rayev M. O'zbek mavsumiy marosim folklori. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 119.

⁸⁰ Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 364.

nihoatda sovuq bo'lib, undan omon qolgan kishilargagina Quyoshning hayotbaxsh haroratini his qilish nasib qilgan. Shu tariqa kishilar Quyoshni e'zozlab, unga sig'inganlar. Ko'pchilik g'arb tadqiqotchilari ta'kidlaganidek, Quyoshga e'tiqod janubda, Eronda shakllangan emas. Quyoshning hayotbaxshligini faqatgina Markaziy Osiyoning shimoliy hududlarida yashagan xalqlargina yaxshi anglab yetgan bo'lishi kerak. Ayrim manbalar sovuqning hatto - 78*S gacha borganligini tasdiqlaydi⁸¹. Abu Rayhon Beruniy "Mina kechasi" kuni haqida shunday yozgandi: "Mina ismli hukmdor ayol kechasi mast holda ipak kiyimda tashqariga chiqadi va u joyda yiqilib hushdan ketib qoladi. Bahor fasli bo'lishiga qaramasdan, sovuqdan qotib o'ladi⁸². Bu misol Xorazm hududida naqadar qahraton sovuq bo'lishidan dalolat beradi. Qadimgi Xorazmda topilgan miloddan 8–7 ming yil avval bunyod etilgan olovxonalar, zardushtiylarning ibodatxona qoldiqlari fikrimizning haqligiga dalildir.

Qadimgi ajdodlarimiz uchun ozodalikka intilish, diniy marosimlarni o'tkazishda ishlatilgan idishlarni yuvib, saranjom-sarishta qilish ham zarur edi. Chunki, ozodalik, tozalik turli-tuman ifloslik va yomonliklardan kishini asraydi, deb tushunilgan. Bunday odatlarning hozir ham o'zgacha tasavvurlar qanotida bizgacha yetib kelganini ko'ramiz. Ona va momolarimiz kechqurun ishlatilgan qozon va idish-tovoqlarni yuvib-tozalab, har qanday sharoitda ham ularni ertalabga yuvuqsiz qoldirmaydilar. Bu narsani nihoyatda xosiyatsiz narsa deb biladilar.

"Avesto"da doimiy badantarbiya bilan shug'ullanish, kunda yuz qo'lni bir necha marta yuvish, qo'lni yuvmasdan turib tananing boshqa joyini ushlamaslik, sochni toza tutib tirnoqlarni tozalab turish maslahat berilgan. Chunonchi, "Vendidot"ning 17-bobida shaytonning najosati to'planadigan va kesib tashlanadigan tirnoq va sochni nima qilish kerakligi to'g'risida yo'l-yo'riq berilgan.

XXI asrga kelib ekologik madaniyatni yuksaltirish bilan bog'liq masalalar davlatimizning muhim tadbirlaridan biriga aylandi. Bu borada ma'naviy va madaniy merosimiz dunyoviy hamda diniy bilimlarga asoslanib, keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi. Bir so'z bilan ifodalanganda, atrof-muhitni asrash muammosi ham davlat ahamiyatiga molik masalalar qatoriga qo'shildi.

Yurtimizda islom dini taraqqiy etishi bilan bir qatorda mahalliy xalqning diniy dunyoqarashi ham shakllanib borgan. Ma'lum ma'noda o'troq va ko'chmanchi chorvadorlar turmush-tarzida diniy dunyoqarashlar aralashib, xalqona islom yuzaga keldi. Farg'ona vodiysi o'zbeklarining an'anaviy-diniy qarashlari asosida tabiatdan foydalanish qoidalari shakllangan. Chunki, aksariyat hollardagi qadimiy buloq, daraxt, noyob o'simlik turlarini asrash bilan bog'liq odatlar xalqda atrof-muhitni asrash, diniy va ekologik ong rivojlanishida g'oyat muhim ahamiyat kasb etgan.

Atrof-muhitni asrash bilan bog'liq qadriyatlar esa insonda tabiat ne'matlariga ongli munosabatni shakllantirgan. O'simlik va hayvonot olamiga ijobiy munosabat ham ekologik madaniyatning asosiy belgilaridan biridir.

⁸¹ To'rayev B. Falsafa tarixining qisqacha bayoni // Imom Al-Buxoriy saboqlari. 2010 yil. 2-son. – B. 137.

⁸² Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 281.

Muqaddas kitob Qur'oni Karimda aks ettirilgan, Alloh tomonidan yaratilgan ne'matlariga bo'lgan munosabatlarga oid oyatlar ham xalq tasavvuri va ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Quyida Qur'oni Karim oyatlaridan namuna keltiramiz:

Albatta, osmonlar va Yerning yaratilishida, kecha va kunduzning almashib turishida, odamlar uchun foydali narsalar orilgan kemalarning dengizda suzishida, Alloh osmondan tushurib, u sababli "o'lik" yerni tiriltirgan suvda, turli jonzotlarni unda (yerda) tarqatib qo'yishida, shamollarni (turli tomonga) yo'naltirishida va osmon bilan yer orasidagi bo'yin sundirilgan bulutda aqlni ishlatadigan kishilar uchun alomatlar (Allohning vujudi va qudratiga dalillar) bordir. Baqara surasi, 164-oyat.

Hozirda yurtimizda ta'limning barcha bosqichlarida ekologiya fani maxsus o'qitilmokda. Bu fan tirik organizmlarning yashash sharoiti va ularning o'zi yashab turgan muhit bilan o'zaro murakkab munosabati hamda shu asosda vujudga keladigan qonuniyatlarni o'rganadi. Ayni davrda texnologik taraqqiyotning atrof-muhitga ta'siri natijasida ekologik madaniyat tushunchasi tobora kengayib bormoqda. Biz "ekologiya"ni asrash va "tabiatni muhofaza qilish" iboralarini ko'p qo'llaymiz. Xo'sh, bu tushunchalar o'rtasida qanday umumiy jihat va farqlar mavjud?

"Tabiatni muhofaza qilish", deganda biz tabiatni yaxlit holatda yoki uning yer, havo, o'simliklar dunyosi, hayvonot dunyosi kabi ayrim komponentlarini muhofaza etishni tushunamiz. "Ekologiya" ham bu funksiyalarni o'z zimmasiga oladi. Biroq, u barcha tirik jonzotlarning yashash muhitini, ularning o'zaro munosabatlarini o'rganuvchi tabiiy fanlar qatoriga kiradi. Demak "ekologiya" ham tabiat, ham insoniyatni muhofazasiga qaratilgan ta'limot.

Ispan olimlarining hisob-kitobiga qaraganda, butun dunyoda atmosfera havosiga tashlanadigan chiqindilar quyidagicha: Karbon suvlar 1 mlrd 353 mln tonna, is gazi 3 mlrd 354 mln tonna, karbon 237 mln tonna, azot oksidi 177 mln tonna, sulfat angidridi 394 mln tonna, bularning ma'lum qismi yerga tushadi va cho'kadi⁸³. Bugungi kunda ana shu achchiq haqiqatni anglab yetgan insoniyat qo'lni-qo'lga berib, yakdillik bilan bu borada zarur choralarni ko'rishga harakat qilmoqda. Bizningcha, bu say-harakatlarni samaradorligi ekologik madaniyatning aholi ongida nechog'lik shakllanganligi bilan o'lchanadi.

2008 yil 2 avgustda tashkil etilgan O'zbekiston ekologik harakati siyosiy maslagidan qat'i nazar, barcha uchun birdek daxldor bo'lgan atrof muhitni muhofaza qilish, ekologik ahvolni yaxshilash, odamlar salomatligi uchun kurashishdek muammolarni hal etishda davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning say-harakatlarini safarbar etish yo'nalishida faoliyat olib boradigan ommaviy jamoat harakati hisoblanadi.

O'zbekiston MDH davlat boshliqlarining 1992 yil 8 fevralda imzolangan Bitimiga muvofiq tuzilgan MDH mamlakatlari Davlatlararo Ekologiya Kengashining to'la huquqli a'zosidir. MDH mamlakatlarining ana shu ekologiya Kengashi doirasidagi hamkorligi a'zo davlatlarning atrof- muhitni muhofaza qilish

⁸³ Otaboyev Sh., Mirvaliyev S., Tursunov E. Ekologiyada madaniyat va ma'naviyat muammolari. – Toshkent: "Nishon noshir" nashr., 2009. – B. 172.

sohasida kelishib olingan, muvofiqlashtirilgan say-harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydi⁸⁴.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni", "Sog'lom avlod uchun" ordenini ta'sis etilishi, shu nomda Davlat dasturi, "Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi"ning ishlab chiqilishi, "Ekosan" jamg'armasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga kirishilganidan dalolatdir. Ekologik savodxonlik va madaniyat oiladan boshlanadi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bog'liqdir.

Bugungi kunda ta'limning hamma bosqichlarida maxsus liseylarda ekologiya fani o'qitilmoqda. Ekologiya inson faoliyati uchun zarur bo'lgan fanlar qatoridagi mustaqil fan hisoblanadi. U tirik organizmlarning yashash sharoiti va ularning o'zi yashab turgan muhit bilan o'zaro murakkab munosabati hamda shu asosda vujudga keladigan qonuniyatlarni o'rganadi. Bugungi kunga kelib ekologiya sof pedagogik fanlar tizimidan o'rin oldi. Zamonaviy fan va texnika taraqqiyotining atrof-muhitga ta'siri natijasida ekologiya tushunchasi kengayib ketdi. Insonning tashqi muhitga munosabati boshqa tirik organizmlardan tubdan farq qiladi. Ijtimoiy ekologiya ijtimoiy fanlardan biri hisoblanib, uning predmeti inson bilan uning atrof-muhit o'rtasidagi xususiy bog'lanishlarini o'rganishdan iborat. Umuman, ekologiya bugungi kunda tabiiy va ijtimoiy fanlar jumlasiga kirib, o'rganilayotgan obyekt yoki tizimni atrof-muhit bilan munosabatini keng miqyosda tadqiq etadi.

A.A.Melkumova va G.I.Lyubkorskiylarning ta'kidlashicha, ekologik madaniyat asosan 5 ta tarkibiy qismlardan: e'tiqod, bilim, ko'nikma va malaka, faoliyat va xulq atvor meyorlaridan hamda his tuyg'ulardan iborat.

Yuqoridagi tadqiqotchilar fikricha "Ekologik madaniyat" tushunchasining asosiy negizlari bu – ekologik bilimlar, ekologik ong, tabiatni muhofaza qilishga oid amaliy ko'nikma va malakalardir.

70-yillar boshida rus olimi V.P.Alekseyev "antropogenez" konsepsiyasini olg'a surdi. U shuningdek, xalqlar populyasion (tarqaluvchan) uzoq yashovchanligining tashqi muhitga etnomadaniy moslashuvi bilan belgilanishi haqidagi taxminga asoslangan kompleks antropologo–biologik, ijtimoiy – etnografik tadqiqotlar o'tkazadi. Bu ham etnik ekologiya shakllanishiga turtki bo'ldi. Bu fan endi an'anaviy, o'ziga xos madaniyat yaratuvchi etnoslarning tabiiy muhit bilan o'zaro aloqalarini, ularning o'z hayotlarini ta'minlash tizimlari xususiyatlari, etnoslarning tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatishi, ekosistemalarning shakllanishi va amal qilish qonuniyatlarini o'rgana boshladi⁸⁵.

Etnik ekologiya shakllanishida V.P.Alekseyevning "Insoniyatning vujudga kelishi" nomli asari katta ahamiyat kasb etgan. Bu qimmatli asarda muallif "antropogeosinoz" konsepsiyasini asoslab bergan. Unga muvofiq antropogeosinoz

⁸⁴ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr... 1997. – B. 131.

⁸⁵ Ashurov A. S., Isayev A.Sh. Etnos va ekologik omillar // O'zbekistonda etnodemografik jarayonlar. 1-qism. – Toshkent. 2005. – B. 19.

xo‘jalik yaratuvchi jamoa va u tomonidan o‘zlashtirilgan hudud birligi deb talqin etiladi⁸⁶.

Antrpogeosinozning asosiy belgilari quyidagilar: xo‘jalik jamoasi; ishlab chiqarish faoliyati; hudud. Kiyim kechaklar, mehnat qurollari, xom ashyo bilan birga jamoadan mehnat tajribasini o‘stirish ham etnos hayotida muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rinda bilimlar, an‘analari ham etnosning yashash muhitiga (tabiiy va madaniy makonga) moslashuvda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Misol uchun, xo‘jaligi ovchilikka asoslangan jamoalar hayoti ular yashaydigan hududdagi hunarning boyligiga bevosita bog‘liq, aks holda etnos hayoti uchun tahdid, xavf yoki murakkabliklar tug‘dirishi mumkin. Umuman, etnosning hayoti va faoliyati hamda uni o‘rab turgan tabiiy va madaniy muhit yagona makon –ekosistemani tashkil etadi.

Hozirgi davrga kelib “etnoekosistema” tushunchasi shakllanib kelmoqda. Boshqa odamlar guruhidan nisbatan alohida mavjudlik sharoitida hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirish an‘analari va uslublari bilan bog‘langan odamlar guruhi etnoekosistema deb yuritiladi.

Etnoekosistema doirasidagi demografik vaziyat bu – aholi o‘sishi va kamayishi o‘rtasidagi buzilgan muvozanatni qayta tiklash qobiliyatidir. Bu asosakn migrasiya, shuningdek, xo‘jalik faoliyati turini o‘zlashtirish, tabiiy resurslardan foydalanishni tezlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu esa ko‘p jihatdan etnosning o‘zi yashaydigan hudud sharoitlariga ijtimoiy – madaniy moslashuvchanligiga bog‘liqdir. Shu bois jamiyatda demografik jarayonlarni ongli ravishda tartibga solishni talab etadi.

2. Yoshlar ekologik madaniyatini tarbiyalash respublikamiz ma‘naviy-marifiy muassasalari faoliyatidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayni paytda ushbu muammo bo‘yicha jamoatchilik fikrining holatini hisobga olishni ham davrning o‘zi taqozo etmoqda. Jamoa diqqatini ijtimoiy fikrni atrof-muhitni asrash va uni himoya qilish masalalariga qaratish muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Kishilarni qiziqitira bilish, ularda ekologik masalalarni hal etish ishlariga jalb etish istagini uyg‘otish ma‘naviy-ma‘rifiy muassasalar faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi. “Aniqrog‘i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbai, o‘z mamlakatlarining kelajagiga, tabiiy boyliklari saqlanib qolishiga befarq qaramagan, bu haqda qattiq tashvish chekkan odamlarning esa “qalb nidosi” bo‘lib kelgan”⁸⁷.

Ijtimoiy ongning o‘zgarishi, qadriyatlarga munosabatlarni ekologik yo‘nalishdagi ma‘naviy madaniyatning qayta ko‘rib chiqilishi, chuqur tushungan holda sayyoramiz hayotiga yangicha qarashning shakllanishi uzoq davom etadigan va qiyin kechadigan jarayondir. Shu ma‘noda yuqoridagi fikrlar muhim ahamiyat kasb etgan.

Ekologik madaniyat murakkab va serqirra hodisa sifatida ijtimoiy hayotning barcha sohalariga daxldordir. O‘z navbatida jamiyat hayotining har qanday sohasini ham ekologik madaniyatning rivojisiz yuksaltirish mushkul. Bunday holat

⁸⁶ Isxakov B. B. Etnoekologik madaniyatga oid konsepsiyalar // Ilm sarchashmalari. 2011 yil. 1-son. – B. 36.

⁸⁷ Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – B.110.

madaniyatning ijtimoiy hodisa sifatidagi xususiyatini, uning rivojlanishining ijtimoiy belgilanganini ko'rsatadi. Shunday ekan, ekologik madaniyatga konkret-tarixiy yondashuvgina uning mohiyatini to'g'ri tushunish imkonini beradi.

Ayni paytda bunday yondashuv mavhum hodisa sifatida xususiyatlarini tan olmaslik hamda milliy-madaniy o'ziga xosliklarni mutlaqlashtirish orqali kishilik jamiyati taraqqiyotining birligi va uzviyligini inkor etishdek ikki yanglish yo'ldan saqlanish uchun zamin yaratadi.

Jahondagi har bir rivojlangan xalq (etnos) o'z urf-odatlarini, an'analarini, asori – atiqalari, xullas, boy moddiy va ma'naviy madaniyatiga egadir. O'zbeklar jahon sivilizatsiyasiga salmoqli xissa qo'shgan dunyodagi eng qadimgi xalqlardan biridir.

Moddiy madaniyat, uning xususiyatlari haqida gap ketar ekan, yana bir holatni ta'kidlash zarur. Insonning tabiat ustidan zo'ravonligi oqibatida ko'plab o'simlik va hayvon turlari. Bugungi kunda ana shu achchiq haqiqatni anglab yetgan nison bu borada zarur choralarni ko'rishga harakat qilmoqda. Genetika fanining rivoji, bu sohada so'nggi paytda qo'lga kiritilayotgan yutuqlar hatto qachonlardir qirilib ketgan hayvonlar turini tiklash masalasining muhokama obyektiga aylanishiga olib keldi. Yaqin kelajakda bu real voqelikka aylanishi ham mumkin. Ammo madaniyat namunalari nisbatan bunday qilib bo'lmaydi.

Ekologik madaniyatning tartibga solish vazifasi oilaviy marosimlar, urf-odatlarda ham yorqin ko'rinadi. Albatta, har qanday madaniyat normasi kishining ichki e'tiqodiga aylangan taqdirdagina uning faoliyatini tartibga soluvchi omil sifatida chiqa oladi. Shuning uchun ham, biz kishilarning ekologik madaniyat normalarini qay darajada o'zlashtirganini ularning turli sharoitlarda o'zlarini qanday tutishlariga qarab bilamiz. Kishilarning faoliyati, muloqotini tartibga solish, turmush tarzini rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarni ma'lum normalarga bo'ysundirish ekologik madaniyatning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Ajdodlarimiz ming yillar mobaynida yer, suv, havo, olov e'zozlaganlar. Afsuski, texnologik taraqqiyot oqibatida, qadimiy an'analar unitib yuborildi. Shu sababli o'zbeklarning o'tmish madaniyatini, tabiatdan oqilona foydalanishga qaratilgan marosimlarni yanada chuqurroq o'rganish, mohiyatini anglash bugunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mutafakkirlarning fikricha, tarixga ikki xil nuqtai nazardan yondashish mumkin. Ularning biri – tabiat, ikkinchisi – insoniyat tarixidir. Lekin, ular uzviy bog'liq, o'zaro aloqador. Chunki, inson boshqa tirik jonzotlardan tubdan farq qiladi. Inson moddiy va ma'naviy madaniyati o'rtasidagi uyg'unlik tarixiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Umuman olganda, moddiy va ma'naviy rivojlanish bosqichlari tabiatni muhofaza qilish ehtiyoji bilan to'qnash bo'lib kelgan. Aynan shu ziddiyatning kuchayishi ekologik vaziyatni keskinlashtirib, umumbashariy muammoga aylanganligi bugun hech kimga sir emas.

Moddiy ishlab chiqarish ham o'z mohiyatiga ko'ra ekologik madaniyatdir. Bu faoliyatda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish madaniyatini rivojlantirish shaxsning amaliy tashabbuskorligiga, g'oyaviy-siyosiy yetukligiga, ma'lumot darajasiga bog'liq. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida muayyan ekologik vaziyat yoshlarning fe'l-atvoriga, odob-axloqiga, sog'lom turmush tarziga daxldor ekanligini uqtirish lozim.

Ekologik madaniyat ko'p jihatdan huquqiy ong, huquqiy madaniyat va uning jamiyatdagi egallagan mavqeiga ham bog'liqdir. Shu boisdan ham ekologik tarbiyaning huquqiy asosi tabiatni muhofaza etishga doir qonunlarda, fuqarolarning konstitusion huquq va burchlarida o'z ifodasini topgan. Normativ hujjatlar kishining tabiat in'omlariga aql bilan yondashib, undan tejamkorlik bilan foydalanishini qonun doirasida nazorat qiladi.

Yoshlar ekologik ongini rivojlantirishda tabiatning bir butunligi, undagi, undagi barcha hodisa va jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, atrof muhitga munosabatni o'zgarishi BIOSfera haqidagi ta'limot organik olam evolyusiyasi, uning har xilligi va murakkabligi, tabiatdagi barcha jarayonlar asosini kimyoviy, biologik va fizikaviy jarayonlar birligi tashkil etishini anglash muhimdir.

Oliy o'quv yurti talabalari ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari, ularning mohiyati, tabiatdagi ekologik muvozanatning jonli tirik organizmlar hayotidagi roli, ularni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish, tabiiy ekosistemalarning har bir kompanentining tabiatdagi muvozanatni saqlashdagi rolini o'rganadilar. Mazkur yo'nalishdagi talabalar yuqoridagi tilga olingan mavzularda bitiruv malakaviy ishi va magistrlik hamda nomzodlik dissertasiyalarini ishlarni yozadilar.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ekologik madaniyatni yuksaltirish maqsadida amaliy ish olib borayotgan ekologlar faoliyatini yanada jonlantirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish, aholining ekologik ongini yangi bosqichga ko'tarish ehtiyoji tug'ildi. Bizningcha, masalaning respublikamiz hayoti uchun muhim ahamiyatini nazarda tutib, uning ilmiy-metodologik jihatlariga ham jiddiy e'tibor qaratish lozim. Ekolog, etnolog, sosiolog va huquqshunolar jam bo'lib, millatimiz mentalitetini inobatga olgan holda, ekologik axloq kodeksini ishlab chiqsalar, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qolaversa, sohadagi nazariy-konseptual bilimlarni ommaviy axborot vositalari yordamida ommalashtirish orqali fuqarolarda ekologik madaniyatni va ekologik ta'lim-tarbiyani shakllantirish ham ayni davrda g'oyat dolzarb ahamiyatga ega. Zotan, tabiiy muhit, o'simlik va hayvonot olami nainki biz, balki, kelajak avlodlar ham bahra olishi lozim bo'lgan mo'tabar boylikdir.

Atamalar va asosiy tushunchalar:

Xalq ekologik falsafasi – o'z ichiga noyob g'oyalar, afsona, dunyoqarash, e'tiqod, umuman tabiatga munosabatni o'z ichiga olgan. Xalq ekologik falsafasining asosiy muammosi insonni tabiatga ongli ravishdagi munosabatlardan iborat.

Etnoekologiya – etnik jamiyatlarni tabiat va ijtimoiy yashash sharoitlarda hayot faoliyati an'anaviy tizimlari alohida jihatlarini o'rganuvchi ilmiy dissiplina (fan) hisoblanadi. Tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglagan holda, unga zarar yetkazmay asrab-avaylashdir.

Etnoekosistema doirasidagi demografik vaziyat – aholi o'sishi va kamayishi o'rtasidagi buzilgan muvozanatni qayta tiklash qobiliyatidir. Bu asosakn migrasiya, shuningdek, xo'jalik faoliyati turini o'zlashtirish, tabiiy resurslardan foydalanishni tezlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu esa ko'p jihatdan etnosning

o'zi yashaydigan hudud sharoitlariga ijtimoiy –madaniy moslashuvchanligiga bog'liqdir.

O'zbekiston ekologik harakati – 2008 yil 2 avgustda tashkil etilgan O'zbekiston ekologik harakati siyosiy maslagidan qat'i nazar, barcha uchun birdek daxldor bo'lgan atrof muhitni muhofaza qilish, ekologik ahvolni yaxshilash, odamlar salomatligi uchun kurashishdek muammolarni hal etishda davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning say-harakatlarini safarbar etish yo'nalishida faoliyat olib boradigan ommaviy jamoat harakati hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ekologiya nima va uni tushuntiring.
2. O'zbeklarning an'anaviy ekologik madaniyati haqida gapirib bering?
3. Shaxs tarbiyasida etnoekologiyani o'rni qanday?
4. O'zbek halqi xos tabiat bilan bog'liq an'ana va marosimlarni gariring?
5. O'zbekistonda tabiatni asrash bilan bog'liq qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
6. Yoshlarni tarbiyalashda ekologig tarbiyani o'rni qanday?
7. Tabiatni asrash bilan bog'liq qanday ta'qiqlarni bilasiz?
8. Etnoekologiya nima va u qanday fan?
9. Hashar nima va uni tabiat bilan bog'liq jihatini gapiring?

11-MAVZU: MILLIY QADRIYATLAR TIZIMIDA ADABIYOT VA SAN'ATNING O'RNI

Ma'ruza rejasi:

1. *Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotining rivoji.*
2. *Zamonaviy san'atdagi o'zgarishlar.*

Mavzuning maqsadi: *Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyoti va san'ati sohalaridagi o'zgarishlar, ma'naviy qadriyatlarni badiiy talqin qilinishi, zamonamiz qahramoni, komil inson haqidagi tushunchalarni misol va faktlar asosida tushuntirib berish.*

1. Istiqlol o'zbek xalqiga o'z milliy adabiyotini qaytarib berdi. Kommunistik mafkuraning jarchisiga aylangan “sovet adabiyoti” vayronlari o'rnida paydo bo'lgan o'zbek milliy adabiyoti tezlikda o'zining qaddini ko'tardi, partiyaviylik, sinfiylik kabi metodologik asoslardan voz kechildi. Shunday qilib, mustaqillik O'zbekiston ma'naviy hayotini barqarorlashtirish uchun zamin yaratdi, ma'naviy mafkuraviy hodisalarga munosabatini o'zgartirdi. Istiqlol tufayli madaniy ma'naviy turmushimizda tub burilish yuz berdi.

Asarlari g'oyaviy jihatdan zararli, o'zlari millatchi deb noxaq baxolangan CHO'lpon, Fitrat, Bexbudiy, Tavallo, Otajon Hoshim, Vaxud Mahmud, Munavvarqori singari ma'rifatparvarlar ijodi xolisano o'rganila boshlandi. Asarlari chop etildi, sahna yuzini ko'rdi. Jadidchilik harakatining asl mohiyatini adabiy, madaniy, siyosiy adabiyoti vakili deb nohad qoralangan Ahmad Yassaviy, Boqirg'oniy, G'azzoliy, Xo'ja Ahror, Bahouddin Naqshband, Husayn Bayqaro,

Feruz singari buyuk mutafakkirlar hayoti va ijodi o'rganilib, asarlari xalqqa qaytarildi. Zararli falsafa, kommunistik mafkuraga yot nazariya deb haralgan tasavvuf she'riyati chuqur o'rganila boshlandi.

Alisher Navoiyning yuksak insoniy g'oyalarini diniy manbalar asosda yorituvchi "Munojat", "Arbain", "Tarixi anbio va hukamo" ("Payg'ambarlar va hokimlar haqida") kabi asarlari nashrda chiqdi. Mustaqillik sharofati bois, mo'tabar Qur'oni karim va hadislar chop etildi. Aytish mumkinki, bunday asarlarning xalqimiz qo'liga yetib borishi butunlay yangi, sog'lom, sof milliy g'oyalarining, maqsad va vazifalarimizning sifat darajasini belgilaydi. Mazkur tadqiqot va unga o'xshagan boshqa asarlar milliy istiqlol mafkurasining tantanasini ko'rsatadi. Amir Temur bilan aloqador orzularning yuzaga chiqishi mustaqillikning ulkan tantanasidir. A. Xayitmetovning "Amir Temur va o'zbek adabiyoti" asari chop etildi. A. Oripovning "Sohibqiron", M. Jalilning "Sohibqiron Temur" dramalari dunyoga keldi. B. Valixo'jayevning Xo'ja Ahror va uning muhiti bilan bog'liq bir qancha tadqiqotlari yaratildi. T. Malikning "Shaytanat" romanlari, E. Vohidov, A. Oripov, O. Muxtor, O. Matchon, O. Xojiyeva, Y. Eshbek, X. Do'stmuhammad, U. Azim singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g'oyaviy yetuk asarlari tufayli o'zbek milliy istiqlol adabiyoti shakllandi. Bular yangi davr adabiyotining nodir namunalari bo'lishi bilan birga, yangi hayot, yangicha turmush tarzi va istiqlolga yangicha qarashning shaklanayotganidan, million-million xalqimizni istiqloldek buyuk ne'matdan bahramand etayotganidan dalolat beradi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligi oldidagi muhim vazifalarni hal etishda, turli yo'nalishlarda B. Qosimov, O. Sharofiddinov, N. Karimov, E. Karimov, A. Aliyev, I. Haqqulov, SH. Turdiyev, H. Boltaboyev, V. Rahim, B. Karimov singari mutaxassislar "CHo'lponning badiiy olami", "Yassaviy kim edi?", "Milliy Uyg'onish va o'zbek filologiyasi masalalari" kabi to'plamlarni chop etishdi. I. Haqqulovning "Tasavvuf va she'riyat", N. Karimovning "CHo'lpon", B. Qosimovning "Maslakdoshlar" (Behbudiy va Ajziy, Fitrat) va O. Sharofiddinovning "CHo'lponni anglash" kabi maqola va tadqiqotlari milliy istiqlolning mevasidir.

Badiiy publistika davrimizning eng hozirjavob janrlaridan biriga aylandi. Yangilanayotgan hayot jarayonlari, islohotlarning rivojlanish bosqichlari va ular orqali yangilanayotgan jamiyat qadriyatlari mumkin qadar kengroq qamrab olinadigan va o'z vaqtida munosabat bildirgan janr sifatida publistika o'zining imkoniyatlarini ko'rsata bildi. O'zbekiston qahramonlari Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'zbekiston xalq shoirlari Muhammad Yusuf, Xabib Sa'dulla ijodlari ayni mustaqillik davrining mazmuni orqali o'zining yangi imkoniyatlarini ko'rsatdi. Omon Muxtorning "Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam" va "Tepalikdagi haroba" romanlaridan iborat "To'rt tomon qibla" trilogiyasi, Barot Boyqobilovning g'aroyib uch ming yillik tariximizni mustaqillik evolyusiyasi orqali ifodalagan "O'zbeknoma", "Yangi Xamsa" she'riy romanlari bugungi kun adabiyotining mevasidir.

2. Ma'naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu - teatr san'atidir. Mamlakatda qurilayotgan demokratik, xususiy, insonparvar jamiyat mazmun mohiyati teatr san'atida ham o'z aksini ko'rsata boshladi. Eng muhimi,

teatr san'ati faoliyati ustidagi mafkuraviy - siyosiy monopoliyaning bekor etilishi ushbu san'at turiga jamiyat fuqarolarining qiziqishlarini kuchaytiradi. Teatr va tomoshabin, teatr va repertuar muammolari hal etila boshlandi. Milliy, tarixiy - falsafiy mavzularga qiziqishi kuchaya bordi.

O'tgan asrning 90 - yillari boshlarida O'zbekistonda 34 ta professional akademik drama, musiqali, opera va balet, yoshlar teatrlari faoliyat ko'rsatdilar. Istiqlool tufayli mamlakat teatrlari uchun jahon hamjamiyatiga chiqish imkoniyatlari tug'ildi. Hususan, Navoiy nomidagi katta opera va balet teatri, A.Xidoyatov nomidagi drama teatri, "Ilxom" teatr studiyasi, Rus yosh tomoshabinlar teatr balet teatr truppasining Malayziya va Tailandga safar qildilar. Ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlarida bo'lganidek madaniy hayotda ham tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Bu avvalo teatr san'ati rivojlanishida yaqqol sezila boshlandi, yangidan yangi teatr dargohlari qurib ishga tushirildi. Jumladan,

- 1991 yilda Farg'onada va 1993 yilda Xivada davlat qo'g'irchoq teatrlari ish boshladi.
- 1993 yilda Toshkent shahrida hashamatli "Turkiston" saroyi ish boshladi.
- 1994 yilda Qashqadaryo va Namangan viloyati teatrlari qoshida qo'g'irchoq guruhlari ochildi.
- 2001 yilda Xamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatri butunlay qayta qurilib, unga o'zbek milliy akademik teatri nomi berildi.
- 2002 yilda Toshkent Davlat konservatoriyasining yangi, muhtasham binosi ishga tushirilib, unga O'zbekiston Davlat konservatoriyasi maqomi berildi.

Bulardan tashqari, Andijonda jamoatchilik asosida ishlab kelayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, u 1994 yilda Abbos Bakirov nomidagi Andijon yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi. 2000 yilda Ogaxiy nomidagi Xorazm viloyat teatri to'la ta'mir etildi.

O'zbekistonda milliy teatr san'atining rivojlanishida mamlakat Prezidenti I. Karimovning farmoni (1995 yil 20 sentabr) va shu yilning 28 oktabrida Respublika Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atining yanada rivojlantirishni qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori katta ahamiyatga ega bo'ldi. Keyinchalik yurtboshimizning "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida" (1998 yil 26 mart) gi farmoni e'lon qilindi. Ushbu hujjatlarda teatr san'ati an'analarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, uni har tomonlama rivojlantirish, moddiy-texnikaviy negizini mustahkamlash, amalga oshirilayotgan ma'naviy - ma'rifiy islohotlarda teatr arboblarning faol ishtirokini ta'minlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi badiiy barkamol sahna asarlarini yaratish lozimligi ta'kidlandi⁸⁸.

1998 yilda O'zbekiston yoshlari teatri qoshida "O'zbekiston yosh avlod teatri" markazi tuzildi. Ushbu markaz 1998 yil 14-20 noyabr kunlari "o'zbek teatr" ijodiy - ishlab chiharish birlashmasi bilan birga Toshkentda "Xumo" xalqaro festivalini o'tkazdi. Unda O'zbekiston va Isroil teatrlari ishtirok etdilar. Ushbu

⁸⁸ Mavrulov A. Madaniyat va tafakkur o'zgarishlar. – Toshkent: Adolat, 2004. – B. 68.

tadbir doirasida 32 ta spektakl namoyish etildi. Uning sahna asarlarini 20 mingdan oshiq tomoshabin ko'rdi⁸⁹.

O'zbekiston hukumati xalqimizning milliy qo'shiqchilikka bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini e'tiborga olib, milliy ruhdagi, xalqning ko'ngliga yaqin musiqa asarlarini yaratishga bo'lgan qiziqishni muntazam ravishda rag'batlantirib kelmoqda.

Tabiatan nozikta'b, san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqasi keng ko'lamli ma'naviyat ko'zgusidir. Asrlar osha avloddan avlodga ustoz-shogirdlik tizimi yo'li bilan rivojlanib kelganligi tufayli musiqa merosi qatlamlari - mehnat va marosim kuy, qo'shiqlaridan tortib murakkab doston, ashula, katta ashula va maqom yo'llari davrma-davr saralanib kelgan. Shu bois, hozirgi davrgacha yetib kelgan deyarli barcha asarlar shaklan va mazmunan katta-kichikligiga qaramay badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi.

Mustaqillik yillarida musiqa san'atida tub burilish, asliga qaytish, an'anaviy ohanglar ravnaqi davri bo'ldi. Buning uchun eng avvalo, xalqqa yaqinlashish, el orasida yurish, eng noyob xalq iste'dodlarini izlab topish zarur edi. Ana shuning uchun 1992 yilda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlar markazi musiqa san'ati sohalari bo'yicha bir qancha ko'rik-tanlovlar o'tkazdi. Jumladan, shu yili mart oyida Toshkent shahrida tanbur, qo'shnay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining "Asrlarga tengdosh navolar" deb nomlangan Respublika ko'rik tanlovi, aprel oyida Toshkent viloyatida havaskor qo'g'irchoq teatrlari jamoalarining ko'rik-tanlovlari, shuningdek, aprel oyida mashhur san'atkorlar J. Sultonov, S. Kalonov, K. Jabborov, N. Xasanov, K. Otaniyozov, F. Sodiqov va J. Shomuratovlar asarlari ijrochiligining "Boqiy ovozlar" deb nomlangan ko'rik tanlovlari o'tkazildi.

Istiqlol yillarida O'zbekiston hukumati milliy qo'shiqchilik san'atini rivojlantirishga alohida e'tibor berdi. Bu borada Prezident va Respublika hukumatining keyingi yillarda e'lon qilingan farmon va qarorlari katta ahamiyatga ega. Jumladan, "O'zbeknavo" gastrol-konsert birlashmasini tashkil etish to'g'risida"gi (1996), "O'zbekiston - vatanim manim" qo'shiqlar bayramini o'tkazish to'g'risida"gi (1996), "Respublikada musiqiy ta'limni, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risida" (1996), "O'zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish to'g'risida" (1997), "O'zbekistonda estrada san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida" (1998, 2001) kabi hujjatlarida o'zbek milliy musiqa san'atini yanada rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berildi. Shunga muvofiq, o'tgan yillar mobaynida Respublikamizda va uning musiqiy hayotida tarixiy voqealar va muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, Samarqandda "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali (1997 yildan boshlangan), Toshkentda Xalqaro Simfonik musiqa festivali (1998 yildan boshlangan), 1995 yildan boshlab "Ilhom – XX" xalqaro zamonaviy kamer musiqasi festivali, 1996 yildan "O'zbekiston - vatanim manim" qo'shiqlar tanlovi, 1999 yili "Alpomish" dostonining 1000 yilligi, 2000 yildan boshlab "Navro'z" qo'shiq-tanlovi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Imom al Buxoriy, Al-Farg'oniy kabi buyuk ajdodlarimiz tavalludlariga bag'ishlangan shonli sanalar keng nishonlanmoqda.

⁸⁹ Teatr jurnali. 1999 yil. № 1-2. 7-bet.

Atamalar va asosiy tushunchalar:

Adabiy–madaniy meros – xalqimizning avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan nihoyatda qadimiy, boy adabiy–madaniy merosi mavjud. O‘tmish moddiy-madaniy boyliklari. Ajdodlardan avlodlarga qolgan xalq og‘zaki ijodi, yozma adabiyoti, san’ati, me’morchilik va hakazo namunalari. Adabiy-madaniy meros uni yaratgan xalq tarixi bilan izchil va mustahkam bog‘langan bo‘ladi. Shu xalqning qadimiy davrlardan boshlab hozirgacha yaratgan va saqlanib kelgan adabiy-ma’naviy yodnomalari, moddiy-madaniy obidalarini o‘z ichiga oladi.

Adabiy yodgorlik – biror xalqning muayyan davrdagi hayoti, tili va madaniyati, urf-odatlar haqida ma’lumot beruvchi og‘zaki yoki yozma adabiyot namunasi.

Qo‘g‘irchoq o‘yini – O‘zbek xalqining an’anaviy xalq tomosha san’atida alohida o‘rinda turgan. U xalq ijodiga va improvizatsiyaga asoslangan professional san’at hisoblangan. Bu san’at bilan maxsus maktab o‘tagan bir usta qo‘lida yillab mashq qilingan. Shundagina uning tajribasi oshib xalq oldiga ustacining duosi va ruxsati bilan chiqqan.

Shashmaqom – o‘zbek va boshqa turkiy xalqlari musiqiy merosida markaziy o‘rin tutgan maqomlar turkumi; parda, ohang, usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o‘zaro uzviy bog‘langan mumtoz kuy va ashulalar majmui. U muayyan shart-sharoitlarda musiqiy folklor hamda kasbiy musiqa yo‘nalishlarida o‘rttirilgan ko‘p asrlik ilmiy-ijodiy tajriba hamda izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. Shashmaqom milliy hamda mintaqaviy mumtoz musiqa an‘analarining tarixan uzun taraqqiyot jarayoni natijasida bir qator bastakorlar avlodi san’atining qomusiy mahsulidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Respublikamizda madaniy merosni tiklash bo‘yicha amalgam oshirilayotgan choralar haqida so‘zlang?
2. Adabiyot va adabiyotshunoslikdagi tub o‘zgarishlarni gapiring?
3. O‘zbek halqining milliy qadriyatlari haqidagi biror adabiy asar haqida so‘zlang?
4. O‘zbekistonda badiiy adabiyot qay darajada rivojlanmoqda?
5. Yoshlarni tarbiyalashda adabiyotning o‘rni qanday?
6. Teatr sohasidagi o‘zgarishlar haqida gapiring?
7. Milliy musiqa san’atini rivojlantirish bo‘yicha qanday ishlar qilindi?

12-MAVZU: MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHNING TIKLANISHI

Ma’ruza rejasi:

1. *Milliy o‘zlikni anglash, uning turli talqinlari va taraqqiyotning o‘zaro bog‘liqligi.*
2. *Milliy o‘zlikni anglash va undan begonalashish oqibatlar.*

Mavzuning maqsadi: Talabalarga “*Milliy o‘zlik anglash*” tushunchalarini ilmiy-tahlili, uning jamiyat hayotidagi o‘rni, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda ma’naviy qadriyatlarni haqidagi tushunchalarni misol va faktlar asosida tushuntirib berish.

1. *Milliy o‘zlikni anglash* - har bir millat (elat)ning o‘zini haqiqiy mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma’naviy boyliklarni ifodalovchi ekanligini, yagona til, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikni tushunib yetishiga milliy o‘zlikni anglash deyiladi. Yoki boshqacha aytganda:

Har bir millat (elat)ning o‘zini real mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma’naviy boyliklarni ifodalovchisi, yagona til, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikni tushunib yetishiga milliy o‘zlikni anglash deyiladi.

Milliy o‘zlikni anglash millat shakllanishining nisbiy yuqori bosqichining mezonidir. Millat o‘ziga xos bo‘lgan urf-odatlar, an’analar, qadriyatlarni shakllantirishi va yagona davlat asosida birlashishi mumkin. Ammo uning millat sifatida o‘z-o‘zini anglashi yanada murakkabroq jarayon hisoblanadi. Chunki millatning aksariyat ko‘pchiligining yagona moddiy va ma’naviy boyliklarga egaligi hissiyotining shakllanishi, o‘zining juz’iy manfaatlaridan umummilliy manfaatlarini ustuvor qo‘ya bilish hissi juda sekinlik bilan namoyon bo‘ladi.

Milliy o‘zlikni xalqning milliy va mentalitet xususiyatlari, uning hozirgi va uzoq muddatga mo‘ljallangan manfaatlarini ro‘yobga chiqarish shart-sharoit va omillari to‘g‘risida tasavvurlar beradi. Jumladan, bir necha yuz yillardan bo‘yon xalq va qabilalarni kelib chiqishi masalasi, turli soha mutaxassis olimlarini qiziqtirib kelmoqda. YA’ni faylasuf, sosiolog, antropolog, etnolog bilan birga madaniyatshunos mutaxassislar tomonidan qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda. “*Milliy*” va “*o‘zlikni anglash*” tushunchalari ko‘pgina tahliliy hamda tanqidiy munosabatlar shakllanishiga olib kelgan. “*Milliylik*” tushunchasi ijtimoiy-siyosiy jihatdan tahlil qilinganda, jamiyatining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti mobaynida ma’lum bir millatning tili, joylashgan hududi, ijtimoiy-siyosiy hayoti, psixologik xolati va dunyoqarash tuzilmasini o‘zida aks ettirgan murakkab voqelik sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘z navbatida shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, o‘zlikni anglash to‘g‘risidagi qarashlar uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bu atamaning ilk bor mil. avv. IX asrda qadimgi hind eposlarida ishlatilganligi to‘g‘risidagi ilmiy dallillar mavjud. O‘zlikni to‘g‘risidagi psixologik konsepsiyalar dastlab, G‘arbda shakllangan bo‘lib, A. Pfender, T. Lippslar uning asoschilari hisoblansa, Rossiyada YE. Bobolov, L. Lopatin kabi olimlar ham ko‘plab tadqiqotlar olib borishgan.

O'zlikni anglash XVII asr oxiri – XIX asr boshlarida nemis faylasuflari tomonidan ham rivojlantirilgan. Bu haqda Dekart: “Agar men har qanday narsa va hodisa haqida fikr yuritadigan bo‘lsam, avvalo, o‘zinning subyekt sifatidagi mavjudligimni his qilaman”, – deb ta’kidlaydi⁹⁰.

Neydel 1947 yilgacha to‘plagan ma’lumotlari asosida milliy o‘zlikni anglashni quyidagicha ifodalaydi: “Etnolingvistik jarayondagi vaziyat o‘zaro madaniy aloqalarning o‘zgarishlari, biror joyda tugal, qayerdadir qayta namoyon bo‘lishi, o‘zlikni anglashni ifoda etadi”⁹¹.

XX asrda aksariyat olimlar diqqatini “o‘z madaniyatini anglash” tushunchasiga qaratdilar. O‘zlikni anglash uchun o‘z madaniyatini bilish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. G.V. Shelepov, etnik jamoani “kelib chiqishi va uning etnik o‘z-o‘zini anglashida namoyon bo‘lishi, til, xudud, madaniyat va turmushning ba’zi belgilarini birligi asosida shakllanadigan ma’lum tarixiy va iqtisodiy shart-sharoitlar natijasida paydo bo‘ladigan ijtimoiy jamoaning maxsus ko‘rinishdir”⁹², desa, V.N. Kozlov etnik jamoaning asosiy belgilari: “Etnik o‘z-o‘zini anglash va o‘z milliy nomiga ega bo‘lishlik, til, xudud, psixik xususiyatlari, madaniyati va maishiy turmushi, ijtimoiy-xududiy tashkilotlarning ma’lum shakllaridir...”⁹³, degan fikrni quvvatlaydi. Uning fikriga ko‘ra “o‘zlikni anglash tushunchasida (milliy xalq rivojiga tatbiq qilish) asosan bir xalqning etnik o‘zligini anglashi tushuniladi”⁹⁴.

N.N. Cheboksarov bo‘lsa, 1964 yili “Qadimiy va zamonaviy xalqlarning kelib chiqish masalasi” nomli ma’ruzasida milliy o‘zlikni anglashni o‘ziga xos bir tushuncha deb e’tirof etadi. U “O‘zlikni anglash tushunchasini” etnosning bir sifati misolida keltiradi. Uning tadqiqotlaridan biroz vaqt o‘tgach, milliy o‘zlikni anglashga doir mukammalroq ta’rifni rus olimi Y.V. Bromley 1983 yildagi “Ocherki teorii etnosa” asarida ilgari surgan. Uning fikricha, “Etnoni aniqlashda barcha insonlarni qadimdan bir xududni avlodma-avlodga o‘tishi, faqatgina bir xil xislatlari, fazilatlar emas, balki ularning bir madaniyat (lingvistik jihatdan ham) va ruhiy jihatdan mualliq bo‘lishi, jumladan, boshqa etnik guruhlardan o‘zligini anglashda farqlanishini ko‘rsatadi”⁹⁵. Bromleyning fikridan shuni anglash mumkinki, “o‘zlikni anglash” tushunchasi har bir “etnos” da alohida ahamiyatga ega. U tomonidan madaniyat so‘ziga ham o‘ziga xos ta’rif berilgan. Uning fikricha, “madaniyat va urf-odat o‘chog‘ini qoldiruvchi asosiy bog‘lovchi kanal – bu oiladagi avloddan-avlodga qoldirilayotgan munosabatlar majmui”dir⁹⁶. Haqiqatdan ham, uning so‘zi asoslidir. Chunki, har bir xalqning milliy o‘zligini saqlashi jarayonida oila muhim bo‘g‘in hisoblanadi.

⁹⁰ Qo‘chqarov V. Milliy o‘zlikni anglash va barqaror taraqqiyot. – Toshkent, 2013. – B. 20-21.

⁹¹ Aleksandrenkov E.G. «Etnicheskoye samosoznaniye» ili «etnicheskaya identichnost» // Etnicheskoye obrazovaniye. 1996. № 3. – S. 21.

⁹² Shelepov G. Obshnost proisxojdaniya-priznak etnicheskoy obshnosti // Sovetskaya etnografiya. 1968. № 4. – S. 73.

⁹³ Kozlov V.I. O ponyatii etnicheskoy obshnosti // SE. 1967. № 2. – S.126.

⁹⁴ Kozlov V.I. Problema etnicheskogo samosoznaniya i yeyo mesto v teorii etnosa // SE. 1974. № 2. – S. 79-92.

⁹⁵ Bromley Y.V. Ocherki teorii etnosa. – Moskva., 1983. – S. 57-58.

⁹⁶ Bromley Y.V. Ocherki teorii etnosa. – Moskva., 1983. – S. 57-58.

2. O'zlikni anglash muammosi individual va ijtimoiy ong, fan va amaliyot uchun fundamental ahamiyatga ega bo'lib, uning turli aspektlari bilan falsafa, ruhshunoslik, madaniyatshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, tarix va boshqa fanlar shug'ullanadi. O'zlikni anglash siyosiy amaliyot, xalqaro munosabatlar va boshqaruv nuqtai-nazaridan ham o'ta ahamiyatlidir⁹⁷. Har bir millat boshqalarga o'xshamagan udumlari, o'ziga xos yashash tarzi bildan go'zal. Demak, taraqqiy etgan davlatlarda har bir millatning milliy xususiyatlariga hurmat bilan qaralishida ulkan ma'no bor. Shu jumladan, O'zbekistonda ham millatlar orasidagi teng huquqlilik, har bir millatning urf-odatlarini, an'analari, tili va udumlariga hurmat bilan qarash tamoyillari qonun bilan kafolatlangan.

O'zliknini anglashning yuqori pog'onasi bu – milliy o'zlikni anglashdir. Milliy o'zlikni anglash har bir millat vakilining obyektivlashgan borliqda o'z o'rnini idrok etishi, ijtimoiy-tarixiy va ma'naviy-madaniy taraqqiyotda o'zining yaratuvchilik faoliyati, evristik izlanishlari, intellektual salohiyatiga bog'liqligini, shuningdek, hayoti va faoliyatida taraqqiyot talablari zarurligini anglashidir. Millat vakillari o'rtasida ijtimoiy taraqqiyot maqsadlari, ijtimoiy taraqqiyot maqsadlarida yakdillik bo'lishi milliy ong, o'zlikni anglashning bosh talabidir. Shaxs millatning maqsadlari, ijtimoiy taraqqiyot haqidagi g'oyalarni qabul qilmay, u bilan yakdil bo'la olmaydi. Ixtiyoriylik ozodlik, o'z manfaat va intilishlari, fikrni erkin ifodalash usulidir. Insonning o'zligini anglashi "men"ni ixtiyoriy (tabiiy-ijtimoiy zaruriy) tarzda namoyon qilishga intilishi natijasidir. Demak, ixtiyoriy faoliyatisiz o'zlikni namoyon qilish mumkin emas.

Milliy o'zlikni anglash milliy tarbiyaning asosiy resursi hisoblanadi, uning ana shu imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish milliy taraqqiyot istiqbolini ham belgilab beradi. Shu ma'noda ham uni asrash, rivojlantirish va keyingi avlodga yetkazish milliy tarbiyaning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil qiladi.

Milliy tarbiya bilan milliy o'zlikni anglash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik shu darajada mustahkam bog'liqlik, ularni birini ikkinchisiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Jumladan, agar milliy zaminlar chuqur va boy bo'lsa-yu, millat vakillari, ayniqsa uni yoshlar ongiga singdirilmasa, ularning milliy ongi, milliy madaniyati va ruhiyati shakllanmaydi, milliy o'zligini anglay olmaydi, huddi shuningdek, milliy o'zlikni anglashning o'zini asrash, uni rivojlantirish va keyingi avlodga yetkazishning muhim asosiy omillaridan biri sifatida ham milliy tarbiyachini olib borishni taqazo qiladi.

Milliy o'zlikni anglash milliy ongdan farq qiladi. Milliy ong har bir millatning yagona tili, urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini va ma'naviyatining pastdan yuqoriga, oddiydan murakkablik tomon rivojlanib borishining muhim mezoni hisoblanadi. O'z navbatida milliy ongning rivojlanib borishi har bir millatni o'z-o'zini anglash darajasiga ko'taradi. Milliy ong millatning o'ziga xosligi rivojlanib borishi bo'lsa, milliy o'zlikni anglash - milliy manfaatlarni himoya qilishda va rivojlan-tirishda harakatga keluvchi ichki ma'naviy - ruhiy salohiyatdir.

⁹⁷ Fayzullayev A. Millat, davlat va insonning o'zini anglashi // Tarix va o'zlikni anglash: O'zbekiston va Germaniya XX asrda. – Toshkent, 2007. – B. 28.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti o‘z-o‘zini anglash, eng avvalo, insoniy mavjudlikning mohiyatini ma’naviy voqelik, sha’n, qadr-qimmat, obro‘-e’tibor, or-nomus orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Hayotning ma’no-mazmuni, maqsadini tushunib yetish, o‘zlikni anglashdan boshlanadi. Milliy g‘oyada uning negizlari mujassam bo‘lganligi uchun ham o‘zlikni anglashga xizmat qiladi va bir-biri bilan uzviy bog‘liq.

Prezident Islom Karimov bayon etishicha, “O‘zlikni anglash deganda men tarixiy xotirani tiklash, nasl-nasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanligimizni anglab yetishni, shundan kelib chiqib, o‘zimizga xos va mos jamiyat barpo etishni tushunaman”⁹⁸.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada demokratlashtirish, avvalo, har bir fuqaroning va butun jamiyatning oliy maqsadlarini o‘zida mujassam etgan milliy g‘oya atrofida uyushish, millatning ajralmas qismi ekanligini anglab yetishga ham bog‘liq. Amir Temur deganidek, “Birliksiz kuch bo‘lmas”. Millat birligida inson o‘zligini anglash jarayoni alohida o‘ringa ega. Prezident Islom Karimov fikricha, “Chinakam insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan... odam demokratik ne‘matlarning oddiy iste’molchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi... Shundagina inson o‘z mamlakatining tom ma’nodagi munosib fuqarosi bo‘la oladi”⁹⁹.

Mustaqillik tufayli bir tizimdan ikkinchi tizimga o‘tish davrida o‘zlikni anglashning o‘ziga xos ko‘rinishlarini anglamasdan ma’naviy yuksalish va taraqqiyot darajasini anglab bo‘lmaydi. Yuksak rivojlangan jamiyat esa o‘zligini anglagan shaxslardan tarkib topadi. O‘zligini anglagan yoki anglay boshlagan kishigina shaxs darajasiga ko‘tariladi. Demak, o‘zlikni anglash, avvalo, har bir insonning shaxsi, alohida “meni” bilan bog‘liq. Hadisda aytilganidek, “Kimki o‘zligini tanisa, robbini taniydi”.

O‘zlikni anglash haqida Sharq va Farb allomalarining fikrlari milliy g‘oya va o‘zlikni anglash bilan chambarchas bog‘liq. «O‘zligingni angla» shiori qadimgi yunon falsafasining o‘zak masalasi bo‘lib kelgan. Suqrotning ana shu «o‘zligingni angla» hikmati donishmandlikning qoidasiga aylandi. Suqrot (mil.avv. 469-399)ning bu fikri 2,5 ming yillik oraliqqa ega bo‘lsada, u o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Suqrot bir guruh kishilarning fitnasi tufayli fuqarolik meyorlarini, yoshlar tarbiyasini buzganlikda ayblanib, o‘lim jazosiga hukm etilgan edi. Suqrot o‘z xalqi ommasining ibodat qilishiga qarshilik ko‘rsatib, tilda bo‘lsa, sayyoralarni huda deb atashdan bosh tortdi. Shuning uchun Afinaning o‘z ikkilik qozisidan 11 tasi bir ovozdan uning o‘ldirilishiga fatvo berdilar. Suqrot esa haq yo‘ldan qaytmaganicha o‘lib ketdi. Sudda 220 nafar odam Suqrotning aybsizligini yoqlab, 280 nafar kishi esa unga qarshi ovoz bergan.

“O‘zini anglagan inson o‘zi uchun nima foydali va nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. U qo‘lidan keladigan ish bilan shug‘ullanish asnosida o‘z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har qanday xato va baxtsizliklardan

⁹⁸ Karimov I.A. Asarlar. T.7. – B.132-154.

⁹⁹ Karimov I.A. Asarlar. T.11. – B.34.

*xoli bo'ladi. Buning natijasi o'laroq, u o'zga odamlarni qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo'lida foydalana oladi. Oqibatda o'zini kulfatlardan asraydi"*¹⁰⁰.

Imom G'azzoliy: "Ollohni anglashdan avval o'zni anglamoq joiz".

Millat ravnaqini belgilaydigan omillar:

1. Millatning o'z mustaqilligi, tili va hududining mavjudligi.
2. Tarixi, adabiy merosi va qadriyatlari
3. Kelajagimiz bo'lgan yot avlodni sog'lom ruhda tarbiyalash

Millatning milliy o'zligini anglash tushunchasi o'z ichiga quyidagi-larni oladi:

1. Milliy birlikni boshqa etnoslarning mavjudligini tushunib yetish.
2. Milliy qadriyatlar: til, tug'ilib o'sgan joy, madaniyatga (keng ma'noda) sodiqlik.
3. Milliy manfaatlarni tushunib yetish.
4. Milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish.
5. Vatanparvarlik.

Millatning milliy o'zligini anglash shaxsning milliy o'zligini anglash bilan uzviy bog'liq.

Shaxsning milliy o'zligini anglash deganda esa:

1. Millatning biron bir (etnos)ga mansubligini anglab yetish.
2. Mazkur millatning insoniyat taraqqiyotidagi o'rnini tushunish.
3. Milliy qadriyatlarga sodiqlik.
4. Milliy ehtiyojlar va manfaatlarni anglash, uning rivojlanish yo'llari-ni bilish.
5. Milliy taraqqiyotga vijdonan xizmat qilish.

Aslida milliy o'zlikni anglash millatning moddiy hamda ma'naviy manfaatlarini himoya qiluvchi va rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. U faqat milliy manfaatlarini himoya qilish bilan cheklanmaydi, u millatni "harakat"ga keltiradi va birlashtirib turadi. Xususan, millat taraqqiyoti jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida yuzaga keladigan muammo-larni hal qilishda milliy o'zlikni anglash omili millatni jipslashtiradi va uni umummaqsadlar yo'lida harakatga keltiradi. U har qanday millat uchun zarur asosiy o'ziga xos belgilari tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. Milliy o'zlikni anglash millat abadiyligini ta'minlashning eng muhim omilidir. Chunki bu salohiyat millatning o'ziga xosligini va manfaatlarini himoya qilib turadi. Xitoy faylasufi Shan Yan (mil.avv. 390-338) fikricha, "Nodon xalqni boshqarish oson. Tentak odamlarni og'ir mehnatga majburlash oson. Aqlli kishilarni esa mashaqqatli mehnatga jalb etish mushkuldir"¹⁰¹.

Ko'pgina olimlar "millat"ga turlicha ta'rif berib kelgan va uning umume'tirof etgan belgilarini ko'rsatganlar:

1. hudud, 2. til. 3. iqtisodiy hayot. 4. madaniyatlar, an'analar va turmush xususiyatlari birligi. Bulardan tashqari milliy o'zlikni anglash etnik mansublikni anglash, ruhiyat va xususiyatlari, ilg'or an'alarini ham qo'shish mumkin.

Bugungi kunda milliy masalada va milliy o'zlikni anglashda ikkita tendensiya mavjudligini ham unutmash kerak:

1. Millatlarning uyg'onishi, qo'shilishi (XX asr boshlariga xos edi).

¹⁰⁰ Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – B.63.

¹⁰¹ Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – B. 92.

2. Milliy davlatchilikka intilish (XX asr 90-yillaridan to hozirgi kungacha bo'lgan davr kiradi).

O'zbek millati taraqqiyotida milliy o'zlikni anglash jarayoni chor imperiyasi o'lkamizni bosib olgandan so'ng o'z mustaqilligimiz uchun kurashlarda, sho'rolar tizimi sharoitida o'zligimizni saqlab qolish uchun bo'lgan harakatlarda namoyon bo'lib keldi. Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan keyin milliy o'zligimizni anglash ikki yo'nalishda: 1. Sobiq ittifoq davrida toptalgan urfodatlarini, qadr-qimmatini, qadriyatlarini tiklash va ma'naviy merosimizni o'zlashtirishga bo'lgan harakatlarda. 2. Adolat, demokratiya va huquq ustuvorligiga asoslangan jamiyat qurish bilan bog'liq bo'lgan islohatlarni o'tkazish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishdagi umummilliy harakatlarda namoyon bo'lmoqda.

Milliy o'zlikni anglash u yoki bu millatni o'zga millatlardan ajralib ketishiga olib kelmaydi, balki o'zligini anglagan millatlarning ma'rifatlashgan hamkorliklarining mustahkamlanib borishiga xizmat qiladi. Shuning uchun mustaqillik sharoitida o'zbek xalqining o'z-o'zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgandir. O'zbek millatida o'z-o'zini anglash hissini mustahkamlash va rivojlantirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Xon-amirlar davrida va mustamlakachilik yillari o'zbeklarda milliy o'zlikni anglash mohiyatan zid bo'lgan bo'lsa, sobiq ittifoq davrida "sovet xalqi" tushunchasi singdirib kelindi. Bu jarayondagi targ'ibot-tashviqot miyamizni zaharladi, milliy ongimizni bo'shashtirdi, milliy g'ururning namoyon bo'lishini millatchilik deb qaraldi. Shu sarqitlardan qutilish - o'zbek millatining o'z-o'zini chuqur anglashining zaruriy shartidir.

"O'zlikni anglash", "milliy o'zlikni anglash" va "umumbashariy o'zlikni anglash" tushunchalari bir-biridan ayri emas, balki bir-biri bilan uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadi. Zero, inson ota-ona, oila, millat, ahli bashar, butun borliq bilan munosabatlar asosida o'zining kim ekanligini anglab boradi. Ayni shu munosabatlar zaminida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy g'oya tamoyillari shakllangan va o'z navbatida, milliy g'oya ularni zamon talablari asosida boyitib boradi.

O'zlikni anglashning turli talqinlari. Insoniyat falsafiy tafak-kuri tarixida o'zlikni anglash masalasi turlicha talqin etilgan.

1. Dunyoviy talqiniga (Yevropada) ko'ra inson jismining o'tkinchi-ligi, ruhning esa abadiyligi (cherkov otasi Avgustin: "tan ruh uchun qafasdir") masalasini zohiriy talqin etganlar. 2. Diniy talqiniga ko'ra o'zligini dunyodan yuz o'girib, yolg'izlikda ibodat bilan kun o'tkazgandagina (tarkidunyo) topish mumkin degan fikrga kelganlar. 3. Tasavvuf g'oyaviy talqiniga ko'ra (Sharqda) "o'zlikni anglash"ning bosh maqsadi insonni insonga, Vatanga, xalqiga bo'lgan, har qanday g'arazdan holi, pok mehrni targ'ib qilganlar Bahouddin Naqshband "dilda yor" (diling Allohda) "dast ba kor" (qo'ling ishda bo'lsin) ezgu ishlarga kirishmog'i lozim. 4. Komillik talqiniga ko'ra dunyo qaynab turgan qozonga o'xshaydi, inson ana shu qozonda qaynashi (Fariddin Attor) kerakligiga undaydi. 5. Ijtimoiy talqiniga ko'ra inson o'zligini anglashini ijtimoiy munosabatlar asosida ko'rishni orzu qilgan A.Navoiy buni shunday ifoda etgan:

“Odame ersang demagil odame -
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami”¹⁰².

Demak, 1) “O‘zlikni anglash” - mustaqillik tufayli o‘zbek xalqining o‘z-o‘zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Deyarli 75 yil davomida hukmronlik qilgan istibdod nazariyasi va mafkurasi o‘z-o‘zini anglash hissini uyg‘otgan edi. Milliy o‘zligini anglash masalasi falsafada ishlanmadi. Buning sababi 2) “Milliy o‘zlikni anglash” mustaqillik g‘oyasi bilan bog‘liq. Shu boisdan ham milliy istiqlol g‘oyasi tarixiy xotirani uyg‘otish, o‘tmishdan saboq chiqarish, o‘zlikni anglash mezoni sifatida xalqimizning tub maqsadlari ifodasi va jamiyat a‘zolarini birlashtiruvchi g‘oyaga aylanishi mumkin. Demak, milliy g‘oya - milliy o‘zlikni anglatuvchi omil deyish mumkin. Millat o‘zini xalq sifatida, el sifatida anglamasa, u o‘zining sha‘ni, qadr-qimmatini, or-nomusi haqida qayg‘urib, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini to‘la his eta olmaydi.

Sharq donishmandlarining falsafiy g‘oyalarida sinkretik (ya‘ni turlicha g‘oyalarning bir butunlikda joylashuvi) va sinergetik (o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi, keng, ko‘p o‘lchovli va ochiq tizimli) tafakkur uslubining ustuvorligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. 3) “Umumbashariy o‘zlikni anglash” tushunchasi dunyoviy ilmlar, komil inson g‘oyalari bilan bevosita bog‘liqdir.

Atamalar va asosiy tushunchalar:

Milliy o‘zlikni anglash – har bir millat (elat)ning o‘zini haqiqiy mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma‘naviy boyliklarni ifodalovchi ekanligini, yagona til, urf-odatlar, an‘analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishiga milliy o‘zlikni anglash deyiladi.

Milliy iftixor – millatga xos moddiy yoki ma‘naviy yutuq, muvaffaqiyat bilan fahrlanish tuyg‘usini ifodalaydigan tushuncha.

Milliy g‘urur – shaxs, ijtimoiy guruhning muayyan millatga mansubligidan fahrlanish hissi.

Milliy ong – har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, ma‘naviy–diniy e‘tiqodi, madaniy rivoji jarayonida shakllangan dunyoqarashi, tafakkuri, e‘tiqod va ishonch tuyg‘ularini ifodalovchi tushuncha.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O‘zbekistonda milliy o‘zlikni anglashni tiklanishida jamoat tashkilotlarining o‘rni qanday?
2. Milliy o‘zlikni anglash deganda nimani tushunasiz?
3. O‘zbek milliy-madaniy qadriyatlari takomillashuvida sharq mutafakkirlari asarlarining tutgan o‘rni.
4. Milliy o‘zlikni anglashning obyektiv va subyektiv omillari nimalardan iborat?
5. An‘anaviy o‘zbek milliy qadriyatlariga milliy taraqqiyparvarlarning munosabati.

¹⁰² Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g‘oyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. – Toshkent: Akademiya, 2005. – B. 150-156.

13-MAVZU: Milliy qadriyatlar yangi jamiyat fuqarolarining odob-axloqi va huquqiy madaniyatini shakllantirishning asosiy omilidir

Ma'ruza rejasi:

- 1. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning nazariyasi.*
- 2. Demokratik qadriyatlarning xaq ma'naviyati bilan bog'liqligi*

Mavzuning maqsadi: *Talabalarga "erkinlik", "demokratiya" atamasining fandagi ilmiy-tahlili, uning jamiyat hayotidagi o'rni hamda O'zbekiston mustaqil demokratik taraqqiyot yolida ma'naviy qadriyatlarni ahamiyati haqidagi tushunchalarni misol va faktlar asosida tushuntirib berish.*

Milliy qadriyatlar komil insonni tarbiyalashda, ular odob-axloqi va huquqiy ma'daniyatini shakllantirishda asosiy omildir. Jamiyatni yangilashda mustaqillik qadriyatlarini e'zozlash, milliy iftixor tuyg'ularini to'la shakllantirish milliy istiqlol g'oyalariга sodiq bo'lish alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik oliy ne'mat ekanligini tushungan holda ushbu tushuncha va g'oyalarni yanada teran his etish jamiyat a'zolariga o'ta mas'uliyatli vazifa yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida ta'kidlaganidek, «bugun hamma bo'lmasa ham, lekin ko'pchilik odamlar yaxshi anglaydiki, faqat zamon bilan teng qadam tashlayotgan, tez o'zgarayotgan dunyoning qat'iy shart va talablariga javob berishga intilayotgan mamlakatning kelajagi yorug' bo'lishi mumkin. Shu ma'noda mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash biz uchun hamisha birinchi darajali ustivor maqsad va vazifa bo'lib qolaveradi. Inkori etib bo'lmaydigan ushbu haqiqat shu muqaddas zaminimizda yashaydigan har bir insonning qon-qoniga, vujudiga singib ketishini istardim».

Yangi jamiyat fuqarolarini tarbiyalashda odob-axloq va huquqiy madaniyat muhim o'rin tutadi. Uning asosini Prezident I.Karimov tomonidan asoslab berilgan milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari tashkil etadi.

Yangi jamiyat bunyodkori eng avvalo milliy g'oya va istiqlol mafkurasiga sodiq O'zbekiston fuqarosidir. Yangi jamiyat bunyodkori Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravonligi kabi tushunchalarning mohiyatini chuqur anglashi lozim. Ana shu buyuk g'oyalar zamirida yangi jamiyat bunyodkorining odob-axloqi va huquqiy madaniyati o'zining mujassam ifodasini topishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti e'tirof etganidek, jahon xo'jalik aloqalariga qo'shilishning asosiy sharti sifatida umum qabul qilingan norma va qoidalarga ko'proq yaqinlashishga intilgan holda, respublikaning o'z huquqiy asoslarini ishlab chiqishda uning ijtimoiy-iqtisodiy va milliy o'ziga xos xususiyatlari iloji boricha to'la hisobga olinishi kerak. Shu bilan birga yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlarida aholining kundalik turmushiga singib ketgan xalq an'analari, urf-odatlar, shaxslararo va millatlararo muomala hamda diniy e'tiqodlarning asriy tarixidan meros qilib olingan, umuminsoniy qadriyatlarga, odamlarning huquq va erkinliklariga zid bo'lmagan axloqiy normalar albatta aks ettirilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasiga ko'ra, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat faravonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi. Ushbu konstitutsiyaviy normada odob-axloq va huquqiy madaniyat qoidasi sifatida ijtimoiy adolatni ham o'z ichiga qamrab olgan. Ijtimoiy adolat - xulqning keng doirasini o'zida qamrab oladi va uning yaxlit mazmunini o'zida aks ettiradi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida axloqiy tushunchalar va normalar ifoda etilgan, xususan, Kodeksning 9-moddasiga ko'ra, fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining halol, oqilona va adolat bilan harakat qilishi nazarda tutiladi. Fuqarolar va yuridik shaxslar o'z huquqlarini amalga oshirishda jamiyatning ma'naviy tamoyillari va axloqiy normalarini hurmat qilishlari kerak. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 3-moddasida uning prinsiplari ifoda etilib, «insonparvarlik», «odillik» kabilar belgilab berilgan. Shuningdek, ushbu Kodeksning 6-moddasida jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki jamoalar jinoyat sodir etgan shaxslar axloqini tuzatish ishiga qonunda nazarda tutilgan hollarda jalb qilinishi mumkinligi nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik prosessual kodeksi 4-moddasida fuqarolik sud ishlarini yuritishning prinsipi sifatida «ijtimoiy adolat», «fuqarolar o'rtasida tinchlik va milliy totuvlik» kabi qadriyatlar o'zining mujassam ifodasini topgan.

Jamiyat va davlat ijtimoiy faol, odobli axloqli va qonunga itoatkor fuqarolarni tarbiyalashdan manfaatdor. Milliy odob-axloq va huquqiy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalash demokratik huquqiy davlatning asosiy vazifasidir.

Milliy huquqiy tizimni fuqarolarning huquq va erkinliklariga zid bo'lmagan odob-axloq va huquqiy ma'daniyat qoidalari bilan to'ldirib borish qonunchilik faoliyatimizning ham bosh mezonini bo'lishi kerak.

Mustaqillik huquqiy tafakkuri, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, adolatparvarlik, huquqiy merosni asrab-avaylash va ijtimoiy hayotning hamma jabhalarida uni qaror toptirishga qolaversa, axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yordam Beradi. Abu Nasr Farobiy iborasi bilan aytganda, «aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan mamlakatda hokimiyatga ehtiyoj seziladi. Demak, jamiyatning nechog'lik demokratlashuvi fuqarolar erki, huquq, erkinliklari, burchlarini bajarishi eng avvalo, adolatli jamiyat aholisining fe'l-atvoriga, ma'naviy-axloqiy va ular huquqiy kamolotiga bog'liqdir. Milliy odob axloq va an'analar ham shaxs huquqiy ongini oshishida muhim o'rin tutadi.

Huquq nazariyasidan bizga ma'lumki, odob-axloq qoidalari o'z-o'zidan huquq manbasi bo'lib hisoblanmaydi. Ushbu qoidalar agar muayyan normativ huquqiy hujjatda o'z aksini topsagina huquq manbasi bo'lishi mumkin. Bunday holda odob-axloq qoidasi huquq normasi bo'lib tegishli huquqiy munosabatga tatbiq etilishi lozim. Fuqarolik huquqiy munosabatlarda taraflarning erkinligi nafaqat yozma bitimlarda balki unda ifoda etilmagan odob axloq muomala shartlariga rioya etishi uni bajarilishini ta'minlashning muhim omilidir. Xususan, Fuqarolik Kodeksining 192-moddasida odob-axloq normasi sifatida yo'qolgan ashyoni topib olgan shaxs bu haqda uni yo'qotgan shaxsni yoki ashyo egasini yoxud uni olish huquqiga ega bo'lgan o'zga ma'lum shaxslardan birontasini darhol xabardor etishi hamda topilgan ashyoni shu shaxsga qaytarish shart. Binobarin, odob-axloq qoidalari

fuqarolik huquqining manbasi bo'lmasada, fuqarolik qonun hujjatlarining ma'nosini tushunishda va unda ifoda etilgan qoidalarini amaliyotga to'g'ri tatbiq etishda muhim o'rin tutadi. Fuqarolik Kodeksining 116-moddasiga ko'ra, qonun hujjatlarining talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim, shuningdek huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim o'z-o'zidan haqiqiy emasdir. Bitim taraflari bunday bitimni tuzishda mulkiy oqibatlar keltirib chiqarishini anglashlari lozim. Shu sababli bunday qoidalar jamiyat axloqiy negizlarining muhim asosi bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda sud-huquq islohotlarini amalga oshirishda javobgarlikni erkinlashtirishda fuqarolar huquq va erkinliklariga zid bo'lmagan odob-axloq qoidalarini huquq normasi sifatida ifoda etilishining ta'minlanishi yangi jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarining qaror topishida muhim ahamiyatga egadir. Shu bois, milliy qonunchilikni odob-axloq qoidalarini bilan uyg'unlashtirish qonun ijodkorlik faoliyatida ham muhim yo'nalishi bo'lmog'i lozim. Qonun hujjatlarining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni juda katta, ular jamiyat a'zolarining xulq-atvor qoidalarini belgilovchi oliy yuridik qadriyat sifatida inson farovonligini ta'minlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Prezident I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, «huquqiy davlatning quroli ham, himoyasi ham, ko'zi ham qonundir. Biz jamiyatni qonun asosida va qonun yordamida boshqarishga ahd qilgan ekanmiz, islohot qismatini ayrim rasmiyatchilar qo'lga topshirib qo'ymasligimiz zarur». Yoki bo'lmasa, jahon donishmandlik aqidasi sifatida e'tirof etilgan, «qonun insoniy donolikning yuksak ifodasi bo'lib, odamlar to'plagan tajribadan jamiyat farovonligi yo'lida foydalaniladi» yoxud, «qonunning mohiyati – insonparvarlik» degan iboralarda ham oqilona hikmat mujassamlashganligi bejiz emas.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda nafaqat qonunlarning ustuvorligini ta'minlash balki milliy odob-axloq qoidalarining ijtimoiy tartibga soluvchi vosita tarzda mavqeini oshirish yangi jamiyat kishisini xushxulqli sifatida tarbiyalashda ham katta ahamiyatga egadir. Abu Rayxon Beruniy ta'biri bilan aytganda, yaxshi xulq yaxshilik alomatidir. Milliy qadriyatlar negizida ham odob-axloq va huquqiy madaniyat qoidalarini mujassam ifodasini topgan. Insoniyat tarixida huquq normalari yaratilgunga qadar ijtimoiy tartibga solishning elementi sifatida odob-axloq muhim o'rin tutgan. Insonlar ongida huquqiy xulq atvor mezonlariga nisbatan odob-axloq qadriyatlari ustuvorlik kasb etgan. Odob-axloq qadriyatlari xulq-atvorni shakllantirishga yordam beradi. Axloqda hal qiluvchi mezon sifatida odob talablari mujassamlashgan.

Huquq ijtimoiy tartibga soluvchi vosita sifatida odob-axloq talablariga javob berishi kerak. O'z navbatida, huquq-ijtimoiy taraqqiyotning barometri, uni amalga oshiruvchi va kafolatchisidir. Shu sababli, huquq va ijtimoiy taraqqiyot bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Huquqning yordamisiz, uning umummajburlov kuchisiz, davlat tomonidan kafolatisiz jamiyat bir butun tuzilma sifatida yashay olmaydi. Huquq faqat jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki uni harakatga keltiruvchi kuch, vosita, ijtimoiy taraqqiyot kafolatchisi sifatida ham xizmat qiladi. Odob-axloq ham huquq kabi ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishga, jamiyatni yangilash va demokratlashtirishga o'zining faol ta'sirini ko'rsatadi. Yuridik javobgarlikni erkinlashtirishda huquqni axloqiylashtirishga jiddiy e'tibor

berishni taqazo etadi. Shuningdek yangi jamiyat kishisini tarbiyalashda huquq normalari bilan bir qatorda odob-axloq qadriyatlarini ular ongiga singdirish ham o'zining samarasini beradi. Sud huquq islohotlarini amalga oshirish jarayonida yuridik javobgarlikni erkinlashtirish jarayoniga jamiyat a'zolarida huquqiy xulq-atvor sohibi bo'lish barobarida, ularda yuksak odob axloqiy fazilatlarni shakllantirilgan taqdirdagina ijobiy natija berishi mumkin. Shu sababli, yuridik javobgarlikni erkinlashtirish muammolarini hal qilish milliy qadriyatlar negizida odob axloq va huquqiy madaniyatni shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, yuridik javobgarlikni erkinlashtirish agar sog'lom huquqiy xulq-atvor va odob axloq shakllantirilmasdan yoki bu borada tegishli amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilib hayotga tadbiiq etilmasdan amalga oshirilsa kutilgan natijani berish qiyin, albatta. Qayd etilganlarga asosan bayon etish joizki, sog'lom huquqiy xulq-atvor, odob axloq negizida yuridik javobgarlikni erkinlashtirishni bosqichma-bosqich hal qilib borilishi sud-huquq islohotlarini amalga oshirishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Huquqning axloqiyligi eng avvalo etik-yuridik talab asosi bo'lmish adolat negizlari ifodalanganligi bilan tavsiflanadi. Odob-axloq va huquq shaxsni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, ularning mavjud bo'lishi axloqiy mezon va baholashni ham o'ziga qamrab oladi.

O'z navbatida, huquq odob-axloqni shakllantirishga ham ijobiy yordam ko'rsatadi. Odob-axloq prinsiplari jamiyatda huquqiy asosni vujudga kelishida ham muhimdir.

Odob-axloq va huquq bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishi bilan bir qatorda, har ikkalasi ham mustaqil umum insoniy va milliy qadriyat bo'lib hisoblanadi.

Birinchidan, axloq, adolat, oqibat, mehr-muruvvat va boshqa axloqiy talablar insonga uning ongi, ma'naviy dunyosi orqali unga ichidan ta'sir ko'rsatadi. Huquq esa tashqi tartibga soluvchi vosita bo'lib normativ-huquq tizimga muayyan yuridik tilda yozilgan qoidalarni o'zida mujassam etadi.

Ikkinchidan, axloq-insonning sof onggi bilan bog'liq bo'lib ularning ma'naviy hayoti va dunyoqarashiga ta'sir etuvchi vosita bo'lib majburiy tashqaridan obyektiv holda ifoda etish talab etilmaydi. Huquq esa ijtimoiy tartibga soluvchi vosita bo'lib yozma huquqni o'zida aks ettiradi.

Uchinchidan, odob-axloqning mazmuni eng avvalo, insonlarning o'z (qilmishi) uchun qarz, majburiyat, javobgarlik kabilarda mujassam bo'ladi. Huquq esa xuquq yo'l qo'ygan harakatlarda, alohida shaxslarning subyektiv huquqlarida namoyon bo'ladi.

Axloq va huquq bu ikkita ma'naviy, ijtimoiy tartibga soluvchi vosita sifatida jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi.

Odob-axloq kishilar o'rtasidagi munosabatlarni ijtimoiy tartibga soluvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

O'tmishdan ma'lumki, har bir jamiyatning axloqiy talablari mavjud bo'lib o'ziga xos holda namoyon bo'lgan. Axloq qoidalari odatda xulqning umumiy prinsiplarini belgilaydi. Axloqiy normalar jamiyat ta'siri choralari bilan kafolatlanadi. Odob-axloq huquqni shakllantirish va uni amalga oshirishda roli beqiyosdir. Prezident I. Karimov e'tirof etganidek, biz barcha islohotlarni hayotga

tatbiq etishda o‘tmishimizni teran his etib, xalqimizning ruhiyatini, uning tarixiy va milliy o‘ziga xos jihatlarni, an‘ana va urf – odatlarni, O‘zbekistonning buyuk xalqi o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida to‘plagan ajoyib fazilatlarini imkon qadar inobatga olgan holda ish tutamiz. O‘tkazilayotgan islohotlarda milliy va mahalliy shart-sharoitni nazarda tutish, aks ettirish biz uchun ularni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kafolati bo‘lib xizmat qiladi. O‘tmishdan saqlanib kelayotgan yuksak insoniy fazilatlar kishilar odob axloqida ham yorqin namoyon bo‘ladi. Boy odob axloq merosini milliy qadriyat sifatida e‘zozlab undan yangi jamiyat kishilarni tarbiyalashda unumli foydalanishni taqazo etadi.

Imom Al Buxoriy xadislari ko‘rsatilganidek, «insonlarga berilgan fazilatlarining eng yaxshisi axloqdir». Yusuf Xos Xojib «Qutadg‘u-bilik asari odob-axloq, ilm ma‘rifat, jamoat joylarida o‘zini qanday tutish, so‘zning ahamiyati va qadri, mehmondo‘stlik qoidasi, inson ma‘naviy olamining ko‘p jihatlari ijtimoiy tartibga soluvchi vosita sifatida bayon etilgan».

Huquqiy ong bilan odob axloq bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois huquqiy ong jamiyat ongini turli shakllarida ham ifodalanishi mumkin.

Garchi, jamiyatda huquqiy madaniyat muhim o‘rin tutsada jamiyat a‘zosi huquq bilan tartibga solinmagan qadriyatlarni, ya‘ni ma‘naviy tamoyillari va axloqiy normalarini hurmat qilishlari lozim. Yangi jamiyatni qurishda yuksak odob-axloqli kishilarni tarbiyalash muhim masaladir. Chunki, odob saboqlari - hayot saboqlari deb bejizga aytilmaganligi buning yorqin isbotidir.

Prezident I.A.Karimov ta‘kidlaganidek «toki jamiyatning har qaysi a‘zosi o‘z huquqi o‘z burchi va mas‘uliyatini puxta bilmas ekan, uni hayotiy extiyoji sifatida anglamas ekan, bizning islohot, yangilanish haqidagi barcha so‘zlarimiz, say-harakatlarimiz besamar ketaveradi. Bugun odamlarining dunyoqarashi, ongi, tafakkurini o‘zgartirish mana shu masala bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qoladi».

Jamiyatni erkinlashtirish o‘z navbatida xar bir kishi o‘zini to‘la erkin tutishni ham taqozo etadi. Erkinlik qonun ustivorligini ta‘minlashning ham muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Bobomiz Amir Temirning «qayerda qonun hukumronlik qilsa, o‘sha yerda erkinlik bo‘ladi» degan o‘gitlari hozirgi paytda ham o‘ziga xos ma‘no kasb etmoqda.

Yangi jamiyatni qurishda uning a‘zolari huquqiy hulq atvorga ega bo‘lishi va odob-axloq qoidalariga rioya etishi, ular huquqiy madaniyatini oshirishga ham yordam beradi. Yangi jamiyat kishilarining odob-axloqi eng avvalo, jamiyatda kishining hulqi, yurish-turishi va hayot faoliyatining mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatda kishilarning xulqi turli shakllarda bo‘lib huquqiy hulq-atvor, odob-axloq jihatdan baholanishi mumkin.

Jamiyat a‘zosi o‘zining huquqiy madaniyatini shakllantirishdan bevosita manfaatdor bo‘lishi va har doim ularning ijtimoiy xavfli xarakati yoki xarakatsizligi, xulq atvori jamoatchilik nazoratida bo‘lishini ta‘minlash, o‘z navbatida qonunlarning ijrosini amalga oshirishning muhim garovi bo‘lib hisoblanadi. Agar jamiyat a‘zosi xatti-harakatiga, xulq atvoriga, odob axloqiga ijtimoiy baho berilmasa huquqni qo‘llovchi idoralar tomonidan qonuniy munosabat bildirilmasa, bu holat jamiyat uchun yot illatlarning ildiz otishiga yoki tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shaxs xulq atvoriga jamoatchilik ta‘siri katta bo‘lib

ularning, kamolotga erishuvida hamda ularda insoniy fazilatlarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli yangi jamiyat fuqarosini tarbiyalashda jamoatchilik nazorati institutidan ham samarali foydalanish fuqorolik jamiyatini asoslarini shakllantirishga yordam beradi. Jamoatchilik nazoratining odob axloqqa ta’siri negizida qonuniylik, adolat, haqiqat, erkinlik kabi tushunchalar mohiyati teran his qilinmog‘i lozim.

Shu sababli yangi jamiyat fuqarolari Konstitutsiya va qonunlarni hurmat qilish va uni normalariga rioya etishi ular xulq atvorining yuksakligidan dalolat beradi. Shuningdek ular ijtimoiy foydali, jamiyat va davlat tomonidan ijobiy baholanadigan hulq atvorga ega bo‘lishi lozim.

Har bir fuqaro inson huquqlarini hurmat qilishi, davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiq bo‘lishi lozim. Ijtimoiy hayotda hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi o‘zining fuqarolik va insoniy mas’uliyatini anglashi zarur. O‘zbek davlatchiligi rivojlanishining tarixiy tajribasi asosida milliy huquqiy qadriyatlarni e’zozlashi va uni har tomonlama targ‘ib etishi kerak. Demokratiya qadriyatlarini hurmat qilishi va ijtimoiy adolatga sadoqatli bo‘lishi, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi, yurt tinchligi va milliy totuvlikni ta’minlash mas’uliyatini chuqur his etishi lozim. Bundan tashqari, erkin fikr yuritish asosida ijtimoiy hayotda faol qatnashishi darkor. Yurtboshimiz takidlaganidek, «Oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma’naviyatini shakllantirish, boshqacha aytganda ozod, o‘z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko‘rinishlarini o‘zi uchun or deb biladigan, ayni zamonda o‘z shaxsiy manfaatlarini xalq, vatan manfaatlar bilan uyg‘un holda ko‘radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir».

Yangi jamiyat fuqaro nafaqat milliy g‘oyaga sodiqligini namoyon qilib qolmay, balki jahon mafkuralar maydonida bo‘layotgan jarayonlardan voqif bo‘lib o‘zining hayotiy nuqtai-nazariga ega bo‘lishi kerak. «Mustaqillik huquq demakdir». Har bir fuqaroning faravonligi butun jamiyatning faravonligidir. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q», «Biz hech kimga qaram bo‘lmaymiz», «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» kabi purhikmat aqidalarni mohiyatini teran anglashi va o‘z hayot mamotini shioriga aylantirib olishi zarur.

Yuqoridagilarga asosan bayon etish lozimki, yangi jamiyat fuqarolarining odob-axloq va huquqiy madaniyat qoidalarini har bir shaxs qalbi va ongiga singdirish milliy o‘zini anglashda muhim ahamiyat kasb etishi barobarida mustaqilligimizni mustahkamlashga va har bir fuqaroning qalbi va ongiga milliy istiqloq g‘oyasini singdirishga eng muhimi, huquqiy faol jamiyat a’zosini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Erkinlik - kishilar faoliyati bilan tabiat va jamiyatning obyektiv qonuniyatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganishi asosida faoliyat olib borish va hayot kechirish zarurligini ifodalovchi tushuncha.

Milliy g‘oya va mafkurasi shaxs erkinligi g‘oyasiga tayanadi. O‘z haq-huquqini taniydigan, ayni paytda o‘z manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlar bilan uyg‘unlatiradigan insongina milliy g‘oyamiz tamoyillarini to‘g‘ri baholay oladi. *Demokratiya* (yunon. «demos» xalq va «kratos» hokimiyat) - xalq hokimiyati,

fuqarolarning ozodligi va tengligi tamoyillarini e'lon qilishga asoslangan siyosiy tuzum shakli. Demokratiya asosida qiziqish, intilish va manfaatlarni mutanosiblashtirish, muvofiqlashtirish, murosaga keltirish va kelishish siyosati yotadi. Shu ma'noda demokratiya jamiyatdagi kuchlarni birlashtirishga, mamlakat salohiyatini taraqqiyot uchun safarbar qilishga xizmat qiladi.

Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida demokratiyaning asosiy mezonlaridan biri bo'lgan *qonunlarni* joriy qilish muammosi keng yoritilgan. Forobiyning fikriga ko'ra, chinakam qonun o'rnatuvchi yangi qonun qabul qilinayotganida mamlakatdagi barcha tabaqalar, avlodlarga, viloyatlar aholisiga baxt-saodat, shod-hurramlik, erkinlik va farovonlik keltiri-shini hisobga oladi. Qonun turli-tuman fe'l-atvor hamda xislatlarga ega bo'lgan odamlar xayrixohlik bilan kutib olishiga arziydigan bo'lishi zarur¹.

Forobiyning fikriga ko'ra, saodatga oqillik va unga hamisha intilib yashash orqali erishish mumkin. Shunday ekan, qonun mustahkam ruh va oqil idrok tarbiyasiga yo'naltirilgandagina farovonlik tomon yetaklaydi. Demak, rahbar xalq, ommani tarbiyalashga, uning ruhi va idrokini mustahkamlashga harakat qilmog'i zarur.

Bugungi kunda barpo etilayotgan jamiyatning oliy maqsadlaridan biri insonlarning farovon hayotini ta'minlashdir. Jamiyatni boshqarishda odamlarni farog'otda yashashga imkon beruvchi, birdamlikka yetaklovchi, intizomni shakllantiruvchi qonunlarni yaratish ayni biz ko'zlagan maqsadga xizmat qiladi. XX asr boshlarida ozod yurt qayg'usida yashagan Abdulla Avloniy fikricha, «Har bir mamlakatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati - yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'ilqdir».

Forobiy va Avloniy turli davrlarda yashasada, odamlarni erkin va farovon jamiyatga *tarbiya orqali* yetkazishga da'vat qilganlar.

Forobiy fikriga ko'ra, fozil jamiyat aholisining nazariy qarashlari va amaliy ishlariga nisbatan begona g'oyalar asta kirib olib, ularning qarashlarini o'zgartirib yubormasligi kerak. Zero, inson baxt-saodat nimaligini tushungan bo'lsayu, unga erishishni maqsad qilib olmasa, g'oya va xohishiga aylantirilmagan bo'lsa, unga nisbatan ozgina bo'lsada, shavq va zavq sezmasa, istak va mulohazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa, bu qilmishlari noo'rindir.

Umuman, *farovon jamiyat g'oyasi* mustaqil va barqaror taraqqiyot yo'liga kirayotgan jamiyatlar uchun ikki hissa qadrlidir. Uning umuminsoniy jihatlariga, demokratik mohiyatiga ulkan e'tibor berilayotganligi tabiiydir. Zero, mamlakatimizda farovon, ilg'or jamiyat *barpo etish - maqsad*, amalga oshirilayotgan islohotlar - *vosita* bo'lib, jamiyatimizda hukm surayotgan ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, o'z navbatida, islohotlar uchun *shart-sharoitdir*. Qadimgi yunon faylasufi (mil.avv. 384-322) Arastu fikricha, «maqsad emas, balki unga yetish vositalari hal qiluvchi o'rinni egallaydi».

Prezident Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida «Bizning bosh

¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent., 1994. – B. 24.

maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir» mavzuidagi ma’ruzasida «Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi - bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo‘lidan og‘ishmay, izchil va qat’iyat bilan borishdir»¹ degan edi.

Fuqarolik jamiyati - iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayot sohasiga to‘g‘ri keladigan tushunchadir. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy sohasi ko‘lamiga ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar, fuqarolarning turli shakldagi faoliyati, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari ham mansubdir.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyati tashkilotlari haqida xilma-xil qarashlar mavjud. Ular so‘nggi yillarda davlat sektori va xususiy tijorat sektori bilan bir qatorda ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatning tamoman yangi bir qismi sifatida shakllandi.

Fuqarolik jamiyati va davlat tuzilishini quyidagi chizma asosida izohlash mumkin.

Siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, kooperativlar, ishbilar-monlar uyushmalari, klublar va boshqalar fuqarolik jamiyatining yadrosini tashkil etadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiyasi amaliyotga tadbqiq etilmoqda. Prezident Islom Karimov ta’kidlaganidek, «fuqarolik jamiyati mavjud bo‘lmagan joyda siyosiy kelishuvning ham bo‘lmasligi o‘z-o‘zidan ayondir». Zero, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tish degani davlatning kuchliligi yo‘qoladi, degani emas, fuqarolik jamiyati qanchalik taraqqiy topgan bo‘lsa, davlatdagi birdamlik, barqarorlik va uyg‘unlik shunchalik mustahkam bo‘ladi.

Yoshlar - erkin va farovon hayot bunyodkorlari. Prezident Islom Karimovning «Biz hech kimdan kam emasmiz va kam bo‘lmaymiz» degan chaqirig‘ining zaminida boy mazmun mujassamlashgan. Bunda bugungi yutuqlarimizdan faxr tuyg‘usi ham, erkin bunyodkorlik faoliyatiga chorlov ham, mamlakatimizning buyuk kelajagiga ishonch ham o‘z ifodasini topgan. Aslida bu yoshlarimizga g‘amxo‘rlik, mehr-muhabbat, ularning kuch va imko-niyatlariga katta ishonchni anglatadi. Yoshlarni jismonan baquvvat ma‘nan barkamol, aqlan yuksak, ruhan uyg‘oq avlod qilib tarbiyalash millat g‘oyasi sifatida ilgari surildi. Ta’lim sohasini tubdan isloh qilishdan tortib, bolalar va o‘smirlar sportini rivojlantirishgacha bo‘lgan barcha keng miqyosdagi islohotlarning maqsadi ham shunga qaratilgan.

Komil inson azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma’naviyatining uzviy bir qismi bo‘lib kelgan. U islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma’no-mazmun, kasb etgan. Tasavvur (so‘fiylik) ta’limotida inson ruhiy kamolotga erishishining asosiy yo‘nalishi-yo‘llari 4 bosqichdan iborat deb hisoblaydi: 1) shariat; 2) tariqat; 3) ma’rifat; 4) haqiqat.

¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – B. 34.

Barkamol inson haqidagi yuksak g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida, ayniqsa teran ifoda etilgan.

Aslida *komil inson*, bu - tariqat va riyozat yo'li bilan qo'lga kiradigan yuksak martabadir. Voiz Koshifay «Futuvvatnomai sultoni» asarida tasavvufning komillikka daxldor binosi o'nta asosga qurilgani aytiladi: 1) ilm; 2) hilm; 3) taqvo; 4) saho; 5) shukr; 6) sidq; 7) vafo; 8) rizo; 9) safro; 10) ishq.

Prezident Islom Karimov fikricha, «Har qanday insonning eng mo'tabar orzusi, astoydil intilgan asosiy maqsadi - sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash, har tamonlama komil insonni voyaga yetkazishdan iborat».

«Komil inson deganda biz, - degan edi Islom Karimov, - avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi...».

«Yashash qayerda yaxshi bo'lsa, shu yer men uchun Vatan» g'oyaviy qarashida haqiqiy vatanparvarlik tuyg'usi mujassam emasligining sababi: 1) «yashash»-dan ma'no va maqsad faqat yaxshi yeb-ichish, rohat va farog'atni o'ylash, o'zi uchun «barcha qulayliklarga» ega bo'lgan «huzur-halovatdangina» iborat emas. Bunda yashashdan maqsad belgilanmaydi; 2) bunday toifa odamlar, haqiqiy Vatan tuyg'usini anglamaydilar yoki anglashdan yiroq. «Vatan uchun chala ish qilib bo'lmaydi». Bunday odamlar «baxt», «saodatni» faqat moddiy narsalarda ko'radilar. Moddiy boylikka ega bo'lishni baxt deb tasavvur qiladilar. Haqiqiy baxtni, moddiy va ma'naviy boylikni o'zida uyg'un mujassam eta olgan odamgina aniq va mukammal his eta oladi.

Erkin hayot - bu insonning o'z ixtiyori, qobiliyatini erkin namoyon eta olishidir. Hayot erkin bo'lgan joyda taraqqiyot bo'ladi. Shunda inson o'z salohiyatini yuzaga chiqara oladi. Uning salohiyati taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi. Erkin hayot insonga qobiliyatini, salohiyatini yuzaga chiqarishga, o'zi sevgan kasb, mehnat faoliyatini erkin tanlashiga va hammaga bir xil imkoniyat yarata olingan hayotdir. Ana shunday hayotni yaratishni o'zining oldiga maqsad qilib qo'ygan mamlakatda, fuqarolar ozod va obod Vatanga ega bo'ladilar. Bu uning mistiqlol g'oyasining bosh g'oyasi ekanligi, shubhasiz, chuqur falsafiy ma'no va ahamiyat kasb etadi. «Erkin hayot» degani bu xohlagan ishni qilish, el, xalq, Vatan oldida hech qanday mas'uliyat sezmaslik degani emas... Erkin hayot degani bu raqobatga kirisha olish imkoniyatidir. O'z salohiyatini yuzaga chiqarish uchun bahslashish, namoyon eta olish, bunyodkorlik yo'lida orzu-maqсадlarga yetishish uchun yashash, shunga intilish, xohish - istak sezishdir.

Atamalar va asosiy tushunchalar:

Erkinlik – kishilar faoliyati bilan tabiat va jamiyatning obyektiv qonuniyatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganishi asosida faoliyat olib borish va hayot kechirish zarurligini ifodalovchi tushuncha.

Demokratiya – fuqarolar erkinligi va tengligi tamoyili asosida Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan xalq hokimiyatining shakli. Amalda o'rnatilgan va yuzaga chiqailgan erkin, adolatli jamiyat va davlatni anglatuvchi siyosiy tushuncha.

Demokratiyaning ma'naviy–ma'rifiy jihatlar – xalqning hokimiyatini boshqarishda ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan huquqiy, g'oyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, tashkiliy va amaliy shart–sharoitlar va xususiyatlarni anglatuvchi tushuncha.

Milliy davlatchilik – muayyan millatning ijtimoiy–iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy qadriyatlarga, manfaatlariga asoslangan, jamiyat ijtimoiy–tarixiy taraqqiyoti natijasida shakllangan davlatning shakli. Prezident Islom Karimov milliy davlatchiligimiz nazariyasi asoschisi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O'zbek milliy-madaniy qadriyatlarining tiklanishida demokratiyani o'rni haqida gapiring?
2. Demokratiya mohiyati jihatidan qanday ma'noni anglatadi?
3. Demokratiyaning butun dunyoda tan olingan tamoyillari nimalardan iborat?
4. Sharqona demokratiyaning mohiyatini qanday tushunasiz va uning g'arb demokratiyasi bilan qanday farqi bor?
5. O'zbekiston Respublikasi tanlab olgan demokratik taraqqiyot yo'lini qanday tushunasiz?

14-MAVZU: MILLIY G'OYA VA MILLIY-MA'NAVIY QADRIYATLAR

Ma'ruza rejasi:

1. *Milliy g'oyaning ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligi.*
2. *Ma'naviy yuksaklik milliy qadriyatlarni saqlab qolish va uni e'zozlashning muhim omili.*

Mavzuning maqsadi: *Milliy g'oyaning ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligi va uning milliy taraqqiyot sifatida namoyon bo'lishni o'rganish. Milliy-ma'naviy qadriyatlarga munosabatning o'zgaruvchanligini hamda milliy g'oyada umuminsoniy qadriyatlar va milliy xususiyatlarning e'tirof etilishini o'rganish.*

Ma'lumki, ma'naviy umuminsoniy qadriyatlar fuqarolik jamiyatining muhim zaminini tashkil qiladi. Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosida amal qilish, dunyodagi ko'plab xalqlar, elatlar, millatlarning o'tmishdagi, hozirgi davrdagi va istiqboldagi taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi, o'zida jahon sivilizasiyasining yaxlit va bir butunligini ifodalaganligi bilan mintaqaviy, milliy qadriyatlardan tubdan farq qiladi.

Aytish joizki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liqdir. Ularning har ikkalasi bir-biriga ta'sir etadi, biri ikkinchisini to'ldiradi, mazmunan va mohiyatan boyitadi.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad, intilishlarining yaxlitligi, umumiyligini ifodalaydi. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlardan ajratib olib, unga mahliyo bo'lib ketish, o'z millatini maqtash, uning tarixi, madaniyatini ideallashtirish boshqa millat vakillarining milliy tuyg'ulari va nafsoniyatlariga birmuncha tegib ketadi. Bu milliy tuyg'ular millatchilik va shovinistik tuyg'ulariga aylanib ketishi mumkin. Shuning uchun

ham bu masalada hushyorlik, nazokat, insof, diyonat, kamtarlik, meyordan chiqib ketmaslik, o'zga millat kishilari tili, madaniyati, tarixi, an'ana va udumlarini astoydil hurmat qilish talab qilinadi. Zero, mamlakatda bironta ham xalq va millat o'zidan boshqa xalqlar, millatlardan, umumiy jahon sivilizasiyasidan ajralgan holdagi tarixga ega emas.

Millatlar boshqa xalqlarning yutuqlaridan foydalanmay turib rivojlana olmaydilar. Barcha xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy rivojlanish tarixi bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Shuning uchun ham har bir millat o'z doirasida cheklanib qolmay, boshqa millatlar va xalqlar bilan birgalikda taraqqiy etadi. Agar biror millat boshqa millatlar bilan umumiy xususiyatlarga ega bo'lmaganda, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo'lmaganda, ulardan o'rganmagan va o'zidagi yutuqlarni boshqalar bilan baham ko'rmaganda edi, bunday millat jahon sivilizasiyasining samaralaridan foydalana olmagan bo'lardi.

Prezident Islom Karimov aytganidek, "Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham halqimizda azaldan mujassam".

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, xalqimizning ulug'vorligi milliy mahdudlikda emas, balki umuminsoniy hususiyatlarga ega ekanligida, jahon sivilizasiyasiga qo'shgan hissasidir. Milliy manfaatlarni, milliy qadriyatlarni umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarga qarama qarshi qo'yish, millatlararo munosabatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Bir millat manfaat va qadriyatlari boshqa millatnikidan ajralmagan holda o'rganilishi kerak. Respublikada istiqomat qiluvchi har bir millat va elat singari o'zbek xalqining ham o'ziga yarasha ajoyib moddiy, ma'naviy, tarixiy qadriyatlari bor. Ularni oqilona, holisano o'rganish O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanishi iqtisodiy, madaniy, ma'naviy taraqqiyotining asosiy shartlaridan va konstitusiyaviy-huquqiy kafolatlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga mamlakatda yashayotgan barcha xalqlarning an'analari va urf-odatlari, dini, tili va madaniyati hurmat qilinadigan yagona mafkura, dunyoqarash hukmronlik qilmaydigan, so'z va vijdon erkinligi, umuminsoniy qadriyatlar va insonparvarlik kafolatlanadigan, ilm-ma'rifat va barkamol inson kamol topadigan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurishning demokratik qadriyatlar va tamoyillar shakllanishini ta'minlaydigan qonun va qoidalarining kiritilishi O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining kelajak maqsadlarini belgilab berdi. Zero, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati sharoitida Markaziy Osiyoning suveren davlatlari o'rtasida "Turkiston – umumiy uyimiz" g'oyasiga asoslangan millatlararo munosabatlarda umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlardagi millatlararo totuvlik, erkinlik, inson salomatligi, ijtimoiy adolat, qonun oldida tenglik, ahil qo'shnichilik, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalaniish imkoniyatlari va u haqda g'amho'rlik qilish, mehnatsevarlik va har kim o'z ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilish imkoniyatlari, ezgulik, yaxshilik qilish, tinchlik, do'stlik, halollik,

vatanparvarlik, o'zidan kattalarni, ota va onani hurmat qilish, farzandlar haqida g'amho'rlik qilish, vijdon, burch, baynalmilalchilik va boshqalar har bir xalq, millatning ma'naviy qadriyatida o'ziga xos ravishda namoyon bo'lishini ko'ramiz.

Prezident Islom Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida shu masalaga to'xtalib: "Milliy madaniyatning o'ziga xosligini tiklashga alohida e'tibor berilishi kerak. Shu bilan birga, milliy o'zlikni anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari, ideallaridan bizning ko'p millatli jamiyatimiz an'alaridan ajralib qolishi mumkin emas", - deb ta'kidlagan edi.

Shunday qilib, umuminsoniy va milliy qadriyatlar O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi zamini, tayanchi va negizidir.

Milliy istiqlol g'oyasi hech qachon yakka hukmronlikka intilmaydi.

Sobiq totilitar tuzumning yakka hukmron mafkura ta'siri natijasida kishilarimiz xarakteriga va ularni faollashtirishga putur yetgan edi. Haqiqatga ishonmaslik, o'z ijodiy mehnati zavqini tuymaslik, loqaydlik, fikrsizlik, ruhsizlik kabi illatlar jamiyatda ildiz otgan edi. Shuning uchun ham, mustaqillikka erishilgan dastlabki kundanoq, shaxsni tafakkur mustaqilligiga, o'zini o'z miyasidagi totalitar sarqitlardan tozalashga asosiy e'tibor berildi. YA'ni, inson mustaqil bo'lmay turib, faolliksiz mustaqil bo'lmaydi. Prezident Islom Karimov O'zbekiston Konstitusiyasi kuni munosabati bilan: "jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i – inson degan fikrni ilgari surdik", - deganda haqdir.

Barchamiz bilamizki, fuqarolik jamiyati asoslarini barpo eng muhim tarkibiy qismi – ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishdir.

Prezident tomonidan har bir Yangi yilni inson va uning manfaatlari bilan bog'liq - "Oila yili", "Ayollar yili", "Sog'lom avlod yili", "Onalar va bolalar yili", "Qariyalarni qadrlash yili", "Obod mahalla yili", "Mehr-muruvvat yili", "Sihat-salomatlik yili" deb belgilab berilishi davlat siyosati va ezgu an'anaga aylandi. Buning siyosiy va ma'rifiy ahamiyati shundan iboratki, yil davomida insonga alohida e'tibor qaratiladi va uning qadr-qimmatini e'zozlanadi, odamlarning turmush farovonligini yanada yaxshilash, mehr-oqibatini kuchaytirish maqsadida ko'pdan-ko'p hayrli ishlar amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda O'zbekistonda adolatli, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishida, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni qurishda, iqtisodiy isloxlarning samarali bo'lishida inson omili muhim o'rin tutadi. Zero, mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini inson omilisiz tasavvur qilish qiyin. Inson omilining ham kasbiy, g'oyaviy jihatdan kuchaytirilishi iqtisodiyotini yuksak darajaga ko'taradi. Agarda inson kasbiy jihatdan yuksak malakali bo'lsayu, g'oyaviy jihatdan noqis bo'lsachi? Bunda iqtisodiy jinoyatlar, poraxo'rlik, shartnomani bajarmaslik, soxta tenderlik, intizomsizlik, tashmachilik, mas'uliyatsizlik, loqaydlik har qanday gullab yashnayotgan iqtisodiyotni kemirib tashlaydi. Demak, Vatan tinchligi, el farovonligida vijdoniylik, mas'uliyatlilik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, xalollik, intizomlilik nafaqat ma'naviy, mafkuraviy, balki iqtisodiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ma'naviyat, ahloq-odob va ma'rifat jamiyat tafakkuri, demokratik islohotlar samarasini belgilovchi, fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning bosh omillaridan biridir. Ma'naviyat, ahloq-odob va ma'rifat tushunchasi ilmiy talqin qilinsa, fuqarolik jamiyatini barpo etish doimiy tamoyilga, yaxlit tizimga aylanishi zarurligi ma'lum bo'ldi. Bu tizim markazida esa ma'naviyat, ahloq-odob va ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar yetakchilik qilmog'i kerak. Shunday ekan, bugungi kunda fuqarolik jamiyati masalasini haqqoniy ravishda ma'naviyat va ma'rifat masalasi deyish mumkin. Chunki fuqarolik jamiyati – huquq, demokratiya, ma'naviyat va ma'rifat tantana qiladigan adolatli jamiyatdir.

Prezident Islom Karimov asarlarida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan isbotlab berilganidek, ma'naviyat va ma'rifat – millat, mamlakat, fuqarolik jamiyati taraqqiyotini belgilovchi omildir. Ma'naviyat va ma'rifat – shaxs va millatning “aqlli qalbini” ifoda etadigan, tabiat, jamiyat va odamning insoniylashuv, ma'rifatlashuv darajasini bildiradigan ruhiy-aqliy idrok olami hisoblanadi.

Ma'naviyat, axloq-odob va ma'rifat mohiyatan mushtarak tushunchadir. Ma'naviyatni axloq-odobsiz va ma'rifatsiz, ma'rifatni esa ma'naviyatsiz va axloq-odobsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular o'z tabiati va mohiyatiga ko'ra botinan bir-biri bilan chambarchas uzviy bog'liq hamda yaxlit tizimdir. Odob-axloq va ma'rifat, eng avvalo, sof ma'naviy tushuncha va aksincha, ma'naviyat – sof ma'rifiy insoniy sivilizasiyadir. Dunyoni ma'rifat qutqaradi, deganda shubhasiz, ma'naviyat nazarda tutiladi. Zotan, yurtboshimizning “jamiyat taraqqiyotini muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir”, - degan konsepsiyasining ma'nosi shuki, fuqarolik jamiyatida barcha muammo ilm, aql-idrok va tafakkur yordamida hal etiladi. Demak, jamiyat ma'nan sog'lamlashadi, ma'naviy yaxlitlik, butunlik insonga demokratik – huquqiy maqom kasb etadi. Ma'naviyat mezoni buzilsa, ya'ni insof, o'zaro hurmat – izzat, andisha halollik, rostgo'ylik, odamni tark etsa, uning jamiyat va boshqa odamlar bilan huquqiy-ma'naviy munosabatlariga putur yetadi. Chunki, bir kishining huquqlari boshqa odamning huquqlari chegarasi boshlangan joyda tugaydi. Qonun kimning xaq, kimning nohaqligini adolat tarozisida o'lchab beradi. Ularning ikkalasini ham ma'naviyatning pokiza olamiga qaytaradi. Ana shundagina huquq, demokratiya ma'naviyat va ma'rifat mushtarakligi fuqarolik jamiyatining har bir a'zosining axloqiy, ijtimoiy, ruhiy idealiga aylanadi.

Fuqarolik jamiyatida eng avvalo odamiylik hislatlari ustuvor bo'ladi.

Yana shuni ham e'tirof etish joizki, qonunchilik va adolat ustuvor bo'lgan jamiyatda amaldagi qonunlarning mukammal va puxta bo'lishi, ularning o'zgaruvchan vaziyatlarga nisbatan bardoshlilik katta ahamiyat kasb etib, bu fuqarolik tarbiyasi uchun juda qulaydir. Chunki, bir avlod manfaatiga to'g'ri kelgan qonun va huquqiy normalar keyingi avlod tomonidan avtomatik tarzda ham qabul qilinishi mumkin. Demak, siyosiy tizimning legitim va barqaror bo'lishi, qonunlarimizning mukammalligi fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi muhim ma'naviy hamda qonuniy omildir.

O'zbekchilik. Oila va mahalla. Xalqimizning sodda tilida o'zbekchilik degan so'z bor. Bu bizning milliyligimizning asosi bo'lib, xalqimizga xos hislatlar majmuasi, xarakterini anglatadi.

Xalqimizning milliy o'ziga xosligi, oilaga munosabat, jamoaviy turmush tarzi, ya'ni mahallachilikda ham alohida sezilib turadi.

Fuqarolik jamiyati shakllanishining dastlabki siyosiy instituti rolini o'ynaydigan oila xususida qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, oilada jamiyatga xos bo'lgan tipik xususiyatlar va vaziyatlar o'z in'ikosini topadi. Oilada har bir bolaga qadriyatlar tizimi – nima yaxshiyu, nima yomonligi, qaysi xatti-harakati ma'qul, qaysinisi noma'qul, qaysi fikr ma'niliyu, qaysi biri bema'ni ekanligi to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar ota-ona, yaqin qarindosh-urug', qo'ni-qo'shni orqali singdiriladi. Bundan tashqari, aynan oilada hokimiyat va obro'lilik, ya'ni "avtoritet" to'g'risidagi, siyosiy ongga aloqador bo'lgan, siyosiy madaniyat va huquqni ifodalovchi tasavvurlar ham kurtak topadi. Bir qarashda oddiy tug'ilgan er va xotinning nikohga bo'lgan munosabati, uni qadrlashi bola ilk yoshlikdan oilani, oiladagi burch va mas'uliyatining mohiyatini teran tushunib borishga imkon beradi. Bundan tashqari umumxalq referendumlari, saylovlar, saylovoldi jarayonlariga munosabat, bunda ota-onaning faol va ongli ishtirok etishining o'zi ilk yoshdan murg'ak qalbda shu jamiyat va undagi siyosiy hayotining teng huquqli ishtirokchisi bo'lishi mumkinligi hissini tarbiyalaydi.

Jamiyatning manfaatlari keng qamrovli bo'lib, u har bir fuqaroning turfa qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bu holat uning haq-huquqlari ko'pligini keltirib chiqaradi. Buni biz bugungi kunda o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida ko'rib turibmiz.

Mustaqillik yillarida mahallaga tarixda ko'rilmagan darajada e'tibor kuchayib, o'z-o'zini boshqaruvchi tashkilot sifatida haq-huquqlari ortib bormoqda. Bu bejiz emas, albatta.

O'zbek xalqi qadim zamonlardan buyon jamoaviy turmush tarzida yashab kelgan. Kishilar, oilalar muammolari mahallaning ko'pni ko'rgan oqsoqollari, onaxonlari yordamida hal etilgan. Jamoaviy turmush tarzi jamiyat taraqqiyotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Xususan, temuriylar davrida shaharlarida turli hunar egalari mahalla-mahalla bo'lib, yashagani jamiyatni iqtisodiy, ma'naviy jihatlardan juda yuksaltirgan.

Masalaning yana bir muhim tomoni shundaki, mahalla insoniy fazilatlar kamol topadigan, asriy an'analarimiz saqlanib qolgan makondir. Biroq mahallalar faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, ba'zan eskilik sarqitlarining an'analardan farqlashma-yotganlarini ko'ramiz. Ayni paytda tadbirkorlik va ishbilarmonlikni faqat moddiy foyda ortirish yo'li deb bilganlar ham uchrab turadi.

Shuning uchun bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mahallalarning roli yetakchi bo'lib, bu yerdagi ma'naviy muhit milliy istiqlool g'oyasining umuminsoniy va milliy qadriyatlarini belgilab beradi.

Jamiyatdagi barcha insonlar manfaatlari kesishgan joy ham – bu mahalladir. Unda o'sha qiziqish va ehtiyojlardan tortib, har bir oilaning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari uyg'unlashadi. Shu bois ham barcha muammo va ularning yechimlari kaliti mahalladan izlanadi. Prezident Islom Karimovning "Mahalla – haqiqiy demokratiya darsxonasidir", degan purhikmat iboralarning asl ma'nosi ham shunda. o'zini-o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla halqimizning

azaliy udumlari, urf-odatlari, demokratik an'analari, oilani mustahkamlash borasidagi o'lmas qadriyatlari bilan erkin fuqaro tarbiyasida muhim rol o'ynaydi.

Respublika mustaqillikka erishgach, uning dushmanlari, xususan, diniy ekstremistlar yurtimiz tinchligiga mahallalar orqali ta'sir ko'rsatishga astoydil harakat qilib kelmoqdalar.

2005 yil 13 maydagi Andijon voqealari bunday urinishlarining so'ngi ko'rinishlaridan biridir. Bunday voqealar haqida ba'zi bir chet el ommaviy axborot vositalari hodimlari kabi tez baho berib bo'lmaydi, ayniqsa, o'quv qo'llanmalarda. Biroq, bir narsaga aminmizki, Andijon voqealari zamirida tinchligimiz, jumladan, milliy istiqlol g'oyasiga rahna soluvchilarning vayronkor g'oyalari turibdi. Shuning uchun mahallalar bundan buyon ham yoshlarimizni turli g'oyalardan saqlashning asosiy maskani bo'lib qolaveradi.

Atamalar va asosiy tushunchalar:

Milliy g'oya – millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli.

Milliy ruh – millatning ichki ruhiy holati, kechinmalari, his-tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, o'y-fikrlari, maqsad va maslagi hamda kayfiyatini ifodalovchi tushuncha.

Milliy ong – har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, ma'naviy diniy e'tiqodi, madaniy rivoji jarayonida shakllangan dunyoqarashi, tafakkuri, e'tiqod va ishonch tuyg'ularini ifodalovchi tushuncha.

Milliy ma'naviyat va qadriyatlar – millatlarning ma'naviy merosi, an'analari, urf-odatlari, milliy adabiyoti, san'ati va boshqalar bilan umuminsoniy qadriyatlarning milliy darajadagi namoyon bo'lish shakllari bog'langan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Umuminsoniy qadriyatlar deganda nima tushunasiz?
 2. Milliy-ma'naviy qadriyatlarning ko'rinishlarini sanab bering?
 3. Sizningcha, o'zbek xalqi uchun eng xarakteri hususiyat nima?
 4. An'ananing eskilik sarqitidan farqi nimada?
 5. Nima uchun mahallalarni fuqarolik jamiyatining asosi deymiz?
- Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:
1. Milliy g'oyaning milliy-ma'naviy qadriyatlarga ta'sirini aniqlang.
 2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy ma'naviy qadriyatlarga e'tiborning zarurligini tahlil eting.
 3. Tadbirkorlik va ishbilarmonlikda milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanishning umuminsoniy mohiyati va ularning milliy g'oya bilan bog'liqligi haqida fikr yuriting.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari va hukumat qarorlari
 1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
 2. Karimov A.I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
 3. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
 4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi qarori // Xalq so'zi. 1998, 28 iyun.
- II. Manbalar.
 1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar / Tanlangan asarlar. – T.: Fan, 1968. T.1. – 468 b.
 2. Abu Said Gardizi. Zayn al-axbar. – T.: Fan, 1991. – 176 s.
 3. Abuloziy Bahodirxon. Shajarayi turk – T.: CHO'lpon, 1992. – 192 b.
 4. Devonu lug'atit turk. – T.: Fan, 1966. – 550 b.
 5. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. – T.: Fan, 1.j. 1960. – 499 b.
 6. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. – T.: Fan, 1963. 3.j. – 460 b.
 7. Nizomulmulk. Siyosatnoma, yoki siyar ul-mulk. – T.: Adolat, 1997. – 256 b.
 8. Umar Hayyom. Navro'z. – T.: Mehnat, 1990. – 78 b.
- III. Monografiya, broshyura va to'plamlar
 1. Abdullayev U.S. Farg'ona vodiysidagi etnoslararo jarayonlar. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. – 216 b.
 2. Abdullayev R. Obryad i muzika v kontekste kulturi Uzbekistana i Sentralnoy Azii. – T., 2006. – 335 s.
 3. Abdulahatov N., Azimov V.Oltiariq ziyoratgohlari.– T.: Sharq, 2005. – 110 b.
 4. Anarbayerov A.A., Maksudov F.A.Drevniy Margilan (Iz istorii zemledelcheskoy i gorodskoy kulturi Fergani). – T.: Fan, 2007. – 160 s.
 5. Andreyev M.S. Chiltani v Sredne Aziatskix verovaniyax / Religiozniye verovaniya narodov SSSR, 1931. t.1. – S. 263.
 6. Anarbayerov A.A., Ismanov A.Dj., Maksudov F.A. Drevnezemledelcheskaya kultura Yujnoy Fergani i obrazovaniye antropogennogo landshafta // O'zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda. – T.: FAN, 2005. – B. 98–115.
 7. Anorboyev A. O'zbekistonda ilk sug'orma dehqonchilikning shakllanishi va antropogen landshtafning tashkil topishi // O'zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlar. –T.,2006. – B. 9–16.
 8. Antonova YE.V. Obryadi i verovaniya pervobitnix zemledelsev Vostoka. – M.: Nauka, 1990. – 310 s.
 9. Arsenev A. Zveri – bogi – lyudi. – M.: Politizdat, 1991. – 131 s.
 - 10.Argedas X.M.Obichai i obryadi indeysev.– Alma-Ata: Kazaxstan,1989.-172 s.
 - 11.Ashirov A. "Avesto"dan meros marosimlar. – T.: Meros, 2001. – 31 b.
 12. Ashirov A.A. O'zbek xalqining tabiat bilan bog'liq sayllari // "Zamonaviy badiiy madaniyatda folklor va xalq ijodiyoti" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – Boysun, 2002. 23–28 may. – B. 8–10.
 - 13.Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – T.: Alisher Navoiy

- nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 272 b.
14. Basilov V.N. Kult svyatix v islame. – M.: Misl, 1970. – 144 s.
 15. Boys M. Zoroastriysi. Verovaniya i obichai. – M.: Nauka, 1987. – 302 s.
 16. Brikina G.A. Kulturniye svyazi Fergani v I tisyacheletii n. e. // Etnografiya i arxeologiya Sredney Azii. – M.: Nauka, 1979. – S. 100–105.
 17. Bo‘riyev O. Navro‘z tarixidan lavhalar. – T.: O‘zbekiston, 1990. – 64 b.
 18. Bo‘riyev O. Murodbaxsh kunlar. – T.: Fan, 1992. – 39 b.
 19. Gorshunova O.V. Uzbekskaya jenshina: Sosialniy status, semya, religiya (po materialam Ferganskoy dolini). – M., 2006. – 360 s.
 20. Gubayeva S.S. Naseleniye Ferganskoy dolini v konse XIX – nachale XX v (etnokulturniye prosessi). – T.: Fan, 1991. – 130 s.
 21. Drevniye obryadi verovaniya i kulturi narodov Sredney Azii. – M.: Nauka, 1986. – 208 s.
 22. Jabborov I. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 2003. – 208 b.
 23. Javliyev T. Tabiat, inson va din. – T.: Fan, 1986. – 171 b.
 24. Javliyev T. An‘nalar – hayot sabog‘i. – T.: O‘zbekiston, 1992. – 88 b.
 25. Jo‘rayev M. “Sehrlı” raqamlar siri. – T.: O‘zbekiston, 1991. – 111 b.
 26. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq taqvimı va mifologik afsonalar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 1994. – 108 b.
 27. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq samoviy afsonalari. – T.: Fan, 1995. – 109 b.
 28. Jo‘rayev M., Pirmatova M. “Yulduz hisobi” bilan bog‘liq xalq qarashlari // O‘zbek folklorshunosligi masalalari. – Toshkent, 2006. 1- kitob. – B. 38–42.
 29. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq agrar marosimlari tizimida “shoxmoylar” yoki “birinchi qo‘sh” udumi // Akademik Y. G‘ulomov nomidagi respublika ilmiy seminarining 37- yig‘ilishi materiallari. – T., 2006. – B. 83–90.
 30. Jo‘rayev M., Narziqulova M. Mif, folklor va adabiyot. – T.: A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. – 184 b.
 31. Jo‘rayev M. O‘zbek mavsumiy marosim folklori. – T.: Fan, 2008. – 291 b.
 32. Jo‘rayev M. Navro‘z bayrami. – T.: Fan, 2009. – 228 b.
 33. Idanko T.A. K voprosu o xozyaystvenno–kulturnom tipe polusedlix skotovodov–zemledelsev–ribakov deltovix oblastey Sr. Azii // Etnografiya i arxeologiya Sredney Azii. – M.: Nauka, 1979. – S. 148–153.
 34. Zadneprovskiy Y.A. Drevnezemledelcheskaya kultura Fergani. – M.: Nauka, 1962. – 327 s.
 35. Zadixina K.L. Uzbeki delti Amu-Dari // TXAEYE. – M., 1952. t.I. – S. 317–426.
 36. Zaxarova I.V. Dvenadsatiletniy jivotniy sikl u narodov Sentralnoy Azii // TIIE. – Alma–Ata, 1960. T.8. – S. 60–61.
 37. Zemsovskiy I.I. K probleme vzaimosvyazi kalendarnoy i svadebnoy obryadnosti vostochnix slavyan // FE. Obryadi i obryadoviy folklor. – L., 1974. – S. 147–154.
 38. Inostrantsev K.A. Sasanidskiy prazdnik vesni // Sasanidskiye etyudi. – S. Peterburg: V.O. Kirshbauma, 1909. – S. 82–109.
 39. Ismoilov M., Abdusalomov A. Toshqo‘rg‘on va Mashhad qishloqlari tarixidan lavhalar. – Namangan: Namangan, 2006. – 91 b.

40. Isoqov Z. Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarida dehqonchilik taqvimi bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar // “O‘zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va nazariy metodologik yondashuvlar” xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – T., 2004. – B. 205–208.
41. Komarova G.A. Etnicheskiy aspekt ekologizatsii gumanitarnogo znaniy. Mejdissiplinariye issledovaniya v kontekste sosialno-kulturnoy antropologii: Sbornik v chest Yurika Vartanovicha Arutyunyana. In-t etnologii i antropologii im. N.N. Mikluxo-MaklaY. – M.: Nauka, 2005. – S.120 –151.
42. Krinichnaya N.A. O sakralnoy funktsii pastushey trubi (po materialam severnix pastusheskix obryadov) // Russkiy sever: problemi etnokulturnoy istorii, etnografii, folkloristiki. – L.: Nauka, 1986. – S. 181–189.
43. Lobacheva N.P. Formirovaniye novoy obryadnosti uzbekov. – M.: Nauka, 1975. – 140 s.
44. Mahmud Sattor. O‘zbek udumlari. – T.: Fan, 1993. – 240 b.
45. Mes Adam. Musulmanskiy renessans. – M.: Nauka, 1966. – 458 s.
46. Middendorf A.F. Ocherki Ferganskoy dolini. – SPb., 1882. – 489 s.
47. Murashko O. A. Etnoekologicheskiy refugium: konsepsiya soxraneniya traditsionnoy kulturi i sredi obitaniya korennix narodov severa // Etnograficheskoye obozreniye. – 1998. № 5. – S. 83–94.
48. Navro‘z va tabiat sirlari. – T.: Mehnat, 1991. – 30 b.
49. Nalivkin V., Nalivkina M. Ocherk bita jenshini osedlogo tuzemnogo naseleniya Fergani. – Kazan, 1886. – 245 s.
50. Narziqulov A. Dehqon taqvimi. – T.: Mehnat, 1991. – 62 b.
51. Pesherovala M.YE. Nekotoriye dopolneniya k opisaniyu prazdnika tyulpana v Ferganskoy doline // Iranskiy sbornik. K semidesyatiletiiyu professora I.I. Zarubina. – M.: Nauka, 1963. – S. 215–260.
52. Rahmonov F. Ziroatchilik Xomiysi – Bobodehqon va u bilan bog‘liq urf-odatlar // “O‘zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va nazariy metodologik yondashuvlar” xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – T., 2004. – B. 236–242.
53. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. – T.: Fan, 1986. – 216 b.
54. Sarimsoqov B. O‘zbek folklori ocherklari. – T.: Fan, 1988. – 287 b.
55. Snesev G.P. Obryad jertvoprinosheniya vodi u uzbekov Xorezma geneticheskoy svyazaniy s drevnim kultom plodorodiye // MXE. – M., 1960. Vip. 4. – S. 198–202.
56. Suxareva O.A. Islam v Uzbekistane. – T.: AN UzSSR, 1960. – 85 s.
57. Suxareva O.A. K voprosu o genezise professionalnix kultov u tadjikov i uzbekov // Trudi AN Tadj.SSR, 1960. t.CXX. – S. 195–207.
58. Taylor E.B. Pervobitnaya kultura. – M.: Politizdat, 1989. – 573 s.
59. Tokarev S.A. Ranniye formi religii. – M.: Politizdat, 1990. – 623 s.
60. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. – M.: MGU, 1947. – S. 282–341.
61. Traditsionnaya kultura jizneobespecheniya kazaxov. Ocherki teorii i istorii. – Almati: Gilim, 1998. – 234 s.
62. Shaniyazov K.SH. Uzbeki–karluqi (istoriko etnograficheskiy ocherk). – T.: Fan, 1964. – 195 s.

63. Shaniyazov K. O'tgonnoye jivotnovodstvo u uzbekov // Ocherki po istorii xozyaystva narodov Sredney Azii i Kazaxstana. – L.: Nauka, 1973. – S. 87–98.
64. Shaniyazov K.sh. K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda. – T.: Fan, 1974. – 242 s.
65. Shoniyo'zov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T.: Sharq, 2001. – 464 b.
66. Eliade M. Kosmos i istoriya. – M.: Progress, 1987. – 311 s.
67. Qayumov O. "Suv to'ldi" marosimi haqida ba'zi mulohazalar // Folklorshunoslik. O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotiga doir tadqiqotlar. – Navoiy, 2003. 1- kitob. – B. 34–38.
68. Qayumova G. Qizil gul sayli (Uslubiy qo'llanma). – T., 1991. – 17 b.
69. Qoraboyev U., Xudoyorov M. Navro'z. – T.: Akademiya, 2000. – 23 b.
70. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: Sharq, 2002. – 240 b.

IV. Ensiklopediya va lug'atlar

1. Islom. Ensiklopediya: A–H. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2003. – 313 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. J.IV. – T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 608 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. J.V. – T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 592 b.

Sobiq Ittifoqdagi qadriyatlar tizimi va ro'y bergan o'zgarishlar	O'zbekistondagi qadriyatlar tizimi va ro'y bergan o'zgarishlar
XX asrning 80 yillari	
Qadriyatlar tizimining markaziy (siyosiy va mafkuraviy) bo'g'ilari, boshqarish, iqtisod va ma'naviy tizimlarning ishdan chiqqanligi; e'lon qilingan umuminsoniy qadriyatlarni barqaror qilishga siyosiy tizimining tayyor emasligi va imkoni yo'qligi; aholining jamiyat qadriyatlariga bo'lgan ishonchining o'zgarib ketishi, ittifoqning birligini ta'minlab turuvchi milliy tizimning zaiflashishi; hukmron mafkura o'z mavqeini yo'qotib qo'ygani, bu boradagi mafkuraviy mezonlarga ishonchning yo'qolishi va boshqalar natijasida Ittifoq miqyosiga mos keladigan umumiy tizim beqaror va	Respublika iqtisodiyotining Ittifoqqa qaramligining kuchaytirilishi, boshqarish tizimiga markaz tazyiqining o'sib borishi, respublikaga oid milliy va mahalliy qadriyatlar tizimida Ittifoq tizimiga qarshilikning kuchayishi, aholining milliy qadriyatlarga ishonchi o'sib borishi, bunga markaz tomonidan o'tkazilagan tazyiq teskari natija bergani, milliy qadriyatlar, ayniqsa, madaniy merosga nisbatan xalq munosabatlar yo'qligini anglab, olinishi va boshqalar natijasida respublikamizda yangi milliy qadriyatlar tizimiga intilish kuchaygani kuzatiladi.

muvaqqat bo'lgani kuzatiladi.	
-------------------------------	--